

ISBN 978-83-68188-20-2

Kambarova Dildora Ibrohimovna

WYKORZYSTANIE TECHNOLOGII INFORMACYJNYCH W ZWIĘKSZANIU KOMPETENCJI KONWERSACYJNYCH UCZNIÓW W JĘZYKU OBCYM

Monografia

 **iScience**

Warsaw, Poland - 2025

MINISTERSTWO SZKOLNICTWA WYŻSZEGO, NAUKI I INNOWACJI
REPUBLIKI UZBEKISTANU UNIWERSYTET KOKAND ODDZIAŁ
W ANDIJANIE

Kambarova Dildora Ibrohimovna

**WYKORZYSTANIE TECHNOLOGII
INFORMACYJNYCH W ZWIĘKSZANIU
KOMPETENCJI KONWERSACYJNYCH
UCZNIÓW W JĘZYKU OBCYM**

Monografia

Warszawa - 2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
KOKAND UNIVERSITY ANDIJON FILIALI

Kambarova Dildora Ibroximovna

**TALABALARNING CHET TILDA
NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT
VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEXNOLOGIYASI**

Monografiya

Варшава - 2025

U: 811.512.133+811.512.152
ISBN-9987-77-778-5
ББК81-82
К-38

Niniejsza monografia została zarekomendowana do publikacji na posiedzeniu Międzynarodowego Uniwersytetu Kirgisko-Uzbecki imienia Botirali Sidikov w styczniu 2025 r.

Autor:

Kambarova D.I. – Uniwersytet Kokand – Oddział w Andżanie, Katedra Językoznawstwa, Profesor Nadzwyczajny, Doktor filozofii (doktorat).

Redaktor naczelny:

Misirow S.A. – Isokhon Ibrat Instytut Języków Obcych Namangan Dziekan Wydziału Języków Obcych.

Recenzenci:

Nasirdinova Yo.A. – Uniwersytet Kokand - Oddział w Andżanie, Katedra Językoznawstwa, Profesor Nadzwyczajny, Doktor nauk pedagogicznych, profesor;

Kadenova Zh.T. – Kirgisko-Uzbecki uniwersytety, wydziały filologiczne profesor pedagogiki fanlari nomzodi.

Kambarova D.I. Technologia wykorzystania informacji oznacza podnoszenie kompetencji uczniów w posługiwaniu się językiem obcym: Monografia – Warszawa: iScience Sp. z o.o. – 2025. – 109 s.

Niniejsza monografia poświęcona jest badaniu roli i skuteczności technologii informatycznych w doskonaleniu kompetencji uczniów w posługiwaniu się językiem obcym. W tej pracy przede wszystkim analizowane są teoretyczne podstawy kształtowania kompetencji mowy w języku obcym, a w przyszłości rola technologii informatycznych w tym procesie, wygoda, jaką stwarzają dla uczniów i ich znaczenie w osiąganiu sukcesu, efektywne wykorzystanie technologii cyfrowych i interaktywnych platform edukacyjnych w celu rozwijania kompetencji mowy w języku obcym. Za pomocą praktycznych przykładów i badań analizowane są także konkretne osiągnięcia i problemy technologii informatycznych w procesie edukacyjnym. Monografia, badając wykorzystanie technologii informatycznych w nauczaniu języka obcego, ma przyczynić się do doskonalenia metod pedagogicznych i promować innowacyjne podejścia do rozwoju kompetencji mowy uczniów. Monografia stanowi praktyczny materiał dla magistrów, badaczy i nauczycieli języków obcych.

ISBN 978-83-68188-20-2

© Kambarova D.I., 2025
© iScience Sp. z o. o.

U: 811.512.133+811.512.152
ISBN-9987-77-778-5
ББК81-82
К-38

Ushbu monografiya Kokand university Andijon filiali Ilmiy Kengashining 2025-yil yanvardagi-sonli yig'ilishida nashr etishga tavsiya etilgan.

Muallif:

Kambarova D.I. – Kokand university Andijon filiali, tillarni o'qitish kafedrası v.b. dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD).

Ma'sul muharrir:

Misirov S.A. – Isoqhon ibrat nomidagi Namangan chet tillar instituti, chet tillar fakulteti dekani pedagogika fanlari doktori, (DSc), professor.

Taqrizchilar:

Nasridinova Y. – Kokand university Andijon filiali tillarni o'qitish kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent;

Kadenoza Ж.Т. – Kirgiz-O'zbek Universiteti filologiya kafedrası, professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Kambarova D.I. Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalardan foydalanish texnologiyasi: Monografiya – Warszawa: iScience Sp. z.o.o. – 2025. – 109 s.

Mazkur monografiya, talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalarining o'rni va samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Bugungi kunda ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida chet tillarini o'qitish usullari tubdan o'zgarib, interaktiv va innovatsion yondashuvlar asosida yangilanmoqda. Ushbu tadqiqot ishida, avvalo, chet tilda nutqiy kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari atroflicha tahlil qilinadi shuningdek, axborot vositalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi natijasida yuzaga kelayotgan konkret yutuqlar amaliy misollar yordamida yoritib beriladi. Chet til ta'limida audio-vizual vositalaridan foydalanish, virtual texnologiyalar va onlayn simulatsiyalar yordamida autentik muloqot muhitlarini yaratishga qaratilgan yondashuvlar atroflicha ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, chet tilni o'rgatishda axborot vositalarini qo'llash orqali pedagogik metodologiyalarni takomillashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur monografiya magistrantlar, tadqiqotchilar, chet til o'qituvchilari va til o'rganuvchilar uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi. U nafaqat ta'lim sohasidagi innovatsion yondashuvlarni targ'ib etishga, balki pedagogik jarayonda axborot texnologiyalaridan yanada samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishga ko'mak beradi.

ISBN 978-83-68188-20-2

© Kambarova D.I., 2025

© iScience Sp. z o. o.

MUNDARIJA

KIRISH	6
I BOB. TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	8
1.1 § Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari	8
1.2 § Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanishning hozirgi holati	16
1.3 § Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanishning metodologik tavsifi	30
II BOB. TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI.....	43
2.1 § Talabalarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalari: elektron gazeta, YouTube video resurslari va audio podkastlar bilan ishlash metodikasi	43
2.2 § Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasining modeli va metodikasi	68
2.3 § Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda elektron gazeta, You Tube video resurslari va podkastlar texnologiyalarini qoʻllash	73
III BOB. TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH BOʻYICHA TAJRIBA – SINOV ISHLARI	83
3.1 § Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish boʻyicha oʻtkazilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va oʻtkazish...	83
3.2 § Tajriba-sinov ishlari yakuniy natijalarining statistik tahlili.....	91
XULOSA	94
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.....	96

KIRISH

Jahonda bugungi kunda axborot texnologiyalaridagi innovatsiyalar jamiyatning ko'plab sohalarida keng ko'lamli ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon hamjamiyatida turli soha mutaxassislarining mediasavodxonlikka bo'lgan ehtiyoji oshib bormoqda. So'nggi yillarda ingliz va boshqa xorijiy tillarni chuqur o'rgatish, o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida mediata'limning o'ziga xos xususiyatlari, mediasavodxonlikni shakllantirish vositalari va usullarini o'rganish ta'lim jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish o'ta muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi talabalarga ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy axborot vositalaridan foydalangan holda o'qitish usullarini yaratish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyoda yetakchi oliy ta'lim muassasalarida chet tilni o'qitishda axborot vositalaridan foydalanish masalalariga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'ziga xos muqobil texnologiya, mashq va multimediali ta'lim dasturlaridan foydalanishning lingvometodik tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi.

Kommunikativ yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish (Learner Centered Approach), shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuv – lingvodidaktik yondashuv asosida talabalarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish real nutqiy vaziyatga asoslangan o'qitish (Task-based learning), kontekstga asoslangan o'qitish (Content-based learning) hamda loyihaga asoslangan o'qitish Project-based learning) masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish nazariy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bunda xorij mamlakatlari tajribalarini o'rganish va nutqiy kompetensiyani takomillashtirishga doir metodologik usullarni zamon talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarblashib bormoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini chuqur isloh qilish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ishlari strategik taraqqiyot davlat dasturining ustivor vazifalari sirasiga kiradi. Xususan, ta'limda xorijiy tillarni o'rgatishni yanada takomillashtirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, yurtboshimiz tomonidan ta'limda xorijiy tillarni o'rgatishni yanada takomillashtirish masalalarining kuchaytirilishiga alohida ahamiyat qaratildi: "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti- soati

keldi”¹. Bugungi davr chet tildan amaliy foydalanish samaradorligini chet til o’quv predmetining ham, ta’limning ham asosiy muammosiga aylantirdi. Chet til ta’limining asosiy vazifasi talabalarga faqat bilim berish emas, balki bu bilimlar orqali ularning kommunikativ malakasini oshirishdir. Ayni damda chet til ta’limida reproduktivlikdan kognitivlikka qadam qo’yildi. Bunda ingliz tilini o’qitishda o’qituvchi fasilitator, kuzatuvchi, yo’naltiruvchi sifatida, o’quvchi esa passiv emas, balki faol subyekt sifatida harakat qilmoqda. Respublikamizda hozirgi kunda ta’limni raqamlashtirish muhitida bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarida intellektual bilimlar zahirasini egallash, ta’lim sohasida raqamli ta’lim ko’nikmalari va malakalarini oshirish orqali ularning mutaxassislikka oid lingvistik va nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son “2022-2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida Farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10- dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2020-yil 27-fevral PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021- yil 6- maydagi “Chet tillarini o’qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan videoselektor yig’ilishi

I BOB. TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

1.1 § Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda, asosan, xorijiy tillarni o'qitish va IT sohalari pedagoglar va ta'lim oluvchilarning eng ko'p qiziqishini o'ziga tortgani holda, bugungi kunning eng dolzarb yo'nalishiga aylangan.

“Axborot texnologiyalari asosida xorijiy tillarni o'rgatishning ilg'or usullarini ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilardan chet tillarda erkin muloqot qila oladigan fan va texnikaning so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda”².

Hozirda yurtimizning oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim tizimi sifatiga qo'yilgan talablar ortib borishi natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining chet tilni egallash C1 darajasiga javob bera olishi, raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalana olishi nazarda tutilgan holda, ularning kasbiy, hamda chet tilda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga innovatsion yondashish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ustuvor vazifalardan biri bo'lmoqda.

“Ingliz tilini o'qitish jarayonida zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali nutqiy kompetensiyani takomillashtirish samaradorligiga erishishning mazmun-mohiyatini ilmiy-metodik jihatdan asoslash va modellash, axborot vositalari orqali til o'rgatish va o'rganish jarayoni intensivligining ortishi, dolzarbligi chet tillar ta'limi sifatini yuqori bosqichga olib chiqishga imkon beradi”³.

Respublikamizda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida jahon zamonaviy talablari asosida ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'limni rivojlantirish, OTMlar uchun raqamli ta'lim resurslari fondini yaratish, chet tillar o'qituvchilarini

² Sobirova G. S. Umumta'lim maktablari o'quvchilariga ingliz tili olmoshlarini axborot texnologiyalari asosida o'rgatish metodikasi: Ped. fan. fil. dok. avtoref. – Toshkent., 2017. – B. 5.

³ Борщева О. В. Принципы отбора подкастов для обучения иностранному языку // Журнал: Педагогика и Психология Образования. Московский педагогический государственный университет. № 3, 2019. – С. 62-70

tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish va kredit-modulli texnologiya, CEFR malaka talablariga asoslangan ta'lim jarayonlarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi.

AQSh, Birlashgan Qirolliklar, Kanada, Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida chet tilda nutqni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ularga misol tariqasida jahon olimlaridan J. W. Chesebro, J. C. McCroskey, D. F. Atwater, R. M. Bahrenfuss, G. Cawelti, J. L. Gaudino, H. Hodges, A. M. Barraja-Rohan, J. K. Hall, F. Heidari, S. A. Alavi, C. P. Huang, K. Mokhtari, H. B. Thompson, R. Oliver, Y. Haig, J. Rochecouste, K. Sadeghi, M. Azad Mousavi, S. Javidi, M. Saville-Troike, K. Tracy, J. S. Robles, D. Wahyuni, D. Ihsan, R. Hayati, R. F. Young, A. G. Salomatina⁴ va boshqalarning tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu olimlarning ishlarida asosan nutqiy muloqotga o'rgatish usullari, shuningdek, lingvistik kompetensiya, og'zaki nutqni ravonlashtirish muammolari o'rganilgan, lekin nutqiy kompetensiyani axborot vositalari orqali rivojlantirish masalalari ko'rilmagan.

⁴ Chesebro J. W., Croskey Mc., Atwater J. C., Bahrenfuss D. F., Cawelti R. M., Gaudino J. L., Hodges. H. Communication apprehension and self-perceived communication competence of at-risk students. *Communication Education*. 1992, № 41(4). – P. 345-360; Barraja Rohan A. M. Using conversation analysis in the second language classroom to teach interactional competence. *LanguageTeaching Research*. 2011, №15(4). – P. 479-507; Hall J. K. 'A prosaics of interaction: The development of interactional competence in another language', in E. Hinkel (Ed.), *Culture in second language teaching and learning*. – New York: Cambridge University Press. 1999. – P. 137-151; Heidari F., Alavi S. A. Knowledge of Grammar, Oral Communication Strategies, and oral Fluency: A Study of Iranian EFL Learners. – *Iranian Journal of Applied Language Studies*. №7(1), 2015. – P. 83-104; Huang C. P. Exploring factors affecting the use of oral communication strategies. *Long Hua Technology University Journal*.

№30, 2010. p 85-104; Mokhtari K., Thompson H. B. How problems of reading fluency and comprehension are related to difficulties in syntactic awareness skills among fifth graders. *Literacy Research and Instruction*, № 46(1), 2006. – P. 73-94; Oliver R., Haig Y., Rochecouste, J. Communicative competence in oral language assessment. *Language and education*, 19(3), 2005. – P. 212-222; Sadeghi K., Azad Mousavi M., Javidi S. Relationship Between EFL Learners' Self-Perceived Communication Competence and Their Task-Based and Task-Free Self-Assessment of Speaking. *Research in Applied Linguistics*, №8(2), 2017. – P. 31-50; Saville-Troike M. *The Ethnography of Communication: An Introduction*. 3rded. Oxford: Blackwell Publishing Ltd, 2003; Tracy K., Robles J. S. *Everyday talk: Building and reflecting identities*. 2nded. NewYork: Guilford Press, 2013; Wahyuni D, Ihsan D, Hayati R. Linguistic Competence and Speaking Performance of English Education Study Program Students of Sriwijaya University. *Journal of English Literacy Education*, №1(2), 2015. – P. 83-92; Young R. F. Learning to talk the talk and walk the walk: interactional competence in academic spoken English. *Ibérica*, №25, 2013. – P. 15– 38; Саломатина. А. Г. Методика развития умений говорения и аудирования учащихся посредством учебных подкастов: английский язык базовый уровень: Дисс. канд. пед. наук. – Москва, 2011. – С. 130

So'nggi o'n yillikda chet tillarni o'qitish masalasi yanada dolzarblashdi va bu masala bo'yicha yangi yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, I. M. To'xtasinovning "Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish", R. F. Gabdulkakovaning "Rus tilini o'rgatish jarayonida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish", G. A. Inamovaning "Ingliz tili darslarida o'quvchilarning tinglab tushinish ko'nikmasini audiovizual vositalar orqali rivojlantirish metodikasi", F. A. Xamroyevaning "Oliy ta'lim muassasalarida tabiiy geografik fanlarni mediatexnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy metodologik asoslari", S. S. Babadjanovning "Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi (Informatika va axborot texnologiyalari) fanini o'qitish misolida", L. M. Karaxanovaning "Biologiyani o'qitishda elektron ta'limiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7 sinf misolida)", M. I. Axmedovaning "Medik talabalarining chet tilda kasbiy kommunikativ kompetensiyasini axborot texnologiyalari yordamida shakllantirish", U. U. Jumanazarovning "Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini misol qilish mumkin⁵.

Yuqoridagi tadqiqot ishlarida kasbiy kompetentlik, lingvistik va kommunikativ kompetensiya, tinglab tushunish kompetensiyasi, mediakompetentlikni rivojlantirish masalalari hamda fanni o'qitishda ta'limiy resurslardan foydalanish metodikasi yoritib berilgan, lekin aynan YouTube, elektron gazetalar, audio podkastlardan foydalanish metodikasi va

⁵ To'xtasinov I. M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Ped. fan. bo'yicha falsafa dok. (DSc) diss. – Toshkent, 2018; Gabdulkakova R. F. Rus tilini o'rgatish jarayonida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. fan bo'yicha fal. dok. diss. avtoref. – Namangan, 2022; Inamova G. A. Ingliz tili darslarida o'quvchilarning tinglab tushinish ko'nikmasini audiovizual vositalar orqali rivojlantirish metodikasi: Ped. fan bo'yicha fal. dok. diss. avtoref. – Namangan, 2022; Xamroyeva F. A. Oliy ta'lim muassasalarida tabiiy geografik fanlarni mediatexnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy metodologik asoslari: Ped. fan bo'yicha fal. dok. diss. – Toshkent 2007; Babadjanov S. S. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi (Informatika va axborot texnologiyalari) fanini o'qitish misolida: Ped. fan bo'yicha fal. dok. diss. – Guliston, 2008; Karaxanova L. M. "Biologiyani o'qitishda elektron ta'limiy resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7sinf misolida): Ped. fan bo'yicha fal. dok. diss. – Toshkent, 2008; Axmedova M. I. Medik talabalarining chet tilda kasbiy kommunikativ kompetensiyasini axborot texnologiyalari yordamida shakllantirish: Ped. fan bo'yicha fal. dok. diss. – Andijon, 2020; Jumanazarov U. U. Ta'limni raqamlashtirish muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish: Ped. f. dok. diss. – Jizzax, 2021.

texnologiyasi tadqiq qilinmagan.

Tadqiqot mavzusini ilmiy-nazariy tadqiq etishdan oldin mavzuga oid terminlarning mazmun va mohiyatini ilmiy-metodik jihatdan asoslaymiz. Bunda kommunikativ kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Nutq faoliyati kompetensiyasi tushunchasi ilmiy termin sifatida birinchi marta L. S. Vigotskiy tomonidan fanga kiritilgan va asoslangan. Keyinchalik uning bu boradagi g'oyalari o'zi yaratgan ilmiy maktab a'zolaridan L. I. Bojovich, P. Y. Galperin, A. N. Leontev, A. R. Luriyalar tomonidan rivojlantirilgan. L. S. Vigotskiy "nutqni inson faoliyatining muloqot jarayonidagi harakati deb hisoblaydi"⁶. Nutq faoliyatida u insonning ijtimoiy shakllanishi imkoniyatini uning barcha bilimlarni egallash imkoniyati deb bildi.

"Ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish shuni tasdiqlaydiki, jahon metodikasida chet til ta'limi uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: 1) til (lingvistik) kompetensiyani shakllantirish, ya'ni tilni ilmiy egallash; 2) nutq kompetensiyasi, ya'ni muayyan tilning vazifaviy parametrlari, registrlarini bilish; 3) kommunikativ kompetensiya, ya'ni kommunikatsiyaning turli sohalarida erkin muloqot olib borish uchun barcha verbal va nonverbal vositalardan samarali foydalanish qobiliyati.

Bu til orqali fikrlarni shakllantirish va ta'riflash usullariga ega bo'lish, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonida bunday usullardan foydalanish layoqatini anglatadi. O'rganilayotgan til me'yorlari, usullari ushbu til madaniyati an'analariga muvofiq, aloqa-aralashuv jarayonida o'zaro bog'liqlik muammolarini hal qilish uchun zarur va yetarli miqdorda o'zlashtirilishi kerak"⁷.

Hozirgi kunda o'rganilayotgan chet tilni muloqot tili sifatida o'qitishda kommunikativ kompetensiya polimorfik, ya'ni o'zida bir nechta kompetensiyalarni qamrab olgan tushuncha sifatida talqin qilinmoqda. Kommunikativ kompetensiya sotsiolingvistik tavsifga ega bo'lib, shaxsning kommunikativ faoliyati va turli ijtimoiy vaziyatlarda til va nutq qoidalarini (tinglab tushunish va gapirish), nutqiy strategiya va taktikalarni to'g'ri ishlatishi, muomala madaniyatining shakllanganligini ifoda etadi.


"Kommunikativ kompetensiya – bu bilim, ko'nikma va malakalar (tajribalar) majmui bo'lib, turli xil vaziyatlarda tildan mazmunli

⁶ Кравцова Е. Е. Развитие идей Л. С. Выготского о мышлении и речи в современной образовательной практике. Киберлиника. 2015. – С. 1. Электронная статья. (дата обращения 12.06.2022)

⁷ Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М., 2009. – С. 240

foydalanishni anglatadi. Shu bilan birga, fonologiya va grammatikaga oid bilimlar, soʻzlarni qanday va qachon toʻgʻri ishlatish haqidagi ijtimoiy bilimlar majmuini ifodalaydi⁸. Zamonaviy taʼlimning chet tillarni oʻqitish sohasidagi asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishdir.

Van Ekk kommunikativ kompetensiyani: lingvistik, ijtimoiy-madaniy, sotsiolingvistik, strategik, diskursiv, ijtimoiy komponentlardan tashkil topganligi bilan keng qamrovda izohlaydi⁹. Yevropa Ittifoqi Kengashi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasida ishlab chiqilgan Yevropa Kengashining “CEFR: Chet tillarni egallashning umumiyevropa kompetensiyalari: oʻqitish, oʻrgatish va baholash” malaka talablarida kommunikativ kompetensiya modeli 1. 1-rasmda keltirilgan.



1.1 Kommunikativ kompetensiya

Koʻplab tilshunos va lingvodidakt olimlar nutqiy kompetensiyani har turdagi munozaralarni yaratish va tushunish layoqati, deb biladilar, shuning uchun nutq kompetensiyasi “diskursiv kompetensiya” nomi bilan ham yuritiladi.

Tegishli ilmiy-metodik adabiyotlar bilan tanishish natijasida nutqiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati va funktsional vazifalarini toʻliq ifoda etgan mufassal taʼrifi Y. V. Soyfer tomonidan quyidagicha berilganligining guvohi boʻldik: “Nutqiy kompetensiya, boshqacha aytganda, diskursiv, turli xil nutq turlarini yaratish va tushunish qobiliyati bilan bogʻliq. Bundan tashqari, diskurs muloqotning ishtirokchilari (ularning xususiyatlari), shuningdek, xabarni ishlab chiqarish va idrok etish jarayoni toʻgʻrisida

⁸ Savignon S. J. Beyond communicative language teaching: What's ahead? Journal of Pragmatics. 2007. №39. – C. 207-220

⁹ Sultonova N. Talabalarining chet tilidagi kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish. Oriental Journal of Philology 2022. – B 68

tushuncha beradigan ijtimoiy kontekstni o'z ichiga olgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida tushuntiriladi"¹⁰.

M. P. Manayenkova N. N. Romanova va A. V. Filippovlarning fikrlariga qo'shilgan holda "Nutqiy kompetensiyani nutqning ma'lum bir tilda erkin amaliy egallash, dialog, monolog va polilogda to'g'ri, ravon va dinamik so'zlashish qobiliyati, tinglanadigan va o'qiladigan nutqni yaxshi tushunish, shu jumladan, har qanday funksional uslubda uni namoyon qilish shaxs madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi, – deb ta'kidlaydi"¹¹.

Shuni ta'kidlash joizki, olimlarning yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqot ishlarida nutqiy kompetensiya tushunchasi haqida har xil fikr va nazariyalar berilgan. Ayrim mualliflarning ishlarida kompetensiya va kommunikativ kompetensiya talqinida shunday chalkash holatlar kuzatiladiki, bu qizg'in bahs- munozaralarga sabab bo'ladi.

Biz ushbu olimlar va tadqiqotchilarning fikrlariga tayangan holda nutqiy kompetensiyaga mualliflik ta'rifini berishga harakat qilamiz. Demak, nutqiy kompetensiya bu verbal va noverbal (lisoniy va nolisoniy) nutqqa ega bo'lish, lingvistik, pragmatik (diskursiv), psixolingvistik, sotsiolingvistik-sotsiokulturologik, strategik, shuningdek, lingvobixevorologik sohalaridagi kommunikatsiyada layoqatli bo'lishdir.

Ayrim ilmiy manbalarda "Til o'rganish jarayonida internet til o'rganish dasturlari va onlayn materiallaridan foydalanilsa, bu talabalarning til o'rganishlariga o'zgacha ilhom bag'ishlaydi"¹² degan fikrlar mavjud.

"Hozirgi kunda talabalarning til o'rganish jarayonini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Talabalar zamonaviy axborot vositalari orqali chet tilni o'rgansalar, ular qo'shimcha motivatsiya bilan til o'rganadilar"¹³.

"Chet tilni o'rganish jarayonida zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish zaruriyatga aylanib bormoqda. Hozirda chet til o'qituvchilariga ham, talabalarga ham axborot vositalaridan foydalanish imkoniyati

¹⁰ Сойфер Э. В. Создание и восприятие дискурса в условиях управляемого общения на иностранном языке // Казанская лингвистическая школа: традиции и современность. – Казань, 2003. – С. 70-75.

¹¹ Романова Н. Н., Филиппов А. В. Словарь. Культура речевого общения: этика, прагматика, психология. – М., 2010. – С. 174; Манаенкова М. П. Речевая компетентность выпускника вуза основа его успешной социализации // Социально-экономические явления в процессе. – Тамбов, 2013. № 9. – С. 156-158.

¹² Alexandra S., Hanna S., Sommer A and Svensson H. Incorporating digital gaming and applications in the classroom and its effects on motivation and learning among EFL learners. 2019. Retrieved in March 2019 from <https://muep.mau.se/handle/2043/27963>.

¹³ Smith S. A. Digital Environments and Motivation among Young ESL Learners. The TESOL Encyclopedia of English language Teaching. 2019. – P. 1-8

cheksiz”¹⁴.

Agar chet tilni oʻrganish jarayonida YouTube videolaridan foydalanilsa, bu samarali natija berib, maʼlumot talabalarning xotirasiga uzoq muddat saqlanib qoladigan til oʻrganish jarayonini yaratishga omil boʻladi. Bu videolarni koʻrishga ichki ishtiyoqning mavjudligi buni taʼminlaydi.

S. June, A. Yaakob va Y. K. Khenglarning fikrlariga koʻra, “Dars mashgʻulotida audio vizual til vositalari yoki (YouTube) materiallari taqdim etilganda hatto darsga eʼtiborsiz, zaif yoki uyatchan oʻquvchilar ham oʻzlarini darsga jalb qilingan, oʻzaro muloqotda motivatsiya olgan va eng asosiysi, til oʻrganishga boʻlgan qiziqishi ortganini his qiladilar”¹⁵.

“Axborot vositalarining onlayn turlari oʻquvchilarning nutqiy kompetensiya va tinglab tushunish koʻnikma hamda malakalarini sezilarli darajada yaxshilaydi”. Shunday qilib, axborot vositalarining til oʻrganishda ahamiyati katta. “Axborot vositalari talabalarga til oʻrganishda original maʼlumotlar bilan tanishish, tilni autentik, nutqiy vaziyatlarni oʻzlashtirish imkonini beradi”¹⁶.

T. Heick axborot vositalarining taʼlimga integratsiyasi haqida shunday fikr bildiradi: “Til oʻrganuvchilar maʼlumotlarni topishda muammolarga duch kelishi allaqachon tugagan, oʻqituvchi va talaba uchun zarur boʻlgan har qanday maʼlumot internetda mavjud. Tadqiqotchining fikriga koʻra, chet tilni oʻrganish va oʻqitishda foydalaniladigan grammatika kitoblari kabi anʼanaviy resurslarni chetga surib qoʻyish barobarida zamonaviy axborot vositalari va ularning har xil turlari kirib keldi”¹⁷.

J. B. Sonning taʼkidlashicha, “Oʻqituvchilar topshiriqlarni tayyorlashlarida chet til mashgʻulotlariga mos materiallardan foydalanishlari uchun saytlardan chet til materiallarini topishlari mumkin. Chet til mashgʻulotlarida internet resurslaridan foydalanish talabalarning dars va darsdan tashqarida til oʻrganishlarining yanada innovatsion va samarali metodlari bilan taʼminlashda muhimligini taʼkidlaydi”¹⁸. Uning

¹⁴ Riasati M. J., Allahyar N., Tan K. E. Technology in language education: Benefits and barriers. *Journal of Education and Practice*. № 3(5), 2012. – P. 25-30

¹⁵ June S., Yaacob A., Kheng Y. K. Assessing the Use of YouTube Videos and Interactive Activities as a Critical Thinking Stimulator for Tertiary Students: An Action Research. *International Education Studies*. № 7(8), 2014. – P. 56-67.

¹⁶ Сергеева Н. Н., Чикунова А. Е. Аутентичные видеоматериалы как средство развития социальнокультурной компетенции студентов экономических специальностей // *Педагогическое образование в России*, 2011, № 1. – С. 147-157.

¹⁷ Heick T. Three ideas for 21st Century Global Curriculum. 2012. Retrieved from: www.edutopia.org.

¹⁸ Son J. B. Using Web- based learning activities in the ESL Classroom. *International Journal of Pedagogies and Learning*. 2008.

kuzatishlarida (CALL) kompyuter vositachiligida til o'rganish o'quvchilarga chet til o'rganishning yangi yo'llarini va foydali resurslarni taqdim etadi. Ushbu usuldan foydalanishning dolzarbligi shundaki, u o'qituvchining rolini innovatsion fasilitatorga aylantiradi, shuningdek, talaba pozitsiyasi mustaqil o'rganuvchiga o'zgaradi. Natijada ta'lim samaradorligi misli ko'rilmagan darajada ortadi, majburiy ta'lim maqsadli ta'lim bilan o'rin almashinadi.

S. Morrisonning fikriga ko'ra, "Chet til darslarida zamonaviy axborot vositalaridan, jumladan, internet, onlayn jurnallar, internet gazeta, bloglar, til o'rganish dasturlari, YouTube videolaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi uchun eng yaxshi manba, chunki ular til o'rganish resurslaridan tez va jozibali tarzda foydalanish imkonini beradi"¹⁹.

Agostinho va Reeves, Macgregor and Lou, M. Waschauerlar ham chet til darslarida zamonaviy axborot vositalaridan, internet resurslaridan unumli foydalanish kerak degan fikrni qo'llab – quvvatlaydilar. Ular chet til darslarida internet video va audio materiallari, Youtube videolari va platformalari talabalarga autentik nutqiy vaziyatni ta'minlab beruvchi vositalardir degan fikrni beradilar²⁰.

Hozirgi zamon chet til o'qitish metodikasini bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan turli xil axborot vositalari va raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan tasniflash mumkin.

Hozirda axborot vositalarining offlayn (offline) va onlayn (online) turlari mavjudligi tufayli o'qituvchilar ushbu turlardan foydalanganlarida yangidan-yangi usullar, til o'rganuvchilar esa cheksiz manbalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

J. Gerbaud "Chet tilni o'rganishni xohlaganlar uchun onlayn manbalari kunlik yangilanish hamda har xil turdagi sinxron, asinxron ikki tomonlama aloqalar bilan ta'minlanganligi tufayli offlayn manbalarga qaraganda ancha ma'lumotlarga boyroqdir"²¹ deya ta'kidlaydi.

F. Mangeno "Axborot vositalarining ta'limga integratsiyasi bu ta'lim sohasida axborot vositalaridan samarali foydalanish, mashg'ulotlarda ulardan

¹⁹ Morrison S. Interactive Language Learning on the Web. ERIC Clearing house on Languages and Linguistics Washington DC. Retrieved from: www.eric.ed.gov.

²⁰ Agostinho and Reeves. Implementing Authentic Tasks in Web-based Learning Environment. *Educause Quarterly*. № 3 2007; Macgregor and Lou. *Web based learning: how task scaffolding and website design support knowledge acquisition*. 2006. Resource 22. Louisiana State University; Warschauer M. *Online communication*; Carter R, Nuan D. *The Cambridge guide to teaching English to speakers of other languages*. – Cambridge. 2001. – P. 207-212.

²¹ Gerbault J. *TIC et diffusion du français: des aspects sociaux, affectifs et cognitifs aux politiques linguistiques*. Paris, Éd. L'Harmattan, coll. *Langue et parole*. 2002. – 223 p. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://questionsdecommunication.revues.org/7137/> (дата обращения 06. 02. 2023).

foydalanishning afzalliklarini ko'ra bilish, har bir talabaning darsda faolligini, yaxshi o'zlashtirish natijasida motivatsiya olishini tushunadi"²². Axborot vositalari talabalarga ma'lumotni topishning usullarini, uni taqdim etishning yangi shakllarini, hattoki o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham katta yordam beradi.

Bu o'rinda masalaning eng muhim tomoni shundaki, o'qituvchilar talabalarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish uchun mo'ljallangan chet til darslarini rejalashtirishda ularning til bilish darajasi, saviyasi, yoshi, til o'rganish uslubi va axborot vositalarini ham hisobga olishlari lozim. YouTube kabi internet saytlar o'quvchilarning tinglab tushunish, gapirish qobiliyatlarini tez, sodda va samarali ravishda rivojlantiradi, mashg'ulot jarayonida ularning interaktivligini oshiradi, shu bilan birga, texnologik ko'nikmalarini rivojlantiradi va samarali natija beradi.

1.2 § Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanishning hozirgi holati

Dissertatsiyamizda axborot vositalarining lingvodidaktik maqomini aniqlash maqsadida asosan quyidagi metodistlarning fikrlarini inobatga oldik.

Rossiyalik metodist olim Y. N. Solovolova "Darsda va darsdan tashqarida chet tilni o'qitish va o'rganish jarayonida yordam beradigan barcha vositalarni, hattoki yordamchi vositalarni ham o'qitishning asosiy o'quv quroli deb biladi. Bunga quyidagilarni kiritadi:

- asosiy va yordamchi;
- talaba va o'qituvchiga yo'naltirilgan;
- texnikaviy va notexnikaviy.

U o'quv-uslubiy majmuani asosiy o'quv quroli deb hisoblaydi, olim o'quv-uslubiy majmua faqatgina o'quv darslik sifatida qo'llanilmasligi, balki aynan o'qitish uchun asosiy uslubiy qo'llanma bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Agar maqsad talabalarni ingliz tiliga shunchaki o'qitish emas, balki kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo'lsa, unda birgina darslikning o'zi dars mashg'ulotida til o'rganuvchilarning tilni o'rganish salohiyatini real tarzda oshirishga yetmasligi aniqligi, buning uchun yordamchi vositalardan, ya'ni turli axborot vositalaridan foydalanish

²² Mangenot F. Apprentissages collaboratifs assistés par ordinateurs appliqués aux langues // Interaction, interactivité et multimedia. – Paris: Editions. №5. R. 11– 18.

kerakligi”²³ni ta’kidlaydi.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda mavjud o’quv majmualarida axborot vositalari sifatida faqatgina CD berilganini ko’ramiz. Masalan, talabalarning og’zaki va yozma nutqini rivojlantirishda Sue Kay and Vaughan Jonesning “Inside Out” Macmillan (Pre-intermediate, Upper intermediate, Advanced), David Bohlke, Dorothy E. Zemach (2013) Skillful reading and writing. Macmillan. (1 kurs) Louis Rogers and Jennifer Wilkin, Dorothy E. Zemach (2012) Skillful 2 va 3 Reading and Writing. Macmillan. (2 kurs) Virginia Evans (2000) Successful writing upper- intermediate, darsliklaridan foydalaniladi. Ushbu darsliklarning ba’zilariga faqatgina CD berilgan bo’lib, aslida esa bizning fikrimizcha, talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda buning o’zi yetarli emas. Axborot vositalarini talab darajasida qo’llash o’qituvchi mahoratiga, uslubiga, uning izlanuvchanligiga ham bog’liq bo’ladi. Shu o’rinda Y. N. Solovolovning nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda darslikning o’zi yetarli emas degan fikriga to’la qo’shilgan holda YouTube, Podcast va elektron gazetalardan foydalanish yetarlicha samara berishini tadqiqotimiz davomida kuzatdik. Kiyevlik metodist, professor M. V. Lyaxovitskiy “fono-materialdan foydalanishning oltita maxsus tamoyilini atroflicha tadqiq etgan: 1) oldin ovozi nutqni tinglash tamoyili (chet til o’rgatish tinglab tushunishdan boshlanadi); 2) ko’p marta qayta takrorlash tamoyili (tovush yozuvi takror va takror tinglanish yo’li bilan); 3) nutq oqimi bo’linishi va to’xtab olish tamoyili (nutq parchalarga ajratilishi va pauza vaqtida o’quvchi mashqlar bajarishi mumkin); 4) nutq namunasiga taqlid qilish tamoyili; 5) qiyoslash, farqlar bo’yicha o’zini nazorat etish va xatto, kamchiliklarni to’g’rilash tamoyili; 6) nutq faoliyatini boshqarish tamoyili”²⁴.

O’zbekistonlik metodist, professor J. Jalolovning fikriga ko’ra, “Chet til o’qitish maqsadlarining ro’yobga chiqishida foydalaniladigan vositalarning metodik tasnifi quyidagicha: 1) bajaradigan vazifasiga ko’ra asosiy va qo’shimcha (yordamchi) o’quv qurollari turlari; 2) kimga mo’ljallanganligiga qarab muallim yoki o’quvchilar qo’llaydigan o’quv qurollari; 3) axborot keladigan yo’l (analizator)ga nisbatan – eshitish, ko’rish, eshitib-ko’rish nomlaridagi; 4) texnika ishtirokini hisobga olib, an’anaviy (notexnik) va zamonaviy (texnik) atalmish o’quv qurollari;

²³ Соловолова Е. Н. Методика обучения иностранным языкам. Базовый курс лекций. Пособие для студентов педагогических ВУЗов и учителей. 3-е издание. – М: Просвещение. 2005. – С. 34-38.

²⁴ Ляховицкий М. В. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М: Высшая школа 1982. – С. 76-77.

5) ishlab chiqarilishi nuqtai nazaridan – ommaviy va mahalliy o‘quv qurollari mavjud. Ilmiy manbalarda nomlari keltiriladigan asosiy o‘quv qurollariga dastur, darslik (o‘quvchi kitobi – student book, muallim kitobi – teachers book, o‘qish kitobi – workbook) kiritiladi. O‘quv-metodik komplektning tarkibidagi boshqa vositalar yordamchi hisoblanadi. Analizatorlar ishtirokidan kelib chiqqan nomlardagi eshitish, ko‘rish va eshitib-ko‘rish vositalari an‘anaviy o‘quv qurollari tarkibiga kiradi. Yordamchi vositalar texnikaviy va notexnikaviy toifalarga bo‘linadi. Texnikaviy vositalarni, o‘z navbatida, uchga bo‘lish mumkin:

1) fonogrammalar; 2) fotogrammalar; 3) videofonogrammalar.

Texnikaviy va notexnikaviy turlar ichida hamma o‘quv vositalari sanab o‘tiladi. Ular orasida analizatorlar ishini nazarda tutuvchi vositalarning asosiy va yordamchi turlari uchraydi. O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan vositalar bundan mustasno. Xulosa shuki, chet til o‘qitish vositalari quyidagi tartibda tasniflanadi: asosiy va yordamchi o‘quv qurollari, ular tarkibiga texnikaviy (zamonaviy) va notexnikaviy (tarixiy yoki an‘anaviy) vositalar kiradi. Bularning ikkalasida ham o‘qitishning eshitish, ko‘rish va eshitib-ko‘rish audiovizual vositalari mavjud. Eshitish, ko‘rish va eshitib-ko‘rish vositalari, o‘z navbatida, yanada kichik toifalarga bo‘linadi. Chet til o‘qitish metodikasi masalalariga bag‘ishlangan darslik va qo‘llanmadan tortib ilmiy maqolalar, metodik xat, ishlanma va tavsiya kabilargacha chop etiladigan materiallar metodik adabiyot deyiladi. O‘qituvchilar uchun mo‘ljallanadigan bunday metodik manbalar o‘quv vositalarini hisobga olgan holda tayyorlanadi”. Dastur o‘qituvchi uchun to‘liq kurs davomida, o‘quvchi kitobi har bir sinf uchun, muallim kitobi ham sinflar bo‘yicha qo‘llanadi. Asosiy o‘qish kitobi, lug‘at birinchi va ikkinchi yilda zarur emas. Rasmlar albomi, osma rasmlar va didaktik tarqatma material kabilar boshlang‘ich bosqich uchun, ayniqsa, qo‘l keladi. Chet tildagi gazetalar, ma‘lumotnoma, qo‘shimcha o‘qish kitoblari yuqori sinflarda qo‘llanadi. Dars bosqichiga qarab, o‘qitish vositalari farqlanadi. Tarqatma material o‘quv birliklarini takrorlash va mustahkamlashga, flanelegraf esa yangi so‘zlarning ma‘nosini ochishga, ma‘lumotnomalar grammatik hodisalarni takrorlashga mo‘ljallanadi”²⁵

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi darslikda berilgan materiallarga har doim ham bog‘lanib qolmasligi kerak. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda vaqt o‘tishi bilan darslikda berilgan material va usullar eskirishi yoki o‘z qimmatini yo‘qotishi mumkin. Agar darslikda berilgan CD dan ko‘ra YuoTube materiallari yoki podkastlar yaxshi samara

²⁵ Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 2012. – B. 87-99

bersa, albatta ularni qo'llash lozim bo'ladi.

Axborot vositalarini nima maqsadda, qaysi vaqtda va qanday qo'llash o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda, mashg'ulotlarda axborot vositalaridan foydalanishda ko'plab metodik va o'quv qo'llanmalar zarurligini ta'kidlab o'tmoqchmiz.

Tadqiqot davomida metodist, olimlar Y. N. Solovolova, N. L. Lyaxovitskiy va J. Jalolovlarning fikrlariga tayangan holda, chet til ta'limida tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozuvda qo'llanilayotgan axborot vositalarining umumiy tasnifi hamda axborot vositalarining qo'llanilishiga ko'ra tasnifini jadvalda shakllantirishga harakat qildik (1.1-jadvalga qarang):

1.1-jadval²⁶ Axborot vositalarining umumiy va qo'llanilishiga ko'ra tasnifi

No	Axborot vositalarining umumiy tasnifi	Axborot vositalarining qo'llanilishiga ko'ra tasnifi		
I.	Axborot vositalarining an'anaviy turlari: 1. Gazeta va jurnallar. 2. Tabloidlar, broshuralar. 3. Kitoblar va romanlar. 4. Komikslar, varaqlar, risolalar. 5. Radio AM, FM, Pirate. 6. An'anaviy telefon. 7. Televizor, film, kino, kinofilm va realiyalar. 8. Ovoz yozish va takrorlash. 9. Videomagnitofon, 10. CD, DVD player.	O'qitish uchun (teaching) I. Axborot vositalarining an'anaviy turlari.	Mashq qildiruvchi (practice) I. Axborot vositalarining an'anaviy turlari.	Baholash uchun (Assessment) II. Axborot vositalarining zamonaviy turlari
II.	Axborot vositalarining zamonaviy turlari: 1. Internet (Google, Yahoo, Wikipedia) 2. Internet til o'rgatish dasturlari: Google Classroom, Moodle, Learn English Grammar (British Council), My Grammar Lab Pearson, English Audio and Video, learn English Great Videos, learn English Elementary Podcasts, Learning English for BBC, 6 Minute British English. Sounds Right (British Council), (Macmillan Education) Sounds: Pronunciation App, Bi-bi- si podkastlari, Britaniya Kengashi sayti, www. podomatic. com, Ted talk. 3. YouTube videolari. 4. Chet tillar o'rgatish multimedia dasturlari: mobil ilovalar, mobil va kompyuter o'yinlar 5. Raqamli ommaviy axborot vositalari: dasturiy ta'minot, raqamli tasvirlar, raqamli video, video o'yinlar, veb-sahifalar va veb-saytlar. 6. Ijtimoiy media: Facebook, Twitter, Instagram, LinkedIn, Google, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo bloglar, forumlar, veb portallar raqamli ma'lumotlar va ma'lumotlar bazalari. 7. MP3 kabi raqamli audio, elektron hujjatlar. 8. Elektron darsliklar, elektron gazetalar, elektron lug'atlar va elektron kitoblar. 9. Podkastlar.	II. Axborot vositalarining zamonaviy turlari. III. O'qitishning texnik vositalari IV. O'quv amaliyoti uchun jihozlar V. O'qitishning bosma qo'llanmalari	II. Axborot vositalarining zamonaviy turlari. IV. O'quv amaliyoti uchun jihozlar V. O'qitishning bosma qo'llanmalari 5. 1. Asosiy o'quv vositalar	

²⁶ Muallif ishlanmasi.

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

	10. Chet til uchun kompyuter o'yin dasturlari.			
III.	O'qitishning texnik vositalari: 1. Kompyuter. 2. Multimedia proyektori. 3. Printer. 4. Modem. 5. Mikrofon. 6. Chizish plansheti. 7. Nusxa ko'paytirish apparati. 8. Skaner. 9. Audiosentr. 10. Lingafon uskunolari (lingafon xonasi)			
IV.	O'quv amaliyoti uchun jihozlar: 1. Magnitli oq rangli doskalar (white board) 2. Interaktiv doska (interactive board) 3. Ekspozitsion ekran (exposure screen)			
V.	O'qitishning bosma qo'llanmalari:			
5.1	Asosiy o'quv vositalar 1. Elektron darslik o'quvchi uchun (o'quvchi kitobi – student book, o'qish kitobi – work book) 2. Elektron darslik o'qituvchi uchun (teacher's book) 3. Elektron o'quv – uslubiy majmua va o'quv- uslubiy qo'llanmalar			
5.2	Yordamchi (qo'shimcha) (elektron) vositalar: 1. Alifbo (devor jadvali) 2. O'rganilayotgan til mamlakatining yozuvchi va taniqli madaniyat arboblarning portretlari 3. O'rganilayotgan til mamlakati xaritasi 4. O'rganilayotgan til mamlakatining bayroqlari 5. O'rganilayotgan til mamlakatining landshafti, shaharlari, alohida diqqatga sazovor joylari 6. Tasvirlangan fotosuratlar (illyustratsiyalar) to'plami 7. Tarqatma materiallar (handout) va boshqa materiallar			

Ma'lumki, CEFR O'zbekistonda 2012 – yildan buyon o'qitish tizimi sifatida chet tilni o'qitish, o'rganish va baholash uchun qo'llanib kelinmoqda.

“CEFR (Common European Framework of Reference) tillar bo'yicha umumiy Yevropa Ittifoqida qo'llanilgan chet tilni bilish darajalari tizimi (o'rganish, o'qitish, baholash). Ushbu tizim boshlang'ich, mustaqil va malakali, ya'ni A1 A2; B1; C1 C2 darajalariga ega”²⁷. Bunga muvofiq hozirgi kunda O'zbekiston chet tilni o'qitish tizimida:

1. Communicative approach (Kommunikativ yondashuv)
2. Learner centred approach (Shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuv)
3. Task based approach (Real nutqiy vaziyatga asoslangan yondashuv)
4. Content based approach (Kontekstga asoslangan yondashuv)
5. Project based approach (Loyihaga asoslangan yondashuv)lar asosida mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Hozirda chet til o'qitish mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalar va zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

²⁷ A Common European Framework of Reference for Languages Learning, Teaching, Assessment.

Chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalari vositalaridan mashg'ulot jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar berishi allaqachon isbotlangan. O'qitishni raqamlashtirish yoki axborot vositalaridan foydalanish dasturlari yil sayin takomillashib, yuqoridagi barcha yondashuvlar maqsadlariga mos keladi.

Ma'lumki, chet til o'qitish holatiga o'quv reja, darslik, o'quv jarayoni, o'quv jarayonida o'qituvchining dars o'tish metodikasi, texnologik jarayon sifatida to'g'ri yoki to'g'ri emasligi kiradi²⁸.

Biz tanlab olgan OTMlarning xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabalarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda qaysi darslik va adabiyotlardan foydalanilayotganligini aniqlash maqsadida ularni tahlil qildik.

O'zbekistonning OTMlarida ushbu kurslarni o'rganish chet tillar o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi. Mavjud o'quv dasturlar, darsliklardagi topshiriqlarni bajarish uchun didaktik shart-sharoitlar (o'quv muassasasining turi, o'quv soatlari, o'rganuvchilarning til tajribasi) etarli emasligi mutaxassislarga ham ma'lum. Fanning asosiy vazifasi talabalarga tilning og'zaki va yozma shakllarini integrallashgan holda o'rgatish, turli kontekstlardagi muloqot malakalarini rivojlantirish, xususan, o'rganilayotgan chet til ko'nikmalari to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishlarini ta'minlashdir. Umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlar (CEFR)ga ko'ra talabalarining o'rganilayotgan chet tilni C1 darajada egallashlari uchun zaruriy nutqiy malakalarni integrallashgan tarzda o'rgatish va muloqot malakalarini rivojlantirishdir.

Bizning fikrimizcha, talabalarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish OTMlarning dastlabki bosqichidagi mashg'ulotlarida amalga oshirilishi kerak. Xorijiy tillar talabaga butun bakalavr bosqichida (3 yoki 4 yil davomida) o'qitilishi lozim. "Bunda umumiy chet tili yo'nalishiga ko'pi bilan bir semestr yoki bir o'quv yili ajratilishi mumkin. O'quv rejaga ko'ra, xorijiy tillar haftada 4 auditoriya soati va mustaqil soat orqali o'qitilishi maqsadga muvofiq. "CEFR malaka talabalariga ko'ra, talabalarining boshlang'ich bosqichdagi til bilish darajasidan kutilayotgan darajaga erishishda sarflanadigan vaqt hajmi A1-A2 = 200 soat, A1-B1 = 400 soat, A1-B2 = 600 soat, A1-C1 = 850 soat, A2-B1 = 200 soat, A2-B2 = 400 soat, A2-C1 = 650 soatni tashkil etadi. Boshlang'ich bosqichda har bir til ko'nikmasini rivojlantirish uchun sarflanadigan vaqtlar nisbati bir xil bo'lishi

²⁸ Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi. 2012. – B. 98-100

mumkin, biroq sohaga yo‘naltirilgan chet tilni o‘rganish bosqichlarida vaqtlar nisbati talabalarining til va muloqotga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanishi mumkin”²⁹ (1.2-jadvalga qarang):

1.2- jadval.

Bosqichlarda nutq faoliyati turlarini o‘qitish

	Boshlang‘ich bosqich	Sohaga yo‘naltirilgan bosqich
Gapirish	25%	40%
Tinglab tushunish	25%	30%
O‘qish	25%	20%
Yozish	25%	10%

Lekin OTMlarda nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi amaliy fanlar mashg‘ulotlariga yetarli soat ajratilmagan. Shuningdek, mashg‘ulotlarda chet til sohiblari ishtirokidagi muloqotlar yoki autentik materialni tinglash uchun auditoriya soatlari miqdorining yetarli emasligi sababli talabalarining tilni egallash darajasi past, chet tilda og‘zali nutq malakalari rivojlanmagan, tinglanayotgan nutqni tushunish qiyin, chet til sohiblari bilan muloqot yuritish tajribasiga deyarli ega emas. Shu sababli ko‘p hollarda OTMlarning bitiruvchi talabalari o‘z sohalari bo‘yicha chet tilda gapirish malakasiga, ya‘ni yetarlicha kommunikativ kompetensiyaga ega emas.

Shuningdek, OTMlarning chet til o‘qituvchilari bilan so‘rovnoma o‘tkazilganda suhbat natijalari shuni ko‘rsatdiki, mashg‘ulotlarda yuqorida qayd etilgan besh yondashuvni qo‘llashda qaysi axborot vositalaridan foydalanilsa samaraliroq ekanligiga e‘tibor qaratmaganlar.

Vaholanki, E. Tomasning fikriga ko‘ra, “Kompyuter yordamida til o‘rganish (CALL) bu chet tilni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy vosita bo‘lib, uning yordamida o‘qitish, o‘rgatish, namoyish qilish, mustahkamlash va baholash kabi jarayonlarni ham amalga oshirish mumkin”³⁰. Ushbu tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, mashg‘ulotlarda axborot vositalardan foydalanish samarali ekanligi isbotlangan.

Ushbu fikrlar asosi holda chet tili mashg‘ulotlarida har bir yondashuv uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan axborot vositalarining jadvalini shakllantirdik (1. 3-jadvalga qarang):

²⁹ A Common European Framework of Reference for Languages Learning, Teaching and Assessment

³⁰ Thomas M., Reinders H., Warschauer M. (Eds Contemporary computer-assisted language learning.) – New York: Bloomsbury Academic. 2012.

1.3-jadval.

Chet tilni o'qitishda qo'llaniladigan yondashuvlarga asoslangan axborot vositalari³¹

Chet til o'qitish yondashuvlari Language teaching approaches	Axborot vositalari va turlari (Types of media)		Mashqlar (activities)
	An'anaviy axborot vositalari	Zamonaviy axborot vositalari	
Communicative approach	Magazines, exhibits, workbook, handouts, poster	Audio and video Podcasts, YouTube video, ESL/EFL Language Programs, presentation, Internet Google sites, electron newspaper, interactive whiteboard Social media: Facebook, Twitter, Instagram, LinkedIn, Google, Pinterest, Snapchat, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo blogs, forums, web portals, TV reports	Role plays, conversations, live workshops, dialogues, information gap activities, jigsaw activities, task completion activities, opinion sharing activities, information transfer activities, reasoning gap activities, information gathering activities, Talk show interview, Objectified activity, What I YouTube'd last weekend, news reporting,
Learner centered approach	Magazines, exhibits, workbook, handouts, poster	Internet, Anchor-podcast creation, Audacity-audio production, Google sites, YouTube video, computer resource speaker, Wixie students platform, interactive whiteboard, screen recording, Vocaroo audio recording, e-books, presentation, ESL/EFL Language Programs, Social media: Facebook, Twitter, Instagram, LinkedIn, Google, Pinterest, Snapchat, Reddit, Whats App	Cooperative learning task, presentations, Panel expert, KWHLAQ-poster task, brainstorming, create media tasks, discussion, small group work, case study, jigsaw, role play, workshop, simulation, lab, demonstration, index card mental models, project work, social media, experiments, Q and A session
Task based approach	EFL/ ESL texts, audiotapes with accompanying workbooks, videotapes with	Computer Assisted Language Learning (CALL) programs, podcasts, electron newspaper, YouTube video, FleuntU – videos	Creative tasks, writing letter, project work, anecdote telling, sharing personal experiences,

³¹ Muallif ishlanmasi.

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

	student worksheets, picture, text, flashcards, task cards		problem solving, comparing matching activities oral and written storytelling
Content based approach	workbooks, course book, Picture, handouts, worksheets, magazine	interactive whiteboard, video with transcripts and subtitles, audiotapes, web site links, presentation, whiteboards, internet articles, Movie maker, newspapers, DVD	Working with images, sentence building activities, reading and labelling, working with articles, inserting subtitles with Movie maker
Project based approach	Handouts, charts, templates, word walls, poster, worksheets, workbooks, flashcards, magazines, newspapers,	Computer, internet web sites, video, audio, Presentation, Wiki, Google classroom, Zoom, Flip Grid, Twitter, Telegram, WhatsApp, Instagram, Facebook, LinkedIn, interactive whiteboard, YouTube video	Portfolio tasks, project work, Blooms taxonomy, infographics, writing templates, writing blog posts

OTMlarning holatini o'rganish bilan birga, talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish holatini ham o'rganish maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Andijon davlat chet tillar instituti, Farg'ona davlat universitetlarining xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) fakultetlarida jami 40 nafar o'qituvchi va 682 nafar talaba bilan anketa so'rovnoma o'tkazildi (1. 4-jadvalga qarang):

1.4. jadval.

OTM larda talabalar bilan tajriba oldidan o'tkazilgan so'rovnoma Siz chet tillarni o'rganishda qaysi axborot vositalaridan foydalanishni afzal ko'rasiz?³²

OTM va talaba soni	Internet dastur	Ijtimoiy media	Mobil ilova	YouTube video	Elektron darslik	Podkast	TV	Elektron gazeta	Darslik
ADCHTI 272	40	35	30	50	15	50	22	20	10
O'ZDJTU 210	35	20	25	40	10	50	10	10	10
FARDU 200	30	30	20	30	10	40	15	20	5
Jami 682	Jami 105	Jami 85	Jami 75	Jami 120	Jami 35	Jami 140	Jami 47	Jami 50	Jami 25

Chet tillarni o'rganishda qaysi axborot vositalaridan foydalanishni

³² Manba muallif tomonidan tuzilgan

afzal ko'rasiz? savoli bo'yicha o'tkazilgan anketa so'rovnoma ko'ra quyidagi holatlar aniqlandi. Andijon davlat chet tillar institutida internet dasturidan foydalanish holati 14. 70%ni, ijtimoiy mediadan 12. 86 %, mobil ilovadan 11. 03%ni, YouTube videolaridan 18, 38 %ni, elektron darslikdan 5. 51%ni, podkastlardan 18. 38 %ni, TV dan 8. 09 %ni, elektron gazetadan 7. 3%ni, darslikdan 3. 67%ni tashkil etdi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida internet dasturidan foydalanish holati 16, 6%ni, ijtimoiy mediadan 9, 52%ni, mobil ilovadan 11, 90%ni, YouTube videolaridan 19% ni, elektron darslikdan 4, 76%ni, podkastlardan 23, 81%ni, TV dan 4, 76%ni, elektron gazetadan 4, 76%ni, darslikdan 4, 76%ni tashkil etdi. Farg'ona davlat universitetida internet dasturidan foydalanish holati 15%ni, ijtimoiy mediadan 15%ni, mobil ilovadan 10%ni, YouTube videolaridan 15%ni, elektron darslikdan 5%ni, podkastlardan 20%ni, TVdan 7, 5%ni, elektron gazetadan 10%ni, darslikdan 2, 5%ni tashkil etdi.

Ushbu tahlillar Andijon davlat chet tillar institutida YouTube videolaridan foydalanish 18, 38%ni, podkastlardan 18. 38%ni, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida YouTube videolaridan foydalanish 19%ni, podkastlardan 23, 81%ni, Farg'ona davlat universitetida YouTube videolaridan foydalanish 15%ni, podkastlardan 20 %ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa shuni ko'rsatmoqdaki, talabalar chet tillarni o'rganishda qaysi axborot vositalaridan foydalanishni afzal ko'radilar degan so'rovnoma yuqori ko'rsatkich YouTube videolari va podkastlardan ko'p foydalanganliklari aniqlandi. (1.5-jadvalga qarang):

1.5-jadval.

Mashg'ulotda o'qituvchilar chet tilda nutqiy kompetensiyani takomillashtirishda qaysi axborot vositalaridan foydalanmoqdalar?³³

OTM va talaba soni	Internet	Ijtimoiy media	Mobil ilova	YouTube video	Elektron darslik	Elektron gazeta	Podkast	TV	Chet til o'qitish dasturlar	Dars lik
ADCHTI 272	30	20	12	20	50	10	10	10	10	100
O'ZDJTU2 10	20	20	10	10	40	10	10	10	0	80
FARDU 200	10	10	10	10	30	10	10	10	0	100
Jami 682	Jami 60	Jami 50	Jami 32	Jami 40	Jami 120	Jami 30	Jami 30	Jami 30	Jami 10	Jami 280

³³ Manba muallif tomonidan tuzilgan

Mashg'ulotda o'qituvchilar chet tilda nutqiy kompetensiyani takomillashtirishda qaysi axborot vositalaridan foydalanmoqdalar? so'rovnomasi bo'yicha quyidagi holatlar aniqlandi. Andijon davlat chet tillar institutida o'qituvchilarning internetdan foydalanishlari 11%ni, ijtimoiy mediadan 7, 35 %ni, mobil ilovadan 4, 41%ni, YouTube videolaridan 7, 35%ni, elektron darslikdan 18. 38%ni, elektron gazetadan 3, 67% ni, podkastlardan 3, 67%ni, TVdan 3, 67 %ni, chet til o'qitish dasturlaridan 3, 67%ni, darslikdan 36, 76%ni tashkil etdi. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'qituvchilarning internetdan foydalanishlari 9, 52%ni, ijtimoiy mediadan 9, 52%ni, mobil ilovadan 4, 76%ni, YouTube videolaridan 4, 76 %ni, elektron darslikdan 19%ni, elektron gazetadan 4, 76% ni, podkastlardan 4, 76%ni, TV dan 4, 76 %ni, chet til o'qitish dasturlaridan 0%ni, darslikdan 38%ni tashkil etdi. Farg'ona davlat universitetida o'qituvchilarning mashg'ulotda internetdan foydalanishlari 5%ni, ijtimoiy mediadan 5%ni, mobil ilovadan 5%ni, YouTube videolaridan 5%ni, elektron darslikdan 15%ni, elektron gazetadan 5%ni, podkastlardan 5%ni, TV dan 5 %ni, chet til o'qitish dasturlaridan 0%ni, darslikdan 50%ni tashkil etdi.

Yuqoridagi tahlillar Andijon davlat chet tillar institutida darslikdan foydalanish holati 36, 76%ni, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 38%ni, Farg'ona davlat universitetida 50%ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa shuni ko'rsatmoqdaki, mashg'ulotda o'qituvchilar talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanishlari bo'yicha yuqori ko'rsatkich darslikdan ko'p foydalanishlari aniqlandi. (1.6-jadvalga qarang):

1.6-jadval.

Sizning fikringizcha qaysi axborot vositasi nutqiy kompetensiyani intensiv rivojlantirishga yordam beradi?³⁴

OTM talaba	Tinglab tushunish	O'qish	Yozuv	Gapirish	Talaffuz	So'z boyligini oshirish	Grammatika
ADCHTI Jami 272	Internet dasturlar, podkastlar 40	Elektron gazeta, darslik 40	YouTube videolari, internet dasturlari, darslik 35	YouTube videolari, podkastlar, ijtimoiy media 40	YouTube videolari, podkastlar, ijtimoiy media 35	Elektron gazeta, mobil ilova, internet o'yinlar 40	YouTube videolari 42
O'ZDJTU 210	Podkastlar 30	Elektron gazeta, 40	YouTube videolari, 40	YouTube videolari 30	YouTube videolari 30	Mobil ilova internet 40	YouTube videolari

³⁴ Manba muallif tomonidan tuzilgan

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

		darslik 25	darslik 30		35	o'yinlar 30	darslik 30
FARDU Jami 200	Internet dasturlari, podkastlar 30	Elektron gazeta, darslik 30	YouTube videolari, internet dasturlar, darslik 25	YouTube videolari, podkastlar, ijtimoiy media 30	YouTube video 30	Elektron gazeta, mobil ilova 30	YouTube videolari 25
Jami 682	100	95	90	100	100	100	97

1. 6-jadvaldagi savolning tahlilida Andijon davlat chet tillar institutida tinglab tushunishni rivojlantirishda internet dasturlari va podkastlardan foydalanish 14, 70%ni; o'qish faoliyatini rivojlantirishda elektron gazeta va darslikdan foydalanish 14, 70%ni; yozuv ko'nikmasini rivojlantirishda YouTube videolari, internet dasturlar va darslikdan foydalanish 12, 86%ni; gapirishni rivojlantirishda YouTube videolari, podkastlar, ijtimoiy mediadan foydalanish 14, 70%ni; talaffuzni rivojlantirishda YouTube videolaridan 12, 86%ni; so'z boyligini oshirishda elektron gazeta, mobil ilova va internet o'yinlardan 14, 70%ni; grammatikani rivojlantirishda YouTube videolaridan foydalanish 15, 44%ni tashkil etganligi aniqlandi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ushbu so'rovnoma bo'yicha tinglab tushunishni rivojlantirishda podkastlardan foydalanish holati 14, 28%ni; o'qish faoliyatini rivojlantirishda elektron gazeta va darslikdan foydalanish 12%; yozuv ko'nikmasini rivojlantirishda YouTube videolari va darslikdan foydalanish 14, 28%; gapirishni rivojlantirishda YouTube videolaridan foydalanish 14, 28%ni; talaffuzni rivojlantirishda YouTube videolaridan foydalanish 16, 66%ni; so'z boyligini oshirishda mobil ilova va internet o'yinlardan foydalanish 14, 28%ni; grammatikani rivojlantirishda YouTube videolaridan foydalanish 14, 28% ni tashkil etganligi aniqlandi.

Farg'ona davlat universitetida tinglab tushunishni rivojlantirishda podkastlardan foydalanish holati 15%ni; o'qish faoliyatini rivojlantirishda elektron gazeta va darslikdan foydalanish 15%ni; yozuv ko'nikmasini rivojlantirishda YouTube videolari va darslikdan foydalanish 12, 5%ni; gapirishni rivojlantirishda YouTube videolaridan foydalanish 15%ni, talaffuzni rivojlantirishda YouTube videolaridan foydalanish 15%ni, so'z boyligini oshirishda mobil ilova va internet o'yinlardan foydalanish 15%ni, grammatikani rivojlantirishda YouTube videolaridan foydalanish 12, 5%ni tashkil etganligi aniqlandi.

Talabalarining nutqiy kompetensiyasini intensiv rivojlantirishga yordam beradigan axborot vositalarining turlarini aniqlashda Andijon davlat

chet tillar instituti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich YouTube videolari 15, 44%ni, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 16, 66%ni, Farg'ona davlat universitetida 15%ni tashkil etdi.

Xulosa shuki, yuqoridagi tahlillar talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda YouTube videolari eng yuqori ko'rsatkichda ekanligini ko'rsatdi. (1.7-jadvalga qarang):

1.7-jadval.

O'qituvchilar mashg'ulotlarda axborot vositalaridan qachon foydalanadilar?³⁵

OTM va talaba soni	Har doim	Tez-tez	Ba'zida	Kamdan-kam	Hech qachon
ADCHTI 272	30	30	100	82	30
O'ZDJTU 210	35	20	75	60	20
FARDU 200	25	30	65	70	10
Jami 682	90	80	240	212	60

O'qituvchilar mashg'ulotlarda axborot vositalaridan qachon foydalanishlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma Andijon davlat chet tillar instituti talabalarining javoblari tahlili har doim 11%ni, tez-tez 11%ni, ba'zida 36, 76%ni, kamdan-kam 30, 14%ni, hech qachon 11%ni tashkil etganligini ko'rsatdi. O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ushbu so'rovnoma bo'yicha holat har doim 16, 66%ni, tez-tez 9, 52% ni, ba'zida 35, 71%ni, kamdan-kam 28, 57%ni, hech qachon 9, 52%ni tashkil etganligini ko'rsatdi. Farg'ona davlat universitetida ushbu savolga javoblarning tahlillari har doim 12, 5%ni, tez-tez 15% ni, ba'zida 32, 5%ni, kamdan-kam 35%ni, hech qachon 5%ni tashkil etganligini ko'rsatdi.

Ushbu holat bo'yicha Andijon davlat chet tillar institutida o'qituvchilar mashg'ulotlarda axborot vositalaridan qachon foydalanishlaridagi yuqori ko'rsatkich ba'zida 36, 76%ni, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida ba'zida 35, 71%ni, Farg'ona davlat universitetida ba'zida 32, 5%ni tashkil etdi. Ushbu tahlillardan kelib chiqib xulosa shuki, o'qituvchilar mashg'ulotlarda axborot vositalaridan har doim foydalanmasliklari, aksincha ba'zida foydalanganliklari aniqlandi.

Ushbu holatdan kelib chiqib biz dissertatsiyamizda talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasiga e'tiborni qaratdik.

Davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining chet tili yo'nalishi bakalavriat bosqichi talabalaridan ingliz

³⁵ Manba muallif tomonidan tuzilgan

tilini CEFR umumyevropa hujjatlari talablariga muvofiq B2+, C1 darajada egallash talab qilinadi. Chet til mutaxassisligi bo'yicha xorijiy til yo'nalishi talabalari nutq faoliyatining to'rt turini mukammal egallashlari ularning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish uchun juda muhim. Shu sababli chet tilda nutqiy kompetensiyani shakllantirishni birinchi kursdan boshlab mutaxassislik fanlarini o'rganish barobarida tashkil etish tavsiya etiladi.

Xorijiy til yo'nalishi talabalari malakali mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun ingliz tili darsliklari va o'quv qo'llanmalariga qo'shimcha axborot vositalaridan samarali foydalanish hamda nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi mashqlar va topshiriqlar tizimining kiritilishi tavsiya etiladi.

Ingliz tili o'qitishning hozirgi holatini tahlil qilganda o'quv materialidagi mavzular, matnlar, mashq turlari hamda tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantiruvchi audiomatnlar darslikdan o'rin olganligi haqida aytish mumkin. Masalan, bugungi kunda ingliz tili darslarida faol qo'llanilib kelayotgan "Sue Kay and Vaughan Jones. Inside Out. Students book. Upper intermediate. Macmillan (2001)" o'quv majmualarini misol tariqasida keltirish mumkin. Bularning barchasi to'rt nutq faoliyatini rivojlantirish uchun mo'ljallangan bo'lib talabga javob beradi. Lekin chet til o'rgatishga mo'ljallangan materiallardan talaba, birinchi navbatda, muloqot yuritishga o'rganadi va qolaversa, o'rganilayotgan til vositasida ixtisoslik bo'yicha yangi va foydali axborot olishi kerak, ya'ni ingliz tilida maxsus matnlarni o'qib, mashqlarni bajarib, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishi talab etiladi.

Endilikda shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan ta'limning zaruriyligi hisobga olinmoqda. Til o'rganuvchilarning ehtiyojlariga yo'naltirilgan yondashuv (learner centred approach) – bu o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga oluvchi, o'quvchi shaxsini rivojlantirishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanuvchi o'qitishdir. Shunday qilib, chet til shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuv – o'qitishni differensiatsiyalash va individuallashtirish asosiy tamoyil sifatida qaralmoqda. Afsuski, yuqoridagi o'rganilgan holatdan ko'rinadiki, OTMlar chet til mashg'ulotlarida foydalanadigan darsliklar chet til o'qitish tamoyillariga to'liq javob bera olmaydi va yangi metodik yondashuvlarni talab etadi. Bizning fikrimizcha, talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda ushbu darslik va adabiyotlarning o'zi yetarli emas, ushbu darsliklarda talabalar ingliz tilini sun'iy muhitda, ya'ni chet til sohibisiz o'rganishlarini inobatga olish darkor. Axborot vositalari talabalarga autentik muhitni yaratib berishi bilan birga nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda yetarli darajada samara beradi.

Biz axborot vositalari texnologiyasini takomillashtirish va ushbu texnologiya asosida mashqlar sistemasini ishlab chiqishni tavsiya etamiz. Bunda axborot vositalaridan foydalangan holda nutqiy kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan o'quv uslubiy qo'llanmalar va darsliklarni yaratish zarur. Shunga ko'ra, tadqiqot davomida talabalarning og'zaki va yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda axborot vositalaridan foydalanish bo'yicha o'quv qo'llanmamizni yaratdik. Axborot vositalaridan (YouTube, elektron gazeta va podcast)larni qo'llash bo'yicha mashqlarni takomillashtirdik.

1.3 § Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanishning metodologik tavsifi

Ta'limda pedagogik maqsad ta'lim va tarbiya berishdir. Bunda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi omillar hisobga olinadi. "Chet til o'qitish metodi deganda esa chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishishni ta'minlovchi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi.

Metodikada *nima uchun* (ta'lim maqsadi), *nimani* (ta'lim mazmuni), *qanday qilib* (ta'lim metodlari va tamoyillar asosida) hamda *kimga* (o'quvchiga) o'rgatish haqida ilmiy mulohaza yuritiladi. Chet til materialini *tanlash*, *taqsimlash*, *metodik tasnif* va *taqdim etish* dastur tuzuvchilar va darslik mualliflari tomonidan ro'yobga chiqariladi. O'quv materialini o'rganish va o'rgatish chog'ida o'quvchi va o'qituvchilar ishtirok etadi, ular o'zaro hamkorlikda ish ko'rishadi.

Nutq faoliyati turlariga mo'ljallab til materiali tanlanadi, taqsimlanadi, tasnif qilinadi va taqdim etiladi, ya'ni o'zlashtirishga tayyorlanadi (bu bosqichlar chet til metodikasida selection, distribution (grading), classification, presentation deyiladi)"³⁶.

"O'qitish amaliyotidan ma'lumki, chet tilni o'qitishda til o'rganish va tilni o'zlashtirish tubdan farqlanadi. Bu borada manbalarda ko'plab fikrlar keltirilgan. Jumladan, chet til o'qitish masalalari bilan chuqur shug'ullangan metodikachi olim B. Tomlinson tilni o'zlashtirish uchun materiallar tanlash va ularni metodik ishlab chiqishda nimalarga ko'proq e'tibor qaratish kerakligi haqida izlanishlar olib borib, quyidagi asosiy olti tamoyilni belgilaydi:

- 1) talabalarni autentik til bilan tanishtirish;
- 2) ularni autentik tilning xususiyatlariga e'tibor berishga o'rgatish;

³⁶ Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi – Toshkent: O'qituvchi 2012. – B. 9-15

3) talabalarga o'rganilayotgan tildan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun foydalanish imkoniyatini yaratib berish;

4) erishilgan natijalar bo'yicha fikr-mulohaza yuritish imkoniyatini ta'minlash;

5) talabalarining qiziqishini uyg'otib, e'tiborini tortadigan, maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydigan shakllardan foydalangan holda ishtiyoqni qo'zg'ay olishga erishish;

6) intellektual, estetik hamda hissiy munosabatlarni e'tiborga olish, ularni rag'batlantirib borish"³⁷.

Ko'rinib turganidek, bu tamoyillar, asosan, jarayonda o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, til materialini tanlashdan tortib, uning o'zlashtirilishi va ta'sirining davomiy samaradorligini qamrab oladi. Bu tamoyillarning o'zaro uzviy bog'liqligiga ham e'tibor qaratish zarur. Uning ko'zlangan natijani berishi uchun bu tamoyillarning barchasini jarayonga uyg'un tarzda singdirish zarur.

Tamoyillar bir-birini to'ldiruvchilik va umumiylik xarakteriga ega ekanligi alohida ahamiyatlidir. Biz B. Tomlinson belgilab bergan mazkur tamoyillar qatoriga mavzu doiramizdan kelib chiqib, material manbasining zamonaviyligi, axborotning omma uchun yangiligi va IT sohasidan xabardorlik darajasini ham qo'shishni taklif qilgan bo'lardik.

Bundan tashqari, "B. Tomlinson aynan shu jarayonning samarali kechishida tanlangan til materialiga nisbatan 16 ta jihatdan iborat talablarni sanab keltiradi. U materiallarni yaratishda tamoyillar nazariyasi, o'qitish tamoyillari, tildan foydalanishga oid bilimlar, tizimli kuzatish va baholash jarayonlari ketma-ketligiga diqqatni qaratish lozimligini ta'kidlagan holda, quyidagilarni taklif sifatida keltiradi"³⁸:

1. Tanlangan material, avvalo, talabaga yuqori ta'sir etish kuchiga ega bo'lishi kerak, uni qiziqtirishi, o'ziga jalb qilishi zarur.

2. Materiallar talabalarining erkin fikrlashlari, tortinmay, yashirmay, ro'y-rost gapirishlari uchun mos bo'lishi kerak. Ularni uyaltiradigan, ular qochadigan, sir saqlaydigan yoki qandaydir noqulaylik uyg'otadigan mavzular tanlansa, tamoyil buziladi.

3. Materiallar talabalarda hayotga, insonlarga ishonchni rivojlantirishga qaratilgan, pozitiv ruhni o'stirishga yordam beradigan bo'lishi kerak.

4. Taqdim etilgan material talabalar tomonidan kerakli va foydali deb

³⁷ Tomlinson B. Materials development for language learning and teaching. Language Teaching. 2016 №45(2). – P. 143– 179.

³⁸ Tomlinson B. Materials development for language learning and teaching. Language Teaching. 2012, 45(2). – P. 143– 179.

hisoblanishi kerak.

5. Materiallar talabalarining o'z-o'zini o'stirishiga yordam berishi, ularning muammolariga yechim bo'la olishi, lozim bo'lsa, ularning moddiy talablarini qondirishga xizmat qilishi ham mumkin. Ular materialdan o'z savollariga manfaatdorliklarini his etsalar, ish yanada samarali bo'ladi.

6. Talabalarining ko'zda tutilgan bilimlarni egallashga, topshiriqni to'liq bajara olishga har tomonlama: yosh, salohiyat, ruhiy-jismoniy tomondan tayyorliklarini hisobga olish kerak.

7. Materiallar talabalarga tilni autentik vaziyatda ishlatish kerakligini tushuntirishi kerak.

8. Talabalarining e'tiborini ma'lumotning lingvistik xususiyatlariga qaratish kerak.

9. Materiallar talabalarga o'rganilayotgan tildan kommunikativ maqsadlarda foydalanish imkoniyatini berishi kerak.

10. Materiallar o'qitishning ijobiy ta'siridan keyinchalik ham naf ko'rishni inobatga olishi kerak.

11. Materiallar til o'rganish uslublaridagi farqlanishlarni o'zida namoyon etishi kerak.

12. Materiallar talabalarining ta'sirchan munosabatlarda o'zini qanday tutishga o'rgatishni hisobga olishi kerak.

13. Materiallar o'qitish jarayonida tinchlik saqlanishini, shovqin-suronga sabab bo'lmaslikni ta'minlashi, uning oldini olishi zarur.

14. Materiallar o'ng va chap miya faoliyatini rag'batlantiradigan intellektual, estetik va hissiy taqsimotni ta'minlashi va natijalarni rag'batlantirish orqali o'rganish salohiyatini maksimal darajaga yetkazishni nazarda tutishi kerak.

15. Materiallar mashg'ulotning erkin tarzda amalga oshirilishini nazarda tutishi, ko'p vaqt mobaynida nazorat ostida bo'lish amaliyotidan xoli bo'lishi kerak.

16. Materiallar natijalar haqida fikr-mulohazalar uchun imkoniyat yaratishi kerak.

B. Tomlinsonning mazkur tavsiyalari mashg'ulotlarni tashkillashda materiallarni saralash jarayonida ularga bo'lgan talabni o'zida aks ettiradi.

Biz B. Tomlinsonning mazkur tavsiyalarini rivojlantirgan holda quyidagilarni ham qo'shimcha sifatida kiritishni lozim deb topdik:

1. Ular autentik bo'lishi kerak.

2. Materiallar talabalar qiziqishlari, ehtiyojlari va intilishlariga mos tushishi kerak.

3. Ular ijobiy mazmunli bo'lishi kerak.

4. Milliy xususiyatlardan xoli bo'lishi kerak.

5. Ular optimistik ruhda yozilgan bo‘lib, yaxshilikka, ezgulikka yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

6. Materiallar talabalar kelajak faoliyatlarida asqotishi kerak.

O‘qituvchi o‘z metodik maqsadiga erishish uchun darsda turli vositalardan, ya‘ni asosiy va yordamchi vositalardan mukammal darajada foydalanishni rejalashtirishi kerak bo‘ladi. Bunda axborot vositalari mashg‘ulot jarayonida eng samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi, o‘qituvchining maqsadi va yutuqqa erishishida yordam beradi.

Didaktika nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadigan axborot vositalarini joriy etish orqali samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlar, birinchi navbatda, o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiatsiyalashni nazarda tutadi.

Zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish jarayoni o‘qitishdagi tashkiliy shakllar va metodlarning o‘zgarishigagina emas, balki undagi metodlarning yangidan shakllanishiga ham olib keladi. Fanlar sohasining axborotlashuvi, o‘quv faoliyatining takomillashuvi bilan birga bilish jarayonining zamonaviy axborot texnologiyalari asosida integratsiyalashuvi, fanlar sohasining kengayishi, chuqurlashishida ham omil bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quv materiallari mazmunini tanlash, qo‘llash mezonlariga muayyan o‘zgartirishlar kiritishni taqozo qiladi.

Chet til o‘qitish jarayonida axborot vositalarining o‘rnini chet til o‘qitish metodikasida paydo bo‘ladigan imkoniyatlar kengligi bilan izohlash mumkin.

O‘quvchilarning ijtimoiy birligini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash, axborot berish, ma‘rifat hamda ko‘ngilxushlik kabi an‘anaviy funksiyalardan tashqari, chet tilda og‘zaki muloqotga o‘rgatishning zamonaviy maqsad va talablarini ifodalovchi metodik vazifalarni ham alohida ta‘kidlamog‘chimiz.

Aynan yondashuvlardan oqilona foydalanish orqali o‘quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish bilan birga, axborot vositalari materiallaridan foydalanish asosiy tamoyillar orqali ta‘minlanadi. Quyida ko‘rib chiqiladigan yondashuvlarning yig‘indisini umumlashtirgan holda integrativ yondashuv deb ataymiz.

Bizni o‘rab turgan borliq to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirishda axborot vositalari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali gnoseologik tahlil asosida olamni bilish jarayoni ifodalanadi. Mazkur funksiya axborot vositalari materiallari asosida chet til o‘qitishdagi kognitiv yondashuvning amalga oshirilishi bilan ham metodik, ham umumpsixologik jihatdan bog‘lanadi. Olingan axborot shaxsiy munosabat bilan o‘zgartiriladi va shu orqali “kognitiv interpretatsiya (talqin qilish)” jarayoni ro‘y beradi. Axborot vositalari materiallari shaxs tomonidan alohida kognitiv strategiyalarga

muvofoq tarzda qayta ishlanadi va retsiyentning yo'naltirilgan maqsadlari hamda stereotiplari bilan qiyoslanadi.

Axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladigan kontakt (aloqa) funksiyasi shaxsning muloqotiga, o'z qarashlarini boshqa kishilarning qarashlari bilan taqqoslashiga asoslangan bo'lib, axborot vositalari foydalanuvchining xulqini o'zgartirishga, bilim olish usuli va emotsional ta'sirchanligini o'zgartirishga qodir. Bunday jarayon yangi bilim —> muloqotga ehtiyoj—> muloqotni amalga oshirish rejasi bo'yicha kommunikativ aktning amalga oshirilishida tadrijiylilikni ifodalaydi.

Chet til o'qitish metodikasida kommunikativli yo'naltirilgan mashqlar yordamida o'quv-imitativli muloqotning qo'lga kiritilishiga va tabiiy-autentik usulga o'tish uchun qulay sharoit yaratiladi, shuningdek, kommunikativ o'qitish tamoyillaridan biri bo'lgan *nutqiy fikrlash faolligi* tamoyili amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi. Mazkur tamoyilga muvofoq tarzda o'qitiladigan talabalarning og'zaki muloqoti shartlangan bo'lib, chet tilidagi axborot vositalari materiallarining mazmuni bilan qisman boyitiladi.

Kommunikativ ta'limning asosiy oqimida har qanday modelning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quv materialini qamrab oluvchi yangilik omiliga hamda uning uzatilish shakli va usullariga bog'liq bo'ladi. Axborot vositalari materiallari bilan ishlashda *yangililik* tamoyili ham o'ta muhim.

Vazifaviylik tamoyilining yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan qaraganda faol muloqotga bir tomondan, kommunikativ amaliyotdan olinadigan, axborot vositalarida mujassamlangan aniq misollar bilan, boshqa tomondan esa turli kommunikativ texnika usullaridan, ingliz tilidagi muloqotning tizimlashtirilgan vazifaviy modellaridan tashkil topgan, maxsus ma'lumotlar bazasi orqali erishiladi. Shuningdek, talabalarni muloqotning noverbal vositalari bilan tanishtirish va ularning mazkur vositalardan og'zaki muloqot amaliyotida foydalanishiga mo'ljallangan.

Kommunikativli yondashuv miqyosida yetakchi tamoyillardan biri bo'lgan *vaziyatlilik* tamoyiliga batafsilroq to'xtalamiz. Ma'lumki, muloqotning har qaysi turi vaziyatli ravishda shartlangan bo'ladi, shu bois vaziyatlardan foydalanish (kutilmaganda paydo bo'ladiganlardan boshlab ataylab tashkil etiladiganlarga) mashg'ulotlar tizimining yagona zanjiridagi bo'g'ini, o'quv jarayoni har qaysi fazasining ajralmas qismi bo'lgan... muayyan bir ko'rinishi" deb tushuniladi. O'qitishdagi vaziyatlilik nutqiy-fikrlovchi faoliyatning faollashtirilishiga ko'maklashuvchi va muloqotning yanada kengaytirilgan shaklini keltirib chiqaruvchi vaziyatlarning modellashtirilishini nazarda tutadi.

Vaziyat tushunchasi metodik toifa sifatida g'oyat xilma-xildir. M. L. Vaysburd nutqiy mahorat va ko'nikmalarning rejalashtirish, nazorat

qilish, dasturlashtirish, rag‘batlantirish, fastsinativ, ta‘lim beruvchi muloqotning alohida uslubi shakllantirish kabi vazifalarini sanab o‘tgan”³⁹.

Axborot vositalari materiallaridan foydalanishi bilan birga olib boriladigan og‘zaki nutqqa o‘qitish jarayoni kommunikativ omil va unga chambarchas bog‘liq nutqiy-fikrlovchi, vazifaviylik, yangililik hamda vaziyatga moslilik tamoyillari bilan belgilanishini barcha yuqorida tahlil qilingan omillar tasdiqlaydi.

Axborot vositalari materiallarida chet tilda muloqot qilishga o‘qitishda qo‘llanadigan til o‘rganuvchilarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan yondashuv *individuallashtirish* tamoyili amalga oshirilishini nazarda tutadi. Ta‘limda axborot vositalaridan foydalanish sohasidagi tadqiqotlarning tahlili o‘quvchilarning uch toifasi farqlanishini ko‘rsatadi:

a) inson ruhiyatida namoyon bo‘ladigan asosiy belgilar (temperament – mijoz, emotsionallik – hissiyot va umumiy faollik)ning tezligiga, kuchiga va yo‘naltirilishiga ta‘sir etuvchi psixologik xususiyatlar;

b) shaxsiyatning xususiyatlarini tahlil qilish. Bu inson xulqining asosiy determinantini ta‘riflovchi sababiylik kategoriya (toifa)si va kishi “ssenariy”sining toifasini belgilovchi shaxsiy ong kategoriyalari asosiy o‘rinni egallaydi;

d) qadriyatli yo‘nalishlarning bosqichli tabaqalarida ifodalanadigan ijtimoiy- psixologik maqsadli yo‘nalishlar.

Chet tilni mukammal bilish nuqtai nazaridan mazkur darajalardan birinchisi “indivd”li rejaning – fonematik yetishish qobiliyati, zaboniy, nutqiy-fikrlovchilik qobiliyatlarini shaxsiylashtirish tushunchasiga muvofiq keladi. Ikkinchi va uchinchi darajalar shaxsiy rejaning individualligiga mos keladi, ya‘ni shaxsiy tajriba, his-tuyg‘ular, shaxs tasarrufi, shaxsning kommunikativ qobiliyatlari, kirishimlili, ijtimoiylashuvi va shaxsga yo‘naltirilganligi muvofiq keladi.

Subyektga xos (o‘quv) tavsif belgilarini biz axborot vositalari materallarini o‘qish va tinglab tushinish ko‘nikmalaridek hamda muloqot amaliyotida olingan bilimlarni amalga oshirish qobiliyatidek talqin qilamiz. Shunday qilib, ayni holatda muayyan tinglovchilar (o‘quv guruhi) o‘zaro bog‘langan uchta funksiyani idrok etadi, ya‘ni: 1) ommaviy axborot vositalarining iste‘molchisi, 2) ta‘lim faoliyatining obyekti va subyekti, 3) chet tilda muloqot jarayonidagi subyekt sifatida qatnashadi.

Metodikada mavjud bo‘lgan ko‘rgazmalilik turlarining toifalashtirish

³⁹ Вайсбурд М. Л. Использование учебно речевых ситуаций при обучении устной речи на иностранном языке: Учебное пособие для проведения спецкурса по обучению инновационному обучению в системе повышения квалификации учителей. – Обнинск: Титул, 2001. – С. 39-43

tizimi bo'yicha axborot vositalari quyidagi tarzda ko'rsatilishi mumkin (1. 8-jadvalga qarang):

1.8-jadval.

Axborot vositalari ko'rgazmalilik vositalari sifatida⁴⁰

Bosma materiallar	Radioeshittirish	TV ko'rsatuv
Lingvistik ko'rgazmalar (lingvistik bo'lmagan rasm va grafik elementlari bilan, masalan, fotosuratlar, jadvallar, kollajlar va boshqalar) statik tabiiy texnik bo'lmagan vizual vositalar guruhi bilan bog'liq	Lingvistik tashqi (pertseptiv) ko'rgazmalilik (musiqali ko'rgazmalilik) ovozli texnik o'qitish vositalari guruhi bilan bog'langan	Ekrandagi tashqi dinamik ko'rgazmalar (lisoniy bo'lmagan tasviri), ekrandagi obrazli audiovizual vositalar yoki texnik vizual-tovushli o'qitish vositalari guruhi bilan bog'liq

Ko'rgazmalilikning asosiy vazifasi “keyinchalik ichki, sof aqliy harakatlar va amallarning moddiylashtirilgan shakllarini ta'minlash” demakdir. Masalaning bu jihati o'qitish mashg'ulotlarining *ko'rgazmalilik funksiyasi* bilan bog'liq, ular sirasiga quyidagilar kiradi:

1) axborot yetkazuvchi – muloqot uchun zaruriy o'quv va bilim beruvchi axborotning yetkazilishi; 2) ko'rgazmali semantizatsiya – muloqot davomida chet tildagi tushunchalarning hamda grammatik shakllarning kiritilishida va ularning mazmunini tushuntirishda ko'rgazmalilikka tayanish; 3) predmetli vaziyatning tasvirlanishi, vaziyatni predmetli tarkibiy mazmunining taqdimoti – muloqotning ma'lum konteksti bo'yicha vazifa, uni ko'rish tayanchi yordamida yaratish; 4) rag'batlantiruvchi va tayanchli ko'rgazmalikdan (shaxsni) o'zining bayonotini tashkillanishida leksik, grammatik to'ldirish (muloqotdagi bayonotining vizual va auditiv rag'batlantirilishi)dek foydalaniladi; 5) standartlashtiruvchi – ko'rish-eshitish ko'rgazmaliligi bayonotning tarkibiy usulini kommunikativ sintaksis darajasida to'g'ri tanlanishiga ko'maklashadi, bunda shunday rasmiylashtirishga bayon etishning savol, undov va shunga o'xshash gap kabi turli kommunikativ toifalari qonuniyatli asosda ta'sir ko'rsatadi; 6) mamlakatshunoslik ko'rgazmaliligi – bu talabalarning muloqot jarayoni uchun zaruriy autentik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-lingvistik materiallar bilan ko'rgazmali ta'minlanishi demakdir.

Bundan tashqari, tinglab tushunish ko'rgazmaliligi fonemik eshitish

⁴⁰ Muallif manba asosida ishlagan

qobiliyatining takomillashuviga (ya'ni talaffuzda, intonatsiyada – ovoz ohangida) hamda tinglashdagi ko'nikmalariga bog'lanadi. Xuddi shu afzalliklar ko'rish- eshiting ko'rgazmaliligidan foydalanishda yana qator boshqa ijobiy sifatlar bilan to'ldiriladi:

– ko'p insonlarda ko'rish idroki juda faol bo'ladi (ko'rish yordamida axborotning 60-80% qabul qilinadi), sintezlashtirilgan (tasvir ovoz bilan birgalikdagi) idrok esa eng mustahkam hisoblanadi;

– TV obrazlarining idroklanishi ong darajasida sodir bo'ladi va bu kishi ongi sohasining ham oqilonalik, ham emotsional-hissiy sohalarini safarbar etadi.

Axborot vositalarini joriy etish orqali samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlarga:

- o'qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiatsiyalash;
- o'quv faoliyati nazoratini olib borish;
- o'z-o'zini nazorat qilish;
- o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish;
- o'quv vaqtini tejash;
- o'quv axborotlarini kompyuter orqali vizuallashtirish;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellash;
- kompyuterda laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish;
- axborot ma'lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish;
- o'qishga qiziqishni orttirish;
- o'quvchini o'quv materialini o'zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish;

• fikrlashni rivojlantirish;

• optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish;

• o'quvchida axborot madaniyatini shakllantirish kabilarni kiritish mumkin. Ta'lim mazmuni va tarkibi, nazorat va o'qitishning tashkiliy shakllari, metodlari haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi o'qitish jarayonida xususiy metodikani ham takomillashtirishni taqozo etadi.

O'ziga xos metodlarni qo'llagan holda zamonaviy axborot vositalarini dars jarayonida va darsdan tashqarida qo'llash o'quvchilarning qiziqishlari va faolligini oshiradi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim tizimida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelayotgan va didaktikada ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar shaxsga yo'naltirilganligiga, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqalariga, shaxsga bo'lgan munosabatiga, ta'lim tizimini mazmunan yangilash va ta'lim-tarbiya

jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirishga qaratilganligiga ko'ra tasniflandi. O'quvchida bilim, va malakalarni shakllantirish uchun aqliy, ijodiy, evristik, estetik va axloqiy faoliyat usullarini shakllantirish zarur. Bunday munosabatlarni tarkib toptirishda hissiyotli-axloqiy texnologiyalardan foydalanish lozim. Jumladan, kuzatish va nazoratdagi umumta'lim maktablarida olib borilgan tahlillar o'ziga xos metodlarni qo'llagan holda o'quvchilardagi bilim, ko'nikma, malakalarining shakllanishi o'qituvchini zamonaviy axborot vositalari va texnologiyalarini o'zlashtirganlik darajasi hamda darsda ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarining ta'limga joriy etilishi o'quvchiga kasbiy bilimlarni egallashiga, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirishiga, o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi, o'quvchi mustaqil faoliyatining kengayishi, axborot madaniyatining shakllanishi, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o'quvchilarda fan asoslariga qiziqish va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni kichik tizimlardan iborat, ya'ni o'qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, asosiy vositalari, yordamchi vositalari, tashkiliy shakllari va nazorat kabi elementlarni qamrab olgan o'ziga xos pedagogik tizimda kechadi. Ko'plab darslik va tadqiqotlarda chet tili darslarini rejalashtirish hamda dars ishlanmasini yozishda, asosan, o'qitish tamoyili va darsda qaysi metoddan foydalanish kabi masalalarga ko'proq ahamiyat berilgan bo'lib, darsni rejalashtirish va tashkillashda axborot vositalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Ayniqsa ingliz tili darslarini rejalashtirish va tayyorlashda axborot vositalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mashg'ulotlarda axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish katta imkoniyatlar yaratish bilan birga, ma'lum muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Mashg'ulotlarni sifatli tashkil etish uchun malakali o'qituvchilarga ehtiyoj seziladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar va shu bilan birga, axborot kommunikatsiya vositalari, jumladan, internetdan foydalanish sifatli ta'lim berish uchun o'quvchidan o'ziga xos ko'nikma va malakaga ega bo'lish talab etiladi. Axborot kommunikatsiya vositalarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun ingliz tili o'qituvchilari maxsus metodik bilim va ko'nikmalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo'ladigan metodik tayyorgarlikka va mediasavodxonlikka ega bo'lishlari lozim. Quyida ingliz tili darslarida zamonaviy axborot vositalari va ilg'or pedagogik texnologiyalardan

foydalanilgan darsni tahlil qilmoqchimiz.

Ma'lumki, darsni rejalashtirish va dars ishlanmasini yozishda o'qituvchi oldiga quyidagi beshta vazifa qo'yilar edi:

1. Til o'rganuvchilar nimani o'rganishlari lozim?
2. Til o'rganuvchilar o'quv maqsadlariga yetishlari uchun nimani va qanday o'rganishlari lozim?
3. Qanday ijtimoiy shakllardan foydalaniladi? (guruh, juftlik, yakka holda va plenumda ishlash tushuniladi)

4. Qanday o'quv yoki axborot vositalaridan foydalaniladi?

5. Darsda o'qituvchining vazifasi nimadan iborat?

Xorijiy tillarni o'qitish va o'rgatishda kommunikativ metodikadan foydalanish hamda darsga tayyorgarlik ko'rish va dars ishlanmasini yozish tobora rivojlanib bormoqda. Endi darsni rejalashtirish va dars ishlanmasini yozishda o'qituvchi oldiga sakkizta vazifa qo'yilmoqda:

1. Darsda til o'rganuvchilar qanday kompetensiyalarga erishishlari lozim?

2. Shu darsga qadar til o'rganuvchilar nimani bilardilar-u, dars so'ngida qanday bilimga erishadilar?

3. Til o'rganuvchilar dars davomida nima qilishlari lozim?

4. O'qituvchi dars davomida nima qilishi lozim?

5. Til o'rganuvchilar yakka holda, guruhda yoki juftlikda ishlaydilar-mi?

6. Darsda qanday asosiy o'quv materiallari qo'llaniladi? (Masalan: matn, ish qog'ozi, audio matn, topshiriq)

7. Qanday yordamchi vositalardan foydalaniladi? Masalan, axborot vositalaridan doska, kartalar, tarqatma materiallar, video materiallar, internet, gazeta- jurnallar va boshqalar.

8. Til o'rganuvchilarning kutilgan kompetensiyalarga erishganliklari qanday nazorat qilinadi?"⁴¹.

Ko'rinadiki, dars maqsadlari tobora takomillashib til o'rganuvchilar qanday kompetensiyalarga erishishlari nazoratigacha ko'zda tutulmoqda. Darsga qadar til o'rganuvchilar nimani bilardilar-u, dars so'ngida qanday bilimga erishadilar, til o'rganuvchilarning kutilgan kompetensiyalarga erishganliklarini qanday nazorat qilish hamda axborot va o'quv vositalarining qanday turlaridan foydalanish kabilar aniq belgilab olinadi. Dars ishlanmasini yozish avvalgi ishlanmadan har bir matn yoki mashqning maqsadi bo'lishi, har bir qismga qanday axborot vositalari qo'llanilishi

⁴¹ Karin Ende Rudiger Grotjahn Karin Kleppin Imke Mohr. Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung. Goethe – Institut Munchen, 2013 – S. 62

lozimligi, ijtimoiy shakllar, til o'rganuvchilar va o'qituvchi faolligini aniqlashtirish kabilar bilan farqlanadi.

Tadqiqot uchun Suy Key va Vogxan Jonslar tomonidan yaratilgan Yevropa baholash tizimi bo'yicha o'quvchini B2 darajada tayyorlashga mo'ljallangan "Inside Out" darsligini tanladik⁴². Mazkur darslikdan "Images" mavzusini tanlab oldik va shu asosida O'zbekiston sharoitida 80 minutga mo'ljallangan dars ishlanmasini tuzamiz (1. 9-jadvalga qarang):

1.9- jadval

Course/group: 1 course Language level: B 2

General aim: Students will be informed about 20th century

Images

Stage	Time	Aim	Learners activity	Social forms	Learning materials	Media/ media assistance	Teachers activity
Pre	15min	Working with images	S-s will search the information and match the headings with images and discuss on it	Pair work	Images	Work sheets	T shows the images
While	15-min	Matching the pictures	S-s will match the pictures with years. Then check answers in Inside out on page 136	Individual work	Inside out p 4 Ex 2	Cards	T instructs s-s and checks their answers
While	20-min	To develop S-s listening and speaking skills	S-s listen to Cd recording and decide which of the images each person is talking about	Group work	Inside out p 4 ex 3	Coursebook and CD	T plays the recorder and instructs them to listen to conversation
While	15-min		S-s will write about significant facts or	Pair work	Cards with tasks	Cards	T divides s-s into small groups and asks them to

⁴² Sue Kay and Vaughan Jones. Inside Out. Students book. Upper- intermediate. – Macmillan, 2001. – P. 4-5

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

			moments in their own life or in the history				to think about significant facts in their life
Post	10-min	Practicing verb structure	S-s will revise tenses, choose the appropriate tense in the sentences	Individual work	Inside out p 5 Close up Ex Verb structure 1	Handout	T asks s-s to do close up exercise on p 5 Verb structure
	5 min	Grammar revision	S-s will do revision task	Individual work	Inside out Students book	Inside out work book	Teacher gives home assignment to do revision

Ko‘rinadiki, mazkur dars ishlanmasida darsning umumiy maqsadidan tashqari, har bir berilgan mashq yoki topshiriqning maqsadi bo‘lishiga, til o‘rganuvchilar va o‘qituvchining faolligiga, ijtimoiy shakllarga, asosiy o‘quv materiallari, eng muhimi, qaysi axborot vositasi qo‘llanilishiga alohida ahamiyat berilgan. Yordamchi vositalar sifatida axborot vositalarini qo‘llash ham o‘qituvchining mahoratiga, ilmiy ijodkorligiga bog‘liq. O‘qituvchi har bir topshiriq uchun qanday axborot vositasini qo‘llash kerakligi va uning rang- barangligiga e‘tibor berishi lozim. Bu esa darsning qiziqarli va samarali tashkillanishida katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta‘limda ilg‘or texnologiya va axborot vositalaridan bimalol foydalana oladigan o‘qituvchilarga ehtiyoj ortadi.

Xulosa qilib aytganda 1. Hozirgi raqamli texnologiyalar asrida axborot vositalarining jadal rivojlanishi ta‘lim sohasida qo‘llanilayotgan vositalarini tadqiq etish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.

2. Bugungi kunda o‘zbek tilida ta‘lim oluvchi talabalarning ingliz tili nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish bo‘yicha katta ehtiyoj mavjud. Bu dars mashg‘ulotlarini ijtimoiy-hayotiy masalalari bilan bog‘lash va talabalarning dars mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bilan birga mavjud imkoniyatlardan maksimal foydalanish imkonini berishi bilan xarakterlidir.

3. Oliy ta‘lim muassasalarining o‘qitish holati hamda talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish masalasi o‘rganilib, tahlil qilinganda ko‘proq internet ta‘limiy dasturlari, YouTube va podkastlardan foydalanishlari ma‘lum bo‘ldi. Ushbu so‘rovnoma tahlillaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, talabalarning hozirda til o‘rganishlarida zamonaviy axborot vositalariga ehtiyoj katta. Mashg‘ulotlarda talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda

chet til o'qituvchilarining axborot vositalaridan foydalanish holati so'rovnomalar asosida o'rganilganda, asosan, darslik va elektron darsliklardan foydalanish holati aniqlandi. Aksariyat o'qituvchilar ko'proq darslik bilan chegaralanib qolganliklarining guvohi bo'ldik.

4. Hozirgi kunda chet tilni o'qitishda dars maqsadlari tobora takomillashib, darsga tayyorgarlik ko'rish va dars ishlanmasini yozish yanada rivojlanib bormoqda. Endi darsni rejalashtirish va tashkillashda o'qituvchidan axborot vositalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

O'qitish sharoitini yaxshilashda zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakani oshirishga omil bo'ladi.

II BOB. TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

2.1 § Talabalarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalari: elektron gazeta, YouTube video resurslari va audio podkastlar bilan ishlash metodikasi

Ingliz tilida elektron gazetalarining quyidagi <http://en.wikipedia.org/wiki/Tabloid>, <http://en.wikipedia.org/wiki/Broadsheet> <http://www.1stheadlines.com/> saytlar havolalari mavjud.

Ushbu saytlardan faqatgina Britaniya variantida berilgan gazetalarini saralab olib, ulardan foydalanish mumkin. Talabalarining chet tilda o'qish kompetensiyasini takomillashtirishda elektron gazetadan foydalanilganda, avvalo, ular jahonda sodir bo'layotgan hodisalardan xabardor bo'ladilar, qolaversa, bu talabalarda o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'lishiga olib keladi, ishtiyoqni kuchaytiradi.

“Ilmiy manbalarda berilishicha, gazeta bilan ishlash til o'rganish jarayonini yengillashtiradi va jonlantiradi. Talabalar lug'at zaxirasini boyitishlarida gazetalar katta ahamiyatga egadir. Gazetalar bilan ishlash uyda va auditoriyada ishlashga ajratish mumkin. Salananing fikriga ko'ra, talabalar gazeta bilan ishlashni odat tusiga aylantirsalar, ularning o'qish ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Notanish bo'lgan so'z va hodisalar ularning diqqatini jamlashga undaydi, ularning lug'at boyligi o'sishi tabiiy tarzda kechadi”⁴³.

G. Lend darslikdan ko'ra gazeta bilan ishlashni ma'qul ko'radi. Uning fikriga ko'ra, gazeta bilan ishlash talabalarining lug'at boyligi rivojlanishiga hamda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishga olib keladi. Bu borada u quyidagi mashqlar va ularning kichik turlarini tavsiya etadi⁴⁴:

1. So'zlarni almashtirish. O'z mazmuni bo'yicha mazkur kontekstga mos keladigan bitta yoki bir nechta so'zlar beriladi. Masalan:

a) “*match*” so'zi *contest, event, test, bout, trial, meet* so'zlari bilan almashtirilishi mumkin;

b) “*peace*” so'zi *friendship, amity, accord, unity, reconciliation, love* kabi so'zlar bilan almashtirilishi mumkin.

Bunda 2 yoki 3ta to'g'ri variant ham bo'lishi mumkin. Barcha keltirilgan iboralar bir-biriga mazmunan mos bo'lishi mashq ahamiyatini

⁴³ Salana Use the Newspaper // English Teaching Journal. 1974, V. 28, № 4, – P. 336-343.

⁴⁴ Бабаджан С. С. Роль газеты при обучении английскому языку и методы работы с газетным материалом. – Вестник Пермского университета. 2009. – С. 44-47

oshiradi. Quyidagi fikrlarni bildirish uchun matnda foydalanilgan iboralarni ko'rsatish mumkin. Masalan:

- a) instructions on how to behave in a well-mannered way;
- b) circumstances that are different to handle—tricky situations;
- c) the level that we hope to reach—the standard we are aiming at.

Agarda bu jumlar talabaning ona tilida berilib, ularning inglizcha ekvivalentini qidirib topish vazifasi berilsa, ish yanada samarali kechadi. Shuningdek, so'zlar o'rtasida muvofiqlikni aniqlash bo'yicha quyidagicha topshiriqlar ham bajarilishi mumkin:

2. So'zlar o'rtasida muvofiqlikni aniqlash topshiriqlari.

a) Here are some containers: box, packet, jar, drum, bottle, tin, tube, bag, barrel, sack. Put each of following items into its appropriate container. E. g. —a box of matches. Bu usuldan foydalanishda otlar va sifatlarni muvofiq ravishda tanlab qo'yish yoki gaplarni (jummalarni) shunchaki tugallash ham mumkin: e. g. — a block of priests — soldiers — sheep — fish — goats — children — ships. Yoki fill the spaces in these ten sentences with expressions using "way". Choose the expressions from the list: by the way, all the way, by the way of, in the way, in a way, his own way, out of the way, on the way, wayside, under way. "You look very tired" "Yes, I am. I couldn't get a lift and I had to walk" kabi matn ko'rinishida tayyorlashni ham topshiriq qilib berish mumkin.

3. Tushunish darajasini tekshirish bo'yicha (comprehension) mashqlar.

Bunda eng ko'p tarqalgan misollar bu berilgan savollarga javob berish, taklif etilgan bir nechta variantlardan bitta to'g'ri javobni tanlash, "noto'g'ri iboralarni to'g'rilash", "bu ibora to'g'ri yoki noto'g'ri" deyish kabilar hisoblanadi. Bunday mashqlarga:

1) Multiple choice. Read the new item carefully. Then choose the correct answers in the following exercise.

Yesterday a scientist said that certain types of arm chairs.

- a) Were widely used and up holstered.
- b) Might easily catch fire, because the materials used were dangerous.
- c) Should not be used because they were dangerous.

2) True or False (according to the story)?

- a) Only poor people steal things from shops.

O'qituvchi talabalardan shunday so'zlarning ro'yxatini (har bir ro'yxatda taxminan 20 so'z) tuzishni ham so'rashi mumkin. O'qituvchi ro'yxatlarni tekshiradi, ularda takrorlanayotgan so'zlarni tanlaydi va guruhga ularning mazmunini tushuntiradi. Shuningdek, talabalarning o'zlariga matnning asosiy mazmunini aks ettiruvchi bir juft gap yozishni taklif qilishi

ham mumkin.

b) These are fewer shop lifter are often well-organized

Quyidagi “insufficient information” bandini kiritish orqali, shuningdek, talabalarga noto‘g‘ri jummalarni tuzatishni taklif qilish bilan topshiriqni yanada takomillashtirish mumkin.

Ilmiy manbalarda berilishicha, nutqiy kompetensiya: tinglab tushunish, o‘qish, yozish va og‘zaki nutqdan tashqari, ko‘zdan kechirish (tomosha qilish) va vizual tasavvurni o‘z ichiga oladi. Bu barcha ko‘nikmalar grammatika bilan bog‘liq. Masalan, tinglab tushunish mashg‘ulotlarida matn audiosini tinglash paytida majhul nisbatli gaplar kelishi mumkin. Agar o‘quvchi majhul nisbatni bilmasa, gapning mazmunini to‘la tushunmaydi. Shunday qilib, grammatika o‘quvchilarning televideniye, filmlar, internet, YouTube va yuzma-yuz muloqotdagi so‘zlashuvlarni tushunishida muhim ahamiyatga ega. Bunday holat o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish mashg‘ulotlarini olib borishda qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi.

Chet tilni o‘rganish va o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari muloqot yuritishni o‘rgatish (kommunikativ yondashuv) va nutqiy vaziyatga mos harakat qilish (til o‘rganuvchilarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan yondashuv)ga asoslanadi. Bu jarayon axborot vositalari, xususan, internet videomateriallari bilan bog‘lab amalga oshirilsa, ta’lim sifatini oshirishda ko‘plab afzalliklarga ega. Bugungi kunda Yevropa mamlakatlari, xususan, Fransiyada xorijiy tillarni o‘qitishda eng zamonaviy va samarali yondashuv sifatida (learner centered approach) til o‘rganuvchilarning ehtiyojlariga yo‘naltirilgan yondashuv faol qo‘llanilmoqda.

Ma’lumki, videomateriallar o‘z manbasiga, metodik va metodologik asosiga ega bo‘ladi va har qanday videomaterialda muayyan muammoga e’tibor qaratiladi. Shundagina unga muloqotni rivojlantiruvchi vosita sifatida qarash mumkin. Demak, videoni tomosha qilish jarayonida nutq amaliyotining interfaol, ijodiy xususiyati namoyon bo‘ladi.

Lug‘atlarda videomaterial ovoz va tasvirning uyg‘unligi sifatida ifodalanib, ta’lim-tarbiya jarayoniga qaratilganligi ta’kidlanadi”⁴⁵.

“Mashg‘ulotda videofilmlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqat va xotira kabi aqliy faoliyatining turli tomonlarini rivojlantirishga yordam beradi. Videomateriallarni tomosha qilishda kognitiv faoliyat muhiti paydo bo‘ladi. Videoyozuv chet tilni o‘rgatish jarayonida xorijiy tillardagi nutqiy muloqotni faollashtirish maqsadida dinamik ko‘rinish va operativ audiovizual qo‘llab- quvvatlashni yaratish uchun qo‘llaniladi. Videomateriallardan uslubiy jihatdan to‘g‘ri foydalanish autentik muloqot

⁴⁵ <http://www.larousse.fr/dictionnaires/francais/vidéo/81881>

muhitini yaratishga yordam beradi. Video ustida ishlaganda muloqot faoliyatining to'rt turidan foydalaniladi: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish. Autentik videolarni ko'rish nutq faoliyati uchun xizmat qiladigan nutq namunalari yaratishga yordam beradi va shu bilan nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar chet tilidagi autentik nutqni tushunishga qodir ekanliklarini anglab yetganlarida, ularda o'z-o'zini baholash va mavzuni o'rganish uchun motivatsiya ortadi"⁴⁶.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanilayotgan audiovizual materiallar manbai bo'lgan internet o'quvchilar uchun til o'rganishdan tashqari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni biror bir til vositasida audiovizual materiallar orqali anglash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Audiovizual materiallar xususida gap borar ekan, "audiovizual" tushunchasining mohiyatiga to'xtalib o'tish joiz. Bu tushuncha lotin tilida audire – "tinglamoq", videre – "ko'rmoq", ya'ni "tinglashga ham, ko'rishga ham mo'ljallangan" degan ma'noni anglatadi. Xorijiy tillarni audiovizual materiallar asosida o'qitish metodi audiovizual metod deb ataladi⁴⁷. Chet tilini ham tinglash, ham ko'rish orqali o'zlashtirish mazkur metodning asosini tashkil qiladi. Bu metod Fransiyada o'tgan asrning 50-yillarida shakllangan bo'lib, xorijiy tillarni o'qitishda asosan video va audio materiallardan foydalanish bilan ifodalangan⁴⁸.

Bu borada F. Manjeno, M. Katru, S. Pyuran, T. Lansiyen, M. Tome kabi olimlar fransuz tilini xorijiy til sifatida o'rganish va o'qitishda multimedia vositalari va raqamli texnologiyalarning ahamiyatini o'z asarlarida ta'kidlab o'tishgan⁴⁹. Shuningdek, F. Paskiyning fikricha, "Videomateriallar so'zlovchidan to'g'ridan- to'g'ri (og'izning harakatlanishi, lablarning kengayib-torayishi, mimika, pantomimikalar orqali) artikulyatsiya jihatidan muhim ma'lumotlarni audiovizual qabul qilishga imkoniyat beradi"⁵⁰. Bu esa tinglovchining nafaqat xorijiy tilni puxta o'rganishga yordam beradi, balki bilim doirasini ham kengaytiradi,

⁴⁶ Atadjanova M. A The effects of using authentic video materials in teaching foreign languages // Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. – Toshkent, 2021. – B. 23.

⁴⁷ Ходжаев М., Кахорова М. Чет тил ўқитиш методикаси. – Тошкент: Фан ва технология, 2013. – Б. 9.

⁴⁸ Strike J. L'apprentissage du français langue étrangère facilité par la technologie // Dissertation de master. – Prétoria: Université de Prétoria, 2002. – R. 146.

⁴⁹ Mangelot F. Apprentissages collaboratifs assistés par ordinateurs appliqués aux langues // Interaction, interactivité et multimedia. Paris: Editions. № 5. R. 11-18.

⁵⁰ Abry D. La vidéo en classe de FLE: vers un développement de la compétence communicative // Dissertation de master. – Paris: Université Stendhal de Grenoble, 2009. – R. 12.

qabul qilinayotgan axborotni tahlil, sintez qilish orqali ijodiy erkin fikrlash doirasini kengaytiradi. Ushbu jarayon talabani chet tilidagi nutqiy kompetensiyasi, ijodiy erkin muloqot qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Mustaqil o'rganish ko'nikmasini faollashtirishga imkoniyat yaratadi.

Agarda talabalarning grammatikani bilish darajasi yuqori bo'lsa, ular tilni bemalol egallashlari mumkin, lekin grammatikani yaxshi bilimaydigan o'quvchilar muloqotda ko'plab to'siqlarga duch keladilar.

Grammatikani o'qitishning ko'plab metodlari mavjud bo'lib, asosiylari quyidagilar:

1. Induktiv o'qitish metodi
2. Deduktiv o'qitish metodi
3. Interfaol o'qitish metodi

Har bir metodning muayyan ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ba'zi darslarning xotirada qolish ehtimoli juda kam, shu bilan birga, ayrimlari yanada chuqurroq tushuntirishni va qo'shimcha amaliyotni talab qilishi mumkin.

Ma'lumki talabalarning ko'pchiligi yo vizuallar yoki kinestetiklardir, ushbu turdagi til o'rganuvchilar tilni vizual muhitda o'rganadilar. Ammo ingliz tilining grammatikasi murakkabligi tufayli grammatikani o'qitishda axborot vositalaridan foydalanish talabalarga tilni oson o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Chet el tadqiqotlarida berilishicha, YouTube videodan foydalanish orqali o'qitilgan o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari, darslik yordamida o'qitilganlarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan.

Shunday qilib, YouTube video nutqiy kompetensiyani takomillashtirish uchun darsliklardan ko'ra samarali hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalaridan, ayniqsa YouTube videodan foydalanish, toki o'qituvchi axborot yetkazar ekan, talabalarning diqqatini jalb qilishga va ularning qiziqishini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'qitish jarayonida videodan foydalanish bilimlarni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu mavzu bilan tanishish bo'yicha kommunikativ faoliyatning a'lo darajali boshlang'ich nuqtasi bo'lib, o'qituvchilar tasmani orqaga aylantirgunlariga qadar tasvirni tezkor aylantirib ko'rsatishning yoki orqaga tez aylantirishning imkoni mavjud bo'lib, u o'quvchilarga tasvirlarni ko'rish imkonini berishdan tashqari, qo'shimcha imkoniyatlar beradi. Masalan, bitta tasvirni yanada aniqroq to'xtatib turish mumkin, ko'p videolarda alohida tovushli signallar va musiqa mavjud, video muhokama qilinganda qo'shimcha qiziqarli fikrlar bo'lishi mumkin.

Shuningdek, talabalar videodagi erkak va ayollar talaffuziga nisbatan tanqidiy munosabat ham bildirishlari mumkin. Ularga videoda sodir

bo'layotgan hodisalar bilan o'zlarining ruhiy kechinmalari o'rtasidagi aloqani o'rnatish hamda bilimlarini kengaytirish imkoniga ega bo'lishlari uchun matnda berilgan ma'lumotlarni muhokama qilishda oldingi bilimlaridan foydalanish taklif etiladi. Bundan tashqari, talabalar video matnidagi ayrim so'zlar yoki gaplarni mustaqil tahlil qiladilar. Ular, shuningdek, muhokama qilinadigan mavzu bo'yicha o'zlarining tajribalariga hamda o'zlashtirgan bilimlariga asoslangan qarashlari va fikrlarini bayon etishlari mumkin. Mana shundagina mazkur axborot vositalari qo'llanilayotganida talabalarda ijobiy munosabat shakllanadi. Agar o'quvchilar matnga nisbatan ijobiy kayfiyatda bo'lsalar, o'qitish jarayoni yanada samaraliroq kechadi, chunki talabalar o'z fikrlarini dadilroq yetkazadilar.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda YouTube videodan foydalanish jarayonida talabalarga avval matnga bir nazar tashlab, mazkur matn nima to'g'risida ekanligini ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Ular videomatn sarlavhasini o'qiydilar hamda qanday iboralar talaffuz qilinganligini fahmlashga va oldindan aytishga urinadilar. Bu talabalarga mavzuni yaxshiroq tushunishlariga va tilni o'rganishdan zavqlanishlariga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, OTMlarda ingliz tili mashg'ulotlarida zamonaviy axborot vositalar, xususan, internet YouTube resursining qo'llanilishiga yanada ijodiyroq yondashish kerak. Bu esa talabalarning kommunikativ kompetensiyasini, hamda nutqiy malakalarini takomillashtirishda katta yordam beradi. YouTube vidematerialidan talabalarning o'quv faoliyatini va motivatsiyasini rag'batlantirish uchun ham foydalanish mumkin.

O'qituvchi o'z metodik maqsadiga erishish uchun darsda turli vositalardan mukammal darajada foydalanishni rejalashtirish kerak. Bunda axborot vositalari mashg'ulot jarayonida eng samarali vosita bo'lib xizmat qiladi, o'qituvchining maqsadi va yutug'iga erishishida yordam beradi.

Biz til o'rgatish va o'rganishda internet taqdim etgan YouTube videomateriallarining hammasidan ham foydalana olmaymiz. Ulardan foydalanishdan oldin ushbu materiallarning chet til o'qitish tamoyillari, metodik maqsadi va mezonlari asosida saralab olishimiz lozim. Talabalarning nutqiy kompetensiyani takomillashtirish uchun mo'ljallangan YouTube videolari saytlariga juda ko'p misollarni keltirish mumkin. Jumladan, Britaniya (British Council) kengashi tomonidan taqdim etilgan Learn English Grammar (British Council), My Grammar Lab Pearson, English Audio and Video, learn English Great Videos kabi videomateriallar ingliz tilini o'rganish uchun resurs vazifasini bajaradi. Learn English Grammar

ilovasi iTunes Educationda dunyoning 9 ta davlatida birinchi o'rinda turadi, shuningdek, 40 dan ortiq mamlakatlarda kuchli o'ntalikdan joy olgan. Ushbu ilovalar boshqa lingvistik va lingvomadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ham ishlatilishi mumkin, chunki ular lug'at, grammatika, muloqot qobiliyatlari va nutq qobiliyatlarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus bo'limlarni o'z ichiga oladi.

Grammatikaga oid bilimlarni nutqda qo'llashga mo'ljallangan mobil ilovalar orasida Learn English Grammar (British Council) ilovasi yetakchilikni qoldan boy bermay keladi. Mobil ilovalardan nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga mo'ljallangan bir nechta ilovalarni ko'rib chiqamiz, ulardan auditoriyada ishlash uchun ham, talabalarning mustaqil ishlarini bajarishlari uchun ham foydalanish mumkin.

Eng samarali ilovalar qatoriga Sounds Right (British Council), shuningdek, Sounds: Pronunciation App (Macmillan Education) kiradi. Bu ilovalar mashqlar, o'yin topshiriqlari, testlarni o'z ichiga oladi. Biz ushbu veb saytlar va mobil ilovalarni ko'rib chiqqanimizda ba'zi ilovalar grammatikani o'rgatishning an'anaviy yondashuvlariga asoslangan bo'lib, chet til o'qitishning "The Principle of Sufficiency of necessity" "Yetarlilik tamoyillari"ni ta'minlay olmasligini ko'rsatdi. Vaholanki, chet til grammatikasini o'rgatishning zamonaviy yondashuvlari va metodlarining maqsadi grammatik strukturadan og'zaki va yozma muloqotda foydalanish bo'lganligi tufayli asosan mashg'ulotlarda "Inductive method" (Descriptive way of Teaching)ni qo'llanilishi samarali ekanligi tadqiqotchilar tomonidan isbotlangan⁵¹. Xususan, When to teach Grammar? How to teach Grammar? Qachon o'rgatish kerak va qanday o'rgatish kerak? tamoyillariga asosan tahlil qiladigan bo'lsak, bu o'rinda Sternning fikri quyidagicha: "O'qituvchi grammatikani o'rgatishda, avvalo, misollar keltiradi, o'quvchilar misollarni ko'radilar va shundan so'ng o'qituvchi grammatik qoidalarni tushuntiradi. Bu metod gaplar tuzilishini "Misol – Qo'llash – Qoida" tarzda ko'rsatib beradi⁵².

S. Thornbury o'zining "How to teach?" nomli kitobida shunday degan: "Ingliz tili grammatikasini o'qitishda "Induktiv yondashuv" ko'pincha "to'g'ridan-to'g'ri o'rgatish metodi" va "tabiiy yondashuv" tamoyillari bilan bog'liq⁵³. Tesol International Assosiation ingliz tili o'qituvchilari uchun maxsus dasturida berilgan ma'lumotlarga ko'ra ham

⁵¹ Nusrat Masud Khan An Observation on Teaching Grammar Using Inductive Method. Diss. 2014. – P. 5

⁵² Stern H. H. Issues and Options in English Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press. 1992.

⁵³ Thornbury S. How to teach Grammar. – Essex: Pearson Education. 2002. – P. 50

hozirda grammatikani o'rgatishda an'anaviy metod, ya'ni deduktiv metodni emas, balki induktiv metodni qo'llash tavsiya etiladi.

Grammatikani o'rgatishning induktiv metodi talabalarning nutqiy kompetensiyasini oshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu metod talabalarga yangi gapni autentik muhitda tuzish hamda uni nutqiy muloqotda qo'llasga yo'naltirilgan bo'lib, grammatikaning kommunikativ kontekstda ishlatilishini ta'minlaydi⁵⁴.

Ma'lumki, ingliz tili grammatikasida ko'p nozikliklar, istisno qoidalar mavjud bo'lib, bu boshqa til sohiblariga ingliz tilini, xususan, grammatikani o'rganishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Hozirgi vaqtda til o'rganishdan ko'ra tilni o'zlashtirish (language acquisition)ga e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli grammatik qoidalarni yodlash orqali o'rganish yaxshi natija bermasligi ma'lum bo'ldi. O'quvchilar grammatikani inglizzabon til sohiblari ishtirokidagi jonli, autentik muloqot orqali o'rgansalar yaxshi tushunadilar.

S. D. Krashen tilni o'rganishda grammatika alohida ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rgatishda (first "input second" "rule")⁵⁵ avvalo o'quvchilar gaplarni autentik vaziyatda qo'llashlari kerak, gaplarning tuzilishini va qonun qoidalarini esa o'sha autentik muloqot davrida tushunib olishlari mumkin, degan tamoyilni ilgari surgan. Bu S. Krashenning "Principles and Practice in second language acquisition, S. Thornburyning "How to teach Grammar" metodik qo'llanmalarida hamda Nusrat Masud Khaning "An Observation on Teaching Grammar Using Inductive Method"nomli dissertatsiyasida asoslangan.

Bizning fikrimizcha, grammatikani o'rgatish kommunikativ vaziyatdan boshlanadi. Bunda autentik materiallar (video, audio podkastlar, qolaversa, internet resurslari va boshqa axborot kommunikativ vositalar)ning o'rne va ahamiyati kattadir. Talabalar grammatikani o'rganishlarida o'qituvchi mashg'ulot jarayonida mavzuga doir autentik materiallarni tanlab, saralab, tasniflab va ularga taqdim etishni ta'minlashi zarur.

Grammatikani o'rgatishda deduktiv o'qitish metodi zerikarli bo'lib, u qoida yodlash va o'qituvchi boshqaruviga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun bu metod talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishga to'sqinlik qiladi. Grammatikani qoidalar orqali o'rgatish usuli til o'rganuvchilarning ushbu qoidalarni qachon, qayerda va qanday ishlatish haqida tasavvur qilishlarini qiyinlashtiradi, aksincha, qoidalar amaliy misollar orqali va muloqot kontekstida yetkazilsa, ularni eslab qolish

⁵⁴ Tesol International Assosiation

⁵⁵ Stephen D Krashen. Principles and Practice in second language acquisition. University of southern California. Internet edition, 2009. – P. 113

osonlashadi. Induktiv metodning asosiy maqsadi o'qituvchiga emas, balki talabaga qaratilgan bo'lib, talabalarning kontekstual xotirasiga kognitiv ta'sir qila oladigan metodlardan foydalanishni tavsiya etadi.

Ma'lumki, til o'rgatishda talabalarning yoshi, ularning psixologik jihatlari, xohish, istagi va til bilish darajasi hamda individual til o'rganish uslublari inobatga olinadi.

Bizning fikrimizcha, ba'zi ingliz tili o'qituvchilari tilni o'rgatishda turli sabablarga ko'ra qiyinchiliklarga duch keladilar: birinchidan, o'quvchilarga til o'rgatishda ularning til o'rganish uslublari (learning styles: tactile, visual, auditory, kinesthetic) ni inobatga olmasliklari, mashg'ulotda axborot vositalarini, jumladan, internet resurslarini mavzuga mos tanlay olmasliklari, ikkinchi sabab esa ular da media savodxonligining yahshi rivojlanmaganligi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tili mashg'ulotlarida zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish har bir talabaning til o'rganish uslubiga xos yondashgan holda o'qitish, qolaversa, o'qituvchining o'z maqsadiga erishishini metodik jihatdan ta'minlaydi.

Shunday qilib, YouTube videolari talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda darsliklarga qaraganda samaraliroq bo'lib, ularning afzallik tomonlari quyidagilarda ko'rinadi:

- ta'lim-tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarini o'zida yaxlit aks ettiradi;

- o'zida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay oladi;

- g'oyaviy jihatdan talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos keladi;

- o'quv materiali zarur axborotlar bilan to'liq ta'minlanadi;

- o'qitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni qo'llash imkoniga ega;

- ta'limning ko'rgazmaliligi va barcha uchun ochiqqligini ta'minlash imkoniga ega;

- ko'p funksiyali ta'lim vositalari turiga kirib, mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga ko'malashadi. Shu bilan birga, talabaning materialga munosabati asosida uning ma'naviy-axloqiy holatini ham baholash mumkin bo'ladi. Agar unda muammolar kuzatilsa, uni ertaroq aniqlash va bartaraf etishga imkon bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, tinglash paytida odam nutq ma'lumotlarining 15% ini, ko'rish paytida vizual ma'lumotlarning 25% ini, tinglash va ko'rish birgalikda bajarilganda 65-70% ini eslab qolar ekan.

O'qituvchi YouTube videolarini talabalarga namoyish qilayotganda, birinchidan, vaqt tejallishiga erishadi, material 20-25 minutga mo'ljallangan bo'lsa, shu vaqt ichida barcha nutqiy malakalarni (kompetensiyani) rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, talabalarning e'tiborini to'liq jalb qila oladi va ularning qiziqishini oshirishga erishadi, bu esa talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga imkoniyat yaratadi. Tilshunos olim Scrivener "til o'rgatishda videodan foydalanish o'quvchilarning muvaffaqiyati va ishtirokiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb yozadi. Bunda ijobiy jihatlari, birinchidan, mazkur jarayon kommunikativ faoliyat uchun ajoyib boshlanish bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, videoni tez orqaga qaytarish va sekinlashtirib namoyish qilish imkoniyatlari bor, shu bilan birga, yaxshi anglash va tushunish uchun videoni to'xtatish pauza qilish yoki takroran ko'rish mumkin. Uchinchidan esa ko'plab videolarda maxsus ovoqli signallar va musiqalar mavjud bo'lib, bu o'quvchilarga muhokama qilish uchun qiziqarli mavzu bo'la oladi". O'qituvchi tomonidan boshqarilgan dars mashg'ulotlarida bunga imkon deyarli yoq.

J. Harmerning ta'kidlashicha, "videoning yana bir afzallik tomoni shundaki, o'quvchilar uni faqatgina eshitib qolmasdan, balki ko'rishlari ham mumkin. Shuning uchun ushbu videolardan o'quvchilarga tilni o'rgatishga ilhomlantirish yoki rag'batlantirish maqsadida ham foydalanilsa, yuksak natijalarga erishiladi"⁵⁶.

Shunday qilib, YouTube videolari darsliklarga qaraganda til o'rganish vositasi sifatida samaraliroq degan xulosani tadqiqotimizning tajriba -sinov ishlari orqali isbotladik.

Mashg'ulotda (YouTube) videolaridan foydalanish kognitiv va affektiv jihatlari bilan bog'liq. Videolar ham akademik, ham hissiy jihatdan ta'limda ijobiy natijalar beradigan samarali o'rganish vositalaridir. Xotira o'z navbatida his -tuyg'ularga kuchli ta'sir qiladi, natijada o'quv videosi tajribani yetkazish va kognitiv o'rganishga ta'sir qilish qobiliyatiga ega.

Biz YouTube videolaridan foydalanganimizda, asosan, juftlik bilan ishlash, kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan topshiriqlarni tashkillashimiz va amalga oshirishimiz lozim.

Kommunikativlikka asoslangan yondashuv o'z o'rnida chet tilni o'qitish jarayonida faqat o'quvchiga nimani o'rgatishni emas, balki qanday qilib o'rgatish kabi masalani ham tahlil etadi. Kommunikativ til ta'limi (Communicative Language Teaching) yoki tilga kommunikativ yondashuvda J. Harmer tilda egallangan muayyan grammatik me'yorlar va so'z boyligi ko'lamigagina emas, balki tilning qo'llanishdagi vazifasiga katta urg'u

⁵⁶ Harmer Jeremy. How to Teach English. – London: Longman. 2006.

berilishi lozim deb hisoblaydi. “Autentik audio-video materiallarning ommalashuvi til o’rganuvchilarga interaktiv til muhitini yarata olishidadir”, deb ta’kidlaydi rus olimi G. A. Vorobyov⁵⁷. Shu o’rinda kommunikativlikka asoslangan bu tizimli metod, ya’ni autentik video yoki kinomateriallarga asoslangan o’qitish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan rus olimlari A. Y. Chikunova, Y. I. Verisokin⁵⁸ lar nomini ta’kidlab o’tish o’rinli. Xorij olimlari S. Stemplisky, B. Tomalinlar chet tillarni o’qitishda videomateriallarini maqsadli qo’llash usullari haqida qator adabiyotlar yaratishgan. Ayni paytda, muayyan afzallik va imkoniyatlariga qaramay, autentik videomateriallarni darsda qo’llashda o’ziga xos muammolar mavjud bo’lib, u, birinchi navbatda, autentik videomateriallarni o’quv rejasiga moslashtirish bilan bog’liq. Bunda materiallarni saralash va mavzuga moslashtirish, uni til o’rganuvchilarning yoshi, bilim darajasi va auditoriyasiga (qaysi sohaga yo’naltirilganligiga) qarab amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Mavzuga oid manbalar shuni ko’rsatadiki, autentik videomateriallarni saralash tashkil etiladigan dars maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, muayyan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, rus olimi T. S. Malisheva⁵⁹ bo’lajak chet tili o’qituvchilarida ijtimoiy madaniy kompetensiyani shakllantirish bo’yicha olib borgan tadqiqotida autentik videomateriallarni saralash ijtimoiy-madaniy kompetensiya mezonlari asosida amalga oshirilishini ilgari surgan. Xorij olimlari S. Stemplisky, B. Tomalin⁶⁰ esa autentik videomaterialni saralashda uning tashkiliy qismiga ko’proq e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydilar. Biz yuqoridagi olimlar fikrini inobatga olib, autentik videomateriallarni saralashning quyidagi me’zonlarini taklif etamiz: autentik videomaterialning ta’lim maqsadlariga muvofiqligi; autentik videomaterialdagi axborotning yangiligi va ixchamligi; autentik videomaterialni o’quvchining chet tili bilim darajasiga mosligi; tanlangan autentik videomaterial mazmunining hayotiyligi. Autentik videomateriallarni darsda qo’llashning ikkinchi o’ziga xos jihati

⁵⁷ Воробьев Г. А. Развитие социокультурной компетенции будущих учителей иностранного языка (поиск эффективных путей) // Иностранные языки в школе. – Петербург, 2003. № 3. – С. 30–36.

⁵⁸ Чикунова А. Й. Аутентичные видеоматериалы как средство развития социокультурной компетенции студентов экономических специальностей // Педагогическое образование в России. – Екатеринбург, 2011. 5. Верисокин Ю. И. Видеофильм как средство мотивации школьников при обучении иностранному языку // Иностранные языки в школе. – М., № 5. 2003. – С. 31–35. 171 № 1. – С. 147–158.

⁵⁹ Малышева Т. С. Формирование социокультурной компетенции студентов лингвистических вузов посредством аутентичных материалов (начальный этап 2 курс): Дис. канд. пед. наук. – Нижний Новгород. 2012. – С. 88-89.

⁶⁰ Stemplisky S., Tomalin B. Film. – Oxford University Press, 2001 163. – P. 18.

o'rganilayotgan tilning qiyinligi, so'zlarning xilma-xilligi, nutqning tezligi, turli leksik birliklarga boyligidadir. Bunday vaziyatda pedagog materiallarni qo'llashda o'quvchilar imkoniyatlarini hisobga olgan holda, muayyan sistemaga solingan mashqlar ketma-ketligini ishlab chiqishi; autentik videomateriallar namoyishi bilan bog'liq mashqlar ustida ish olib borar ekan, videonamoyishning uch asosiy bosqichini hisobga olmog'i lozim. Video materiallarni darsda qo'llashning uch bosqichi mavjud:

1) Pre-Watching video namoyishdan oldingi bosqich (autentik videomaterialni qo'llashdan oldingi bosqich);

2) While-watching video namoyish bosqichi (autentik videomaterialni qo'llash bosqichi);

3) Post-watching video namoyishidan keyingi bosqich (autentik videomaterialni qo'llashdan keyingi bosqich).

Yuqorida ta'kidlangan metod asosida samarali mashg'ulot olib borish, ko'zlangan natijaga erishish uchun pedagogdan har bir bosqichning vazifasiga muvofiq mashqlar tipologiyasidan kelib chiqib darsni tashkil etish talab etiladi.

Bunda birinchi bosqich til o'rganuvchilarni videonamoyishga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, o'rganuvchilarga motivatsiya berish, qiziqtirish, mavzu bilan tanishtirish, mavjud bilimlarni faollashtirish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi video namoyishidan avval:

- videomaterial mavzusini yoritishga yordam beradigan kalit so'zlar yordamida mavzuni muhokama qilish;

- taqdim etiladigan videomaterialni dastlab ovozsiz namoyish etish (bunda til o'rganuvchilarga nima haqida so'z borayotganini taxmin qilish yoki erkin ovozlashtirish imkonini berish);

- namoyish etiladigan videomaterialning dastlab faqat audioformatini taqdim etish (videomaterialning ovozli formati orqali video syujetini aniqlash) usulini o'rinli qo'llash yuqorida aytilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Ikkinchi bosqichda videomaterial muayyan qismigacha namoyish etilib, keyingi voqealar rivoji haqida o'rganuvchilarning fikrini aniqlash uchun videomaterial namoyishidan oldin berilgan leksik birliklarni qo'llash o'rniga e'tibor qaratishga asoslangan mashqlar berish mumkin. So'nggi bosqichda esa namoyish etilgan videomaterialni tushunish hamda material asosida yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratiladigan mashqlardan foydalanish yoki videomaterialda aytilgan fikrni davom ettirishga yo'naltirilgan topshiriqlar beriladi.

J. Harmer videomateriallarni darsda qo'llash texnikasi to'g'risida

bergan tavsiyalariga ko'ra⁶¹:

- videomateriallarni ovozsiz ko'rish (Silent viewing);
- videomaterialning ma'lum qismini to'xtatib qo'yish (Freeze framing), bunda talabalardan lavhaning davomini taxmin qilish talab etiladi;
- qisman ko'rish (Partial viewing), bunda ekranning asosiy qismini mato yoki qog'oz bilan berkitib video namoyish etiladi;
- tasvir yoki ovoz (Picture or speech), (darsda o'tirganlarning yarmi videoni ekranga teskari o'tirgan holda tinglashadi);

Chet tili ta'limida videoni namoyish etish avvalo, o'quvchilarda qiziqish va motivatsiya u'ygotadi. Bu jarayon darsga juda katta ijodiy ruh beradi. O'quvchilarning bilimidan tashqari zukkoligi va sezgirligini oshiradi. Bilim olishga ishtiyoq beradi. Mavzu bo'yicha til o'rganuvchilar auditoriyasiga moslangan autentik videomateriallar o'quvchilarga kerakli ma'lumotni ko'rish- tinglash va imo-ishoralar orqali tushunish, namoyish etilgan lavhaning madaniy xususiyatlarini to'laligicha anglash imkonini berish bilan birga, ular asosida bajarilgan maqsadga yo'naltirilgan mashqlar to'plami (nutqni rivojlantirish uchun monologlar, dialoglar, poliloglar bahs-munozaralar) til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirda o'quv jarayonining shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan yondashuv (student centred approach) talabaga qaratilgan bo'lib, ularning bilim, ko'nikma va malakalaridan tashqari mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhimdir. Talabalarning mustaqil ta'lim olishini ta'minlash yangi ta'lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi zamonaviy axborot kommunikativ vositalaridan, ta'lim dasturlaridan va internet resurslaridan samarali foydalanishi kerak bo'ladi. Bunda podkast texnologiyasi talabalarning tinglab tushunish kompetensiyasini takomillashtirishda hamda ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda xizmat qiladi.

Podkast (Podcast) – Web 2. 0 ijtimoiy xizmatning bir turi bo'lib, bu zamonaviy axborot vositasi sifatida, butun dunyo bo'ylab internetda mavjud bo'lgan audio yoki video yozuvlarni tinglash, ko'rish, yaratish imkonini beradi. Podkasting⁶² inglizcha iPod va broadcasting so'zlaridan olingan yoki

⁶¹ Kamelia K. Using Video as Media of Teaching in English Language Classroom: Expressing Congratulation and Hopes Journal of Ultimate Research and Trends in Education. Vol. 1, No. 1, March, 2019. – P. 34-38

⁶² Мятин Евгений. Подкастинг -синтез интернет и радио. Архивная копия от 14 октября 2012 на Wayback Machine // iXBT, 2006.

shaxsiy talab bo'yicha eshittirish - hamma joyda eshittirish, efirga uzatish – ovoz yoki video fayllarni yaratish va tarqatish jarayoni. Podkastlar shakli bo'yicha radio yoki teleko'rsatuvlarga o'xshaydi, ular internet orqali foydalanuvchi qurilmasiga yuklab olinadi hamda tinglovchilar uchun qulay vaqt va joyda oflayn rejimda ijro etilishi mumkin.

Podkastlar o'zining zamonaviyligi bilan an'anaviy (televizor yoki radio) axborot vositalaridan farqli o'laroq, audio fayllarni tinglash va video eshittirishlarni jonli emas, balki foydalanuvchi uchun qulay bo'lgan istalgan vaqtda tomosha qilish imkonini beradi.

G. Stenli "Til o'rganish texnologiyasi sifatida podkastlar 2005 – yilda tinglovchi xohlagan vaqtda, qayerda va qancha marta tinglash mumkin bo'lgan radio turdagi kontentni taqdim etishning muqobil usuli sifatida mashhur bo'ldi"⁶³ deb yozadi.

Hozirgi vaqtda uch turdagi podkastlar qo'llaniladi:

- 1) asosiy audio podkastlar. Ularni yaratish va ishlatish juda oson.
- 2) internetdagi Power Point taqdimotiga o'xshash slayd taqdimotidan olingan audio yoki videolar.

- 3) murakkab podkastlar, ular qiyin bo'lsa-da, o'quvchilar uchun eng qiziqarli bo'ladi. Bu video va audio yozuvning kombinatsiyasi bo'lib, ularni yaratish biroz murakkab.

Ushbu podkastlar o'quv sohasida ma'ruzalarni yaratish va tarqatish, qo'shimcha o'quv materiallarini yetkazib berish uchun ishlatiladi, shuningdek, o'qituvchilar tomonidan talabalarga o'zlarining podkastlarini ishlab chiqish uchun topshiriqlar berishda foydalaniladi. Ma'lumotlarga ko'ra, ingliz tilini chet til sifatida o'rganuvchilar ushbu podkastlardan foydalanishi tilni o'rganish jarayonida yaxshi samara beradi. Turli mavzular va vaziyatlarni qamrab oluvchi podkastlarni tinglash orqali o'quvchilar tilni egallashlari oson kechadi. Bundan tashqari, bu o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga yordam beradi, bu esa ularning ingliz tilida so'zlashuvining yaxshilanishiga olib keladi.

Podkastlarning uzunligi bir necha daqiqadan bir necha soatgacha bo'lishi mumkin. Internetda til sohiblari tomonidan yaratilgan autentik podkastlar (masalan, BBC yangiliklari) va ta'limiy podkastlar (ta'lim maqsadlarida) topishimiz mumkin. Kerakli podkastlarni topishning eng samarali usuli bu yuklab olish mumkin bo'lgan podkastlar ro'yxatini tuzishdir. Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun podkastlar katalogi qidiruv tizimlari mavjud: [www. podomatic. com](http://www.podomatic.com), [www. google.](http://www.google.com)

⁶³ Stanley G. Podcasting for ELT. Teaching English. 2005. Web. 4 April 2013. <http://www.teachingenglish.org.uk/articles/podcasting-elt>.

com/Top/Computers/Internet/ On_the_Web/Podcasts/Directories/; podcasts.yahoo.com/; www.podscope.com/ getapodcast.com/podcast.net/; podcastdirectory.com/ipodder.org/; www.allpodcasts.com/

Podkast texnologiyasi chet tilni o'qitish mashg'ulotlarida yetarli darajada keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositadir. Chet tilni o'qitishning maqsadi – o'z tarkibida nutqiy, lisoniy, ijtimoiy-madaniy, kompensatorlik kompetensiyalarini mujassamlaydigan xorij zabonli muloqot kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun o'quvchilar yetarli darajada motivatsiyaga ega bo'lishlari kerak. Biroq talabalarning aksariyat qismining motivatsiya darajasi past bo'lib. Bunday holatni auditoriya soatlari miqdorining yetarli emasligi, tilni egallashning darajasi pastligi, chet tilda so'zlashish malakasining rivojlanmaganligi, tinglanayotgan nutqni tushunmaslik, chet til sohiblari bilan muloqot qurish tajribasiga ega emaslik va o'rganiladigan til mamlakatlari haqidagi ijtimoiy-madaniy bilimlarning mavjud emasligi kabi sabablar bilan bog'lash mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan muammolarning katta qismini hal qilish va shu orqali talabalarni chet tilni o'rganishga motivatsiya beruvchi internet texnologiyalaridan biri bu podkast texnologiyasidir.

P. V. Sisoyevning ta'rifiga ko'ra, podkast bu umumjahon tarmog'ida ochiq tinglash yoki tomosha qilish uchun mavjud imkoniyatga ega bo'lgan audio yoki videoyozuvdir⁶⁴. Podkast audio va video fayllarni (podkastlarni) istalgan qulay vaqtda ko'rib chiqish va tinglash imkoniyatini beradi. Bunda nafaqat hozirda mavjud bo'lgan podkastlarni ko'rib chiqish, balki yangilarini mustaqil yaratish mumkin bo'ladi. Masalan, har kim monitor ekranidan o'z tasvirini yozib olish imkoniyati orqali nutq kompetensiyasini rivojlantira oladi: shaxsiy podkastlarni yaratish va ularni internet tarmog'ida joylashtirish; foydalanuvchining shaxsiy hududida podkastga tarmoqli xizmat ko'rsatishni tashkillash; foydalanuvchining shaxsiy hududini yaratish va uni moderatsiyalashtirish; foydalanuvchilar izohlarga o'zgartirishlar kiritish imkoniga ega bo'lmaganlarida izohlarni muayyan vaqt o'zgartirish davomiyligi asosida joylashtirish; barcha ro'yxatga olingan foydalanuvchilarga tomosha qilish uchun podkastning ochiqligi kabi xususiyatlarining afzalligini ta'kidlash lozim⁶⁵. Chet tilni o'qitish jarayonida podkastlardan foydalanish: tinglab tushunish ko'nikmalari hamda unga bog'liq ravishda tushunish mahoratini shakllantirish, tinglash, talaffuz qilish ko'nikmalarini mukammallashtirish,

⁶⁴ Сысоев Р. В. Информационные и коммуникационные технологии в лингвистическом образовании. М., 2015. – С. 183.

⁶⁵ Сысоев Р. В. Современные информационные и коммуникационные технологии: дидактические свойства и функции // Язык и культура. 2012. - № 1. – С. 120– 133.

lug'at boyligini kengaytirish va boyitish, grammatika bo'yicha egallagan ko'nikmalarini taraqqiy ettirish, so'zlashish va yozma nutq mahoratlarini rivojlantirish kabi masalalarni hal qilish imkonini yaratadi⁶⁶.

Podkastlardan foydalanish usullarini ko'rib chiqishda ulardan quyidagilarini ajratish mumkin, bular: 1) faylni yuklanmagan holda onlayn tizimida tinglash; 2) faylni uyali telefonga, planshetga, noutbukka, iPodga va boshqalarga yuklatilgandan keyingi tinglash; 3) Internet tarmog'ida tarqatilishi mumkin bo'lgan shaxsiy podkastlarni yaratish⁶⁷. Shunday qilib, podkast texnologiyasidan nafaqat tinglab tushunish malakalarini, balki nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun ham foydalanilish mumkin. Ba'zi talabalarda nutqni tinglab tushunish va uni idrok etish bo'yicha qiyinchiliklar mavjud.

Tinglab tushunish til o'rganuvchilar uchun nutqiy faoliyatning eng murakkab turlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalar o'z uylarida chet tildagi matnlarni deyarli tinglamasalar, chet til mashug'lotlarida o'qituvchilar har doim ham chet tilda so'zlamaganlarida va shu bilan birga, OTMlarda auditoriya soatlari yildan yilga qisqarib borayotgan vaziyatda masalaning bu jihati yanada dolzarblashmoqda.

Internetda turli mavzularga doir g'oyat ko'p sonli podkastlar mavjud bolib, ulardan auditoriyada va auditoriyadan tashqarida foydalanish mumkin. Podkastlar bilan ishlash tufayli talabalarda nafaqat tinglab tushunish malakalari shakllanadi, balki ularda motivatsiya ahamiyatli darajada oshadi, buning sabablariga: o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarning jalb qilinishi; uyali telefonlar va planshetlar tufayli tinglab tushunish imkoniyati ko'p sonli o'quvchilar uchun ochiq imkoniyatga aylanganligi; podkastni ko'p marotabalab tinglash va mavzuni o'quvchining qiziqishlariga mos ravishda tanlab olish imkoniyatining paydo bo'lishi; vizual ko'maklashuv (matnli fayl yoki video)ning mavjudligi; talabaning yoshiga va mutaxassisligiga qarab podkastlarning mavzularini tanlab olish imkoniyati kiradi⁶⁸.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, o'zlarining o'quv faoliyatlarida podkastlardan samarali foydalanayotgan talabalar an'anaviy topshiriqlarni bajaradigan talabalarga nisbatan ancha yuqori natijalarga erishganlar. I. P. Golovchuk bilan A. K. Maksimovalarning fikriga ko'ra, chet tilni o'qitish jarayoniga podkastlarni kiritish «xorij zabonli madaniyatlararo

⁶⁶ Салин Б. С. Некоторые аспекты использования подкастов в обучении английскому языку // Современные проблемы науки и образования. – М., 2010. № 4. – С. 91– 93.

⁶⁷ Бартош Д. К., Галскова Н. Д., Харламова М. В. Электронные технологии в системе обучения иностранным языкам: теория и практика: Учебное пособие. – М., 2017 – С. 135.

⁶⁸ Лазицкая Е. Д., Колмакова О. А. Методика работы с подкастами при организации внеаудиторной деятельности студентов // Вестник ИРГТУ. 2013. № 9 (80). – С. 285– 288.

muloqot vositasi sifatida tilning eng yuqori darajasiga chiqish imkonini yaratadi, shuningdek, jamoada ishlay olish, o'z kuchiga ishonch kabi shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish ko'nikma va mahoratlarini rivojlantiradi»⁶⁹.

Shunday qilib, o'qituvchi va til o'rganuvchilarning oldida talabalarining ko'nikma va malakalarini mukammallashtirishga ko'maklashuvchi Internet resurslarining ko'plab imkoniyatlari ochiladi. O'qituvchilar o'z talabalari uchun podkastlarni tanlashlarida talabalarining ehtiyojlaridan kelib chiqishi va chet til o'qitishga doir podkastlar tanlovining tamoyillariga tayanishi muhimdir. Podkastlarni tanlashning asosiy tamoyillari quyidagilar⁷⁰:

1. Autentiklik tamoyili

O'qituvchi o'qitish jarayonida til sohiblari yaratgan podkastlardan foydalanadi, shu tufayli talabalar til muhiti bilan yaqin aloqada bo'lib, talaffuz qilishning, nutq ohangining xususiyatlari, shevalarning turli variantlari bilan tanishadilar. Bunda mashhur saytlarni tanlagan ma'qul, o'quv maqsadlari uchun butunjahon miqyosida tan olingan podkastlar saytlarini tanlashning muhimligi shundaki, u yerda ko'plab til sohiblari, uslubchilar va pedagoglar ish olib borayotgan resurslar jamlangan bo'ladi.

2. Podkast mazmunining talabalarining qiziqishlariga muvofiqligi tamoyili O'qituvchi talabalardan ular nimalarga qiziqayotganliklarini, nimalarni bilmoqchi ekanliklarini oldindan aniqlashi zarur. Podkastlarni tanlashda buni inobatga olish zarur. Internet resurslarining ko'pchiligida podkastlar mavzu va toifalar bo'yicha saralangan bo'ladi, bu qidiruvni yengillashtiradi.

3. Ochiqlik va kuchga muvofiqlik tamoyili

O'qituvchi talabalar uchun tinglab tushunishi va idrok qilinishi oson bo'lgan podkastlarni tanlashi lozim. Bu podkastlarning mavzu, leksik –grammatik tarkibiga, unga kirish texnik jihatdan oson bo'lishiga taalluqlidir. Podkast davomiyligi tilni o'zlashtirishning boshlang'ich darajalari uchun 4 daqiqadan va yuqori darajalar uchun 9 daqiqadan ortmasligi kerak. Bu tamoyilda me'yorni saqlay bilish muhim. Podkast mazmuni o'quvchi uchun o'ta oson ham va o'ta murakkab ham bo'lmasligi zarur. O'ta oson masg'ulotlardan o'quvchi zerikib qoladi va deyarli yangi bilim o'zlashtirmaydi, o'ta qiyin bo'lganda ishtioqi pasayadi.

⁶⁹ Головчук И. П., Максимова А. К. Использование подкастов на занятиях по практическому курсу немецкого языка // Поволжский педагогический вестник. 2013. № 1. – С. 143– 146.

⁷⁰ Борщева О. В. Педагогика и психология образования. Принципы отбора подкастов для обучения иностранному языку. 2019. № 3 – С. 62-70

4. Dolzarblilik va yangilik tamoyili

Podkastlarni tanlashda yangi tajribaning shakllanishi, dolzarb bilimlar va axborotlar bilan boyitish maqsadini ko'zlaydigan podkastlarni tanlash lozim. Internet resurslarining ko'pchiligi turmushimizning har xil, ya'ni madaniyat, texnologiyalar, salomatlik, siyosat, san'at va boshqa sohalarini yorituvchi podkastlarni mujassamlashtiradi. O'quvchilar nafaqat tinglab tushunish malakalarini mukammallashtiradilar, balki o'z dunyoqarashlarini kengaytirib, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar.

5. Podcast mazmuni talabanning chet tilni egallash darajasiga muvofiqligi tamoyili Dastlab turli test topshiriqlari orqali talabalarining chet tilni egallashlarining darajasini to'g'ri aniqlab olish muhimdir. Internet resurslarining ko'pchiligidagi podkastlar tilni egallash darajasiga muvofiq toifalarga bo'lib ajratilgan. (Odatda, bu "boshlang'ich", "o'rta" va "yuqori" darajalarga ajratiladi). Shu darajaga bog'liq holda, podkastlar davomiyligi bo'yicha variantlarga bo'linadi ("boshlang'ich" daraja uchun ikki daqiqadan, "yuqori" daraja uchun to'qqiz daqiqagacha), so'zlash tezligiga qarab ajratiladi, shuningdek, leksik-grammatik mazmuni bo'yicha ham farqlanadi.

6. Ijtimoiy-madaniy yo'naltirilganlik tamoyili

Podkast bilan ish olib borish xorijiy mamlakatlarning madaniyati, ya'ni axloq me'yorlari, o'zligi, tarixi, an'analari to'g'risidagi bilimlarga zid kelmasligi, ularning yanada mustahkamlanishiga ko'maklashishi darkor. Chet til o'qitishning ijtimoiy-madaniy tarkibiy qismi hozirgi kunda ustuvor ahamiyatga ega, chunki ko'p madaniyatlilik shaxsning rivojlanishiga ko'maklashadi, natijada talaba o'zga madaniyat vakillari bilan muloqot o'rnatishga qodir bo'ladi.

7. Faol hayotiy yo'lni shakllantirish tamoyili

Podkastlar mavzularining hal qilinishi har bir kishiga bog'liq muammolarni qamrab oladi; bu mavzular talabalarni ma'lum muammoning hal qilinishiga o'z hissasini qo'shish masalasida o'ylashga majbur qiladi; shu bilan birga, ular talabalar uchun ibrat bo'la oladigan kishilarning faol hayotiy yo'llari misollarini yoritadi.

8. Shaxsiy yo'nalish tamoyili

Talabanning emotsional-hissiy holatini inobatga olish muhim, o'qituvchi talabalar uchun o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, afzal ko'rgan narsalarni ifodalash imkonini beradigan mashqlar va topshiriqlarni tanlashi lozim.

9. Kognitiv qiymat tamoyili

Chet tilni o'qitish umuman o'qitish kabi rivojlantirish yo'sini alohida ahamiyatga ega. Podkastlarning mavzulari o'quvchilarning dunyoqarashini, ularning fikrlashini va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishi kerak.

10. Jalb qilinish va motivatsiya tamoyili

O'qituvchi tomonidan talabalarining ijobiy ehtiyojli – motivatsion holatlar rivojlanishining ta'minlanishi, ularda qaysi motivlar ustuvor ekanligini aniqlash, o'quvchilarda tinglab tushunish malakalarini rivojlantirishdagi aqliy ehtiyojni shakllantirish va rag'batlantirish muhim.

Podkastlarni tanlashning yuqorida ko'rsatilgan tamoyillariga tayanib, eng foydali internet resurslariga murojaat qilish kerak bo'ladi, u yerda chet tilni o'qitish bo'yicha autentik podkastlarni topish mumkin:

1. TED: Tarqatilishi lozim bo'lgan g'oyalar (<https://www.ted.com/talks>).

Bu dunyodagi eng ommabop saytlardan biri. Mazkur resursda o'rta va mukammal darajada chet tilni egallagan talabalar uchun podkastlar mavjud. Podkastlar toifalarga bo'lingan. Bu saytda ham audio, ham videopodkastlar joylangan, ularning ko'pchiligi skriptlarga ham ega. Ushbu resursning yana bir xususiyati muhokama qilinayotgan mavzular yetarli darajada chuqur tahlil qilingan.

2. Bi-bi-si podkastlari (<http://www.bbc.co.uk/podcasts>) Saytda turli mavzularga, ya'ni yangiliklar, musiqa, tarix, sport, fan va boshqa mavzularga oid podkastlar kiritilgan. Qiziqtirayotgan mavzuni topish uchun kerakli so'zni qidiruvga berish lozim. Podkastlarning ko'pchiligi chet tilni Intermediate (o'rta), Upper Intermediate (yuqori o'rta) yoki Advanced (mukammal) darajalarida egallaganlar uchun mo'ljallangan. Podkastlarning davomiyligi – 10 daqiqadan 40 daqiqagacha.

3. Olti daqiqali Bi-bi-si podkasti

(<http://www.bbc.co.uk/learningenglish/russian/features/6-minute-english>).

Bu o'qituvchilarning va chet tilini o'rganuvchilarning ko'pchiligi uchun ommabop resursdir. Ushbu saytning xususiyatlari: 1) podkastlar davomiyligi 6 daqiqa; 2) har xil yoshlardagi o'quvchilarning qiziqishlariga mo'ljallangan mavzularning katta bazasi; 3) podkastlar ikki boshlovchining suhbatidan iborat; bu yerda dasturning boshlanishida bir boshlovchi savol berib, o'z savoli bilan tinglovchilarni qiziqtiradi va dasturning oxirida boshlovchilar javobni ochib beradilar; 4) boshlovchilar tinglovchilarga yangi lug'atni tushuntiradilar; 5) har bir podkast uchun skript bor; 6) podkastlar Intermediate (o'rta) darajasida ingliz tilini egallagan talabalar uchun to'g'ri keladi; 7) audiopodkastni ko'chirib olish imkoniyati mavjud. Ingliz tilini o'rganuvchilar uchun Britaniya Kengashi sayti (<http://learnenglish.britishcouncil.org/listening>).

Yuqorida ko'rsatilgan saytlarning afzalliklari: 1) podkastlar ingliz tilini egallashning beshta darajasiga muvofiq toifalarga bo'lingan; 2) skriptlar

mavjud; 3) tinglashdan oldingi tayyorgarlik mashqlari va tinglashdan keyingi topshiriqlar, ular avtomatik tarzda tekshiriladi; 4) aniq, talaffuzi cho'zilgan nutq ko'rinishida. Bu chet tilni o'rganishni boshlaganlar uchun ayniqsa muhimdir.

Ingliz tilini o'rganayotganlar uchun (<https://learningenglish.voanews.com/>) Mazkur internet-resursda ingliz tilini egallashning uch, ya'ni boshlang'ich, o'rta va mukammal darajalari uchun podkastlarni topish mumkin. Bu yerda ham audio, ham video podkastlar mavjud. Ularning barchasi skriptlar bilan mustahkamlangan, bu esa tushunishni osonlashtiradi va talabaga notanish so'zlarni lug'atga yozib olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ushbu resursda o'rgatuvchi ("Ingliz tili bir daqiqada", "Ingliz tili filmlarda", "Yangi lug'at", "Har kunlik grammatika") video podkastlarni topish mumkin. Video podkastlardan uyda bajarish uchun beriladigan topshiriq tariqasida foydalanish mumkin, ular davomiylilik bo'yicha qisqa va qiziqarli bo'lib, internetning barcha foydalanuvchilari uchun ochiq ekanligi bilan ahamiyatli.

Endi podkastlar bilan ishlash algoritmini ko'rib chiqamiz. Uning maqbul sxemasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) podkastning boshlang'ich tinglanishi;
- 2) podkastning tinglanishiga parallel tarzda podkast skriptini o'qish;
- 3) podkast skriptini o'qish (agar buning zaruriyati mavjud bo'lsa);
- 4) yangi lug'at bilan ishlash;
- 5) podkastni skriptsiz tinglash.

Matnning murakkabligiga va talabalarning tilni egallash darajasiga qarab, bosqichlardan istalgani zaruriyat tufayli takrorlanishi mumkin. Talabalarning podkastni tushunish darajasini tekshirish uchun o'qituvchi quyidagi topshiriqlarni qo'llashi mumkin. Bularga savollarga javob berish, juftliklarda va guruhlarda ishlash uchun eshutilgan ma'lumot muhokamasi, taqdimotlarni yaratish kabi tafsilotlar kiradi. Shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni va muloqot o'rnatish kompetensiyasini o'xshash mavzular bo'yicha shaxsiy podkastlarning yaratilishi orqali rivojlantirish kiradi. Podkastlarni tanlashda tavsiflangan tamoyillardan foydalanish o'qituvchining ishini yengillashtirishi, ya'ni podkast texnologiyasidan chet tilni o'qitish jarayonida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish va kognitiv maqsadlariga erishishda ham samarali foydalanish mumkin.

A.G. Salomatina o'z tarkibida audio va videomateriallarini mujassamlagan hamda o'quv dasturining mavzuli rejasiga muvofiq bo'lgan

ta'limiy podkastlarga alohida e'tibor qaratadi⁷¹. Xorijiy tilda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish maqsadida yaratilgan podkastlarning asosiy xususiyatlari bu o'z podkastlarini yaratish va ularni saytga joylashtirish; yaratilgan podkastlar asosida ularni tarmoqli shaklda muhokama qilish; podkast yaratuvchisi tomonidan ularni ishlab chiqish va tahrir qilish; foydalanuvchilar o'z izohlarini joylashtirish imkoniga ega bo'lishlarida ko'zga tashlanadi. Podkastlarning yaratilishi va nashr etilishi quyidagi xizmatlar yordamida amalga oshirilishi mumkin: www.podomatic.com, www.bbc.co.uk. Bu juda muhim jihat bo'lib, ayniqsa o'zbek xalqi vakillari uchun mo'ljallangan mashg'ulotlarda o'qituvchi mavzular muhokamasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu sahifalardagi masalalarning ko'pchiligi chet elliklar nigohida baholangani bilan izohlanadi. Masalan, o'zbek xalqida nonni yoki mehmonni ulug'lash bilan bog'liq qadriyatlar sahifalarda butunlay noto'g'ri izohlangan bo'lishi mumkin. Bunday o'rinlarda podkastlarni qayta muhokama qilish zarur.

Podkastlarning yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiya shakllanishida ularning didaktik xususiyatlarini va metodik funksiyalarini aniqlash muhim.

Podkastlarning didaktik xususiyatlari va metodik vazifalari o'quvchilarda quyidagi nutqiy mahoratlarning shakllanishiga ko'maklashadi. Bular: tinglash mahorati: aytilgan iboraning mazmunini tushunish; muloqot qatnashchilarini aniqlash; asosiy axborotni ikkinchi darajali axborotdan ajrata bilish; so'zlash mahorati: o'z fikrini ifodalash; audiobildirishning umumiy mazmunini uzata bilish; xulosalar chiqarish; xat yozish mahorati: o'z fikrini yozma shaklda ifodalash; gaplarni to'g'ri tuza bilish; o'z nuqtayi nazarini isbotlay olish; leksik birliklardan to'g'ri foydalanish.

Chet tilni o'qitishda yangi axborot vositalaridan muntazam foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Podkastlar vositasida chet tilni o'qitish metodikasini ishlab chiqishda inobatga olinishi kerak bo'lgan podkastlar xizmatining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari (P. V. Sisoyev, M. N. Yevstigneyev va A. G. Solomatina⁷² ishlarining umumlashtirilishi asosida) jadvalda keltirilgan (1- ilovaga qarang).

⁷¹ Саломатина А. Г. Методика развития умений говорения и аудирования учащихся посредством учебных подкастов: английский язык базовый уровень: Дисс. канд. пед. наук. – М., 2011. – Р. 130.

⁷² Соломатина А. Г. Развитие умений договорения и аудирования учащихся посредством учебных подкастов//Язык и культура. – М., 2011. – №2. – С. 130– 134.

1-Ilova

P. V. Sısoyev, M. N. Yevstigneyev va A. G. Solomatinalarning chet tilni o'qitishda podkastlar xizmatining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari

Podkastlarning didaktik xususiyatlari	Chet tilni o'qitishda podkastlarning metodik funksiyalari
Internetda podkast xizmatidan foydalanuvchilarning shaxsiy podkastlarini joylashtirish imkoniyati.	O'quv podkastlarni o'quvchi/talabalar chet tilda yaratadilar. Podkastlarning fan sifatidagi mazmunini o'quv dasturining mavzuli tarkibi va chet til tayyorgarligi yo'nalishlari bo'yicha umumiy o'rta ta'lim yoki Oliy ta'lim DTS standarti bilan belgilanadi. Podkastning davomiyligi, yozish toifasi va formatini o'qituvchi belgilaydi. O'quvchilar o'quv podkastlarini yaratishlari va ularni www.podomatic.com podkastlar serverida joylashtirishlari mumkin. Podkast materialini tayyorlashda va uni yozib olishda o'quvchi/talabalar nutqiy faoliyatning barcha turlarini, ayniqsa og'zaki nutqni rivojlantirishlari mumkin.
Podkastlar xizmatidan foydalanuvchining o'z shaxsiy xududini yaratish imkoniyati. Shaxsiy hudud podkastning tarmoqli muhokamasini tashkillash uchun zarur.	Har bir o'quvchi/talaba podkastlar serverida shaxsiy xududni – shaxsiy varaqchani yaratadi, unda u yaratilgan podkastni joylashtiradi va o'sha yerda podkastning tarmoqli muhokamasi tashkillanishi mumkin bo'ladi. Boshqa o'quvchi/talabalar ma'lum o'quvchi/talabaning podkastini ko'rib bo'lganlaridan so'ng mikroblogdagi podkastlarning tarmoqli muhokamasida ishtirok etishlari mumkin. Foydalanuvchining shaxsiy varaqchasida shaxsiy axborotning joylashti-rilishi (o'qish, xat ko'rinishida) chet tilida amalga oshiriladi.
Podkastlarni foydalanuvchining shaxsiy hududida mikroblogda tarmoqli muhokamasini tashkillash imkoniyati.	O'quvchi/talabalar o'z guruhdoshlarini chet tilda yozib olingan podkastlarini tinglaydilar (tinglash funksiyasi). Mikroblog funksiyasidan foydalangan o'qituvchi o'quvchilarning chet tilda yozilgan podkastlarini guruhli tarmoqli muhokamasini (xat, o'qishni) har bir o'quvchi/talabaning shaxsiy varaqchasida bevosita tashkillashi mumkin. O'quv vazifaga bog'liq holda, har bir podkastni tinglab, ular mikroblog xududida bittadan bir nechtagacha izohlarni joylashtirishlari mumkin. Muhokama chet tilda o'tadi. Ular izohlarda: 1) muhokama qilinayotgan masalaga doir fikr bildirishlari; 2) podkast muallifining fikriga qo'shilishlari yoki norozi bo'lishlari; 3) podkast mazmunidagi ijobiy yoki salbiy tomonlarini ajratib ko'rsatishlari; 4) podkastning lisoniy tomonlariga (lisoniy aniqligida, foydalaniladigan faol leksikada va shunga o'xshashlarda) to'xtalishlari mumkin.
	O'qituvchi har bir podkast muallifining shaxsiy varaqchasida izohlarni joylashtirish algoritmini belgilaydi.
Foydalanuvchining shaxsiy hududini yaratishni va uning	Har bir o'quvchi/talaba, ya'ni podkast muallifi podkastlar serveridagi o'z shaxsiy xududining ya'ni shaxsiy varaqchasining moderatoridir. U o'z podkastini serverda

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

moderatsiyasini podkastlarning mualliflari amalga oshiradilar.	joylashtiradi, o'z varag'idagi xarflar rangini, shriftini, o'lchamini tanlaydi, mikroblogda joylashgan axborotlarni chiqarib tashlashi yoki ularga munosabat bildirishi, shaxsiy axborot, o'z fotosuratlarini va shunga o'xshashlarni qo'shishi mumkin. Barcha shaxsiy ma'lumotlar chet tilida ko'rsatilishi mumkin.
Podkastlarning tarmoqli muhokamasini tashkillashda izohlarni joylashtirish vaqt tadrijiyligi tartibida amalga oshiriladi. Foydalanuvchilar joylashtirilgan izohlarga o'zgarishlarni kiritishlari mumkin emas.	Bir necha foydalanuvchilarning kontent ustida bir vaqtda ishlashiga imkon beruvchi viki-texnologiyadan farqli o'laroq, podkastlar xizmati podkastlarning yaratilishida va ularni joylashtirishda yakka tartibda ishini tashkil qilish imkonini beradi. O'quvchilarning guruhli ishlashi ularning podkastlarini tarmoqli muhokamasini tashkil qilishda bo'lishi mumkin, bunda har bir o'quvchi/talaba bir necha guruhdoshlarining shaxsiy varaqchalariga kirib, mikroblogda izohlarni joylashtirishi kerak bo'ladi. Biroq, bu izohlar shaxsiy (balki jamoaviy emas) mualliflikka ega bo'ladi. Muhokama chet tilida o'tkaziladi.
Barcha ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar uchun podkastni ko'rib chiqish imkoniyatining ochiqligi.	Podkast serverlari har bir Internet foydalanuvchisi uchun ochiq. Joylashtirilgan podkastlarga kirish imkoniyati ro'yxatdan o'tgan barcha podkast xizmatidan foydalanuvchilar uchun ochiq. Bu o'quvchi/talabalarning o'quv podkastlarini jahonning istalgan joyidagi boshqa foydalanuvchilar ko'rib chiqishlari mumkin ekanligini bildiradi. Shu munosabat bilan xizmat tarmoqda joylashtirilgan podkastlarga va tarmoqli muhokama hududiga yopiq kirish xizmatlarini ko'rsatadi. Bir xil paroldan foydalangan holda o'quvchilar o'z guruhdoshlarining shaxsiy varaqchalariga kirish imkoniga ega bo'ladilar.

P. V. Sisoyevning⁷³ fikriga ko'ra o'quvchi va talabalar, shuningdek, til o'rganuvchilar uchun biron bir davlat, uning tarixi, madaniyati haqida ma'lumot eshitish uchun o'quvchi/talabalar tomonidan yaratigan materiallar mavjud bo'lib, ular alohida ahamiyatga egadir. Podkastlar vositasida nutqiy kompetensiyani va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning algoritmlari jadvalda taqdim etilgan. Unda podkastlar bilan ishlashning har bir bosqichida o'qituvchi va talabalarning vazifalari batafsil ko'rsatilgan (4 -ilovaga qarang).

⁷³ Сысоев П. В., Евстигнеев М. Н. Методика обучения иностранному языку с использованием новых информационно-коммуникационных Интернет-технологий: учеб. – метод. пособие. М: Глосса-Пресс; Ростов/Д: Феникс, 2010. – С. 189.

2-Ilova. Podkastlar vositasida o'quvchilarning so'zlash va tinglab tushunish mahoratlarini rivojlantirish algoritmi⁷⁴

I. YO'L-YO'RIQ KO'RSATISH BOSQICHI	
1-vazifa. Ishning yo'l-yo'riqlari va rejalashtirilishi. O'qituvchi o'quvchilarga ushbu podkastning maqsadi va vazifalarini tushuntiradi, ularni o'quvchi/talabalar podkastlarining joylashtirilishi va ularning tarmoqli o'zaro xarakatlanishi sodir bo'ladigan podkastlar xizmatining platformasi bilan, o'quvchi/ talabalarni o'quv faoliyatidagi ishtirokini baholashning mezonlari bilan tanishtiradi.	
O'qituvchi	O'quvchi/ talabalar
O'quvchi/talabalarga ularning o'quv faoliyatining mazmunini tushuntiradi.	Tashkiliy savollarni beradilar.
O'quvchi/talabalarni baholash va o'z-o'zini baholash shkalalari bilan tanishtiradi.	
O'quvchi/talabalarni xarakatlar algoritmi bilan tanishtiradi.	
2-vazifa. Podkastlar xizmatida podkastlarni joylashtirish qoidalari va internet-munozarani tashkillanishi uchun izohlarni joylashtirish qoidalari bilan tanishish	
O'qituvchi	O'quvchi/talabalar
O'quvchi/talabalarga podkastlar xizmatining internetdagi manzilgohini (www.podomatic.com) beradi hamda ushbu platforma orqali talabalar gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini borligini tushuntiradi.	Internetdagi podkastlar xizmatining manzilgohi (www.podomatic.com)ga kirib, unda gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega ekanliklarini tushunadilar.
O'quvchi/talabalarni ro'yxatga oladi.	O'quvchi/talabalar ro'yxatdan o'tadilar.
O'quvchi/talabalarga podkastlarni (www.podomatic.com) xizmatida joylashtirish qoidalari tushuntiradi.	Audio-yoki videofayllarning (www.podomatic.com) saytida joylashtirish qoidalari bilan tanishadilar.
O'quvchi/talabalarga mikroblogdagi podkastga izohlarni joylashtirish qoidalari tushuntiradi.	Mikroblogdagi podkastga izohlarni joylashtirish qoidalari bilan tanishadilar.
3-vazifa. Talabalar uchun ma'lum mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan podkastlar varag'ini yaratish. www.podomatic.com ijtimoiy xizmatidan foydalanib o'qituvchi o'z o'quvchi/talabalarining guruhi uchun alohida varaqni yaratishi mumkin. O'sha varaqda topshiriqning yoki loyihaning ta'rifi beriladi, shu orqali barcha saytga kiruvchilar uchun joylashtirilgan podkastlar nimaga bag'ishlanganligi (mavzu) va ularni kim yaratganligi (o'quvchi/talabalar) uchun tushunarli bo'ladi. O'qituvchi o'zi 1-2 daqiqali chet tilida bitta podkastni yaratishi, topshiriq mazmunini tushuntirishi va loyiha ishtirokchilari bilan tanishtirishi tavsiya etiladi.	
O'qituvchi	O'quvchi/talabalar
Podkastlar xizmati saytida bitta podkastni yaratib joylashtiradi.	Podkast bilan tanishib chiqadilar, tinglaydilar, savollarni beradilar, masqlar bajaradilar.
O'quvchi/talabalarning o'z podkastlarini	

⁷⁴ Сысоев П. В. Подкасты в обучении иностранному языку. Кафедра языкознания и дидактики ФГБУ им. Г. Р. Тамбовский государственный университет имени Державина; Кафедра иностранных языков Московского государственного гуманитарного учреждения имени М. А. Шолохова Университет (Тамбов; Москва, Российская Федерация) – 196 с.

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

yaratadigan mavzuni belgilaydi.	
O'quvchi/talabalar podkastlarining hajmini belgilaydi.	
O'quvchi/talabalarga bir-birlarining podkastlarini muhokamasi bo'yicha ularning tarmoqli o'zaro xamkorligi qayerda va qanday sodir bo'lishini tushuntiradi.	
4-vazifa. Podkastlarning (auditoriyada) yaratilishida o'quvchilarning axborot xavfsizligini ta'minlash masalalarining muhokamasi. O'qituvchi o'quvchi/talabalarga internetda axborot xavfsizligiga rioya qilish qoidalarini tushuntiradi.	
O'qituvchi	O'quvchi/talabalar
O'quvchi/talabalarga internetda axborot xavfsizligiga rioya qilish qoidalarini tushuntiradi.	Podkast matnini yaratadilar.
II. PROESSUAL (JARAYON) BOSQICH	
5-vazifa. O'quvchi/talabalar tomonidan podkast mavzusini tanlash va uning matnini yaratish. O'quvchi/talabalarga podkast matnini tayyorlash taklif etiladi. Ushbu bosqich boshida har bir o'quvchi/talaba o'zini tanishtirishi, necha yoshda ekanligini aytishi, turar joyini va o'qish joyini ko'rsatishi mumkin. Keyin podkast tanlangan mavzuga bag'ishlanishi mumkin. Mazkur vazifani bajarishda o'quvchi/talabalar, shuningdek, yozma nutq mahoratlarini ham rivojlantiradilar - ya'ni maqsadga qarab ta'riflovchi, isbotlovchi, taqqoslovchi yo'sinlardagi matnlarni yaratadilar. O'qituvchi o'quvchi/talabalarga grammatik, leksik jihatdan to'g'ri matnni tayyorlashlariga yordamlashishi zarur, bu matn keyinchalik yozib olinishi va keyingi muhokama uchun podkastlar xizmatida joylashtirilishi mumkin.	
O'qituvchi	O'quvchi
O'quvchi/talabalar mustaqil faoliyatining monitoring nazoratini amalga oshiradi	Podkast matnini yaratadilar
O'quvchi/talabalarining podkast matnlarini tekshirib to'g'rilaydi	
6 -vazifa. Podkastni yozib olish. www. podomatic. com xizmatida ochiq bo'lgan tarmoqli dasturiy ta'minotdan foydalanib, o'quvchilar o'z chiqishlarini yozib olishlari mumkin. Tarmoqli dasturiy ta'minot talaba/o'quvchining o'z chiqishidan qoniqkuniga qadar zarur bo'lgan holatgacha chiqishni yozib olish imkonini beradi. Faqat shundan so'ng podkast tarmoqda saqlanib qoladi va loyihaning barcha ishtirokchilari uchun ochiq bo'ladi.	
O'qituvchi	O'quvchi
O'quvchi/talabalar o'z podkastlarini Internetda www. podomatic. com xizmatida joylashtirishlarini kuzatadi	O'z podkastlarini yozib olib Internetda www. podomatic. com xizmatida joylashtiradilar
7-vazifa. O'quvchilarning podkastlarini tinglash (tomosha qilish). O'quvchilar yaratgan podkastlarning har biri ularning sinf/guruhdoshlari va o'qituvchi tomonidan auditoriyadan tashqari vaqtda diqqat bilan tinglab olinishi va ko'zdan kechirilishi kerak	
O'qituvchi	O'quvchi
Barcha o'quvchilar o'z guruhdoshlarining podkastlari bilan tanishib olishlarini (ko'zdan kechirishlarini yoki tinglaganligini) nazorat qiladi.	O'z guruhdoshlarining podkastlari bilan tanishib boradilar
8-vazifa. Podkastlarning tarmoqli muhokamasi. Har bir o'quvchi/talabaning podkastining tinglab olinishidan so'ng barcha o'quvchilar podkastlarning tarmoqli muhokamasida ishtirok etish taklif qilanadi. O'quvchilarga faqat bitta yo'l-yo'riq ko'rsatilishi mumkin, ya'ni "podkastni tinglab oling yoki ko'zdan kechiring va mikroblogda podkastning mazmuni yoki	

tarkibiga doir qisqa taqriz-izohlarni joylashtiring” degan topshiriq beriladi.	
O’qituvchi	O’quvchi
o’quvchilar har bir podkastga izohlarni joylashtirishlarini nazorat qiladi	mikroblogda varaqchasida har bir podkastga izohlarni joylashtiradilar
9-vazifa. Podkastlarni sinfda muhokama qilish. Tarmoqli muhokamadan so’ng o’quvchilarga umumiy munozarada qatnashib, yoqib qolgan podkastlarni tahlil qilish taklif qilinadi	
Umumiy guruh ichki muhokamani tashkil qiladi	eng yaxshi podkastlarni muhokama qiladilar
III. BAHOLOVCHI BOSQICH	
10-vazifa. O’z-o’zini baholash (o’quvchilar muxokama qilinayotgan muammoning mohiyatini qay darajada ochishga erishganlarini baholaydilar, loyihani amalga oshirishda o’zlari qanday qiyinchiliklarga va nima uchun duchor bo’lganlarini anglashga urindilar, keyingi gal ishini yaxshilash uchun nimalarni qilish zarurligini ovoz berib yozadilar)	
11-vazifa. O’qituvchi tomonidan baholash (o’qituvchi o’quvchilarning ishini oldindan belgilangan mezonlarga muvofiq baholaydi)	

2.2 § Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasining modeli va metodikasi

Har qanday pedagogik texnologiyani ta’lim jarayoniga tatbiq qilish, avvalambor uning ilmiy-amaliy mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etadi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga turli pedagog va olimlar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan. Bundan pedagogik texnologiya tushunchasining ko’p qirrali ekanligi, pedagogik texnologiya tushunchasiga nafaqat pedagogik hamda psixologik, balki didaktik, ijtimoiy va boshqa nuqtai nazarlardan ham yondashish mumkinligini ko’rsatadi. Ma’lumki, pedagogik texnologiyalar turli olimlar qarashlarida turlicha ifodalangan. M. V. Klarin ta’biricha, pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishish yo’lida foydalaniladigan barcha shaxsiy, uskunali va metodologik vositalarning tizimli yig’indisi va ularning amal qilish tartibi⁷⁵.

Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi asosida samaradorlikka erishish modelini ishlab chiqish chet til darslari va talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni uchun dolzarb hisoblanadi. Chet til ta’limida yuz berayotgan asosiy o’zgarishlar asosan o’qitishga kommunikativ yondashuv va til o’rganuvchilarning ehtiyojlariga (qiziqishlariga) yo’naltirilgan yondashuv, shaxs faoliyatiga yo’naltirilgan yondashuvlarning joriy qilinishi – talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini oshirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Chet til ta’limini

⁷⁵ Klarин М. В. Педагогические технологии. – М: Знание, 2017. – С. 276.

zamonaviy metodlar asosida modellash tirish har bir pedagog faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Ta'lim modelini yaratish – zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir. Axborot vositalarining ingliz tilini o'qitish jarayoniga joriy etilishi bilan talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish, ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish asosida til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otish, til o'rganish intensivligini oshirish uchun ta'lim jarayonida axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modelini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ldi. Biz ishlab chiqqan model talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiya faoliyatini modellash tirish orqali muammoni hal etishga yordam beradi. Ushbu model CEFR malaka talablariga muvofiq yangilangan o'quv dasturi bo'yicha shakllantirilgan.

Pedagogik jarayonda “Belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda yondashuv uslubini yaratiladi. Modelni ishlab chiqish, asosan, tizimli yondashuv uslubini, maqsadlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi. Ta'lim modelini yaratish – zamonaviy ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biridir” deb ta'kidlaydi⁷⁶ H. Omonov.

Ta'lim jarayoniga ma'lum texnologiyani joriy etish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Har bir texnologiyani joriy etishda ma'lum shart-sharoitlar talab etiladi. Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modeli haqida gapirishdan avval, model tushunchasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Model lotincha “modulus” so'zidan olingan bo'lib, o'lchov, me'yor degan ma'noni bildiradi. U biror obyektning obrazi yoki namunasidir. Model turli sxemalar, fizik tuzilmalar, belgilar shakllari va formulalar ko'rinishida yaratilgan namuna bo'lib, o'rganilayotgan obyektga o'xshab, o'zining tuzilmasiga, xossalriga, tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarga ega. Dissertatsiyaning birinchi bobida bayon etilgan axborot vositalaridan foydalanish va o'quv materiallariga qo'yiladigan metodik mezonlar, axborot vositalari orqali ifoda etiluvchi o'quv faoliyat mazmunini modellash tirish, talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda axborot vositalari texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali til o'rgatish jarayonida samaradorlikka erishish yuzasidan olib boriladigan ishlarni tizimli rejalashtirish imkonini beradi.

Til o'rgatish jarayonini yaxlit tizim sifatida o'rganish dolzarb ilmiy

⁷⁶ Omonov H., Xo'jayev N., Madrayeva S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya. 2009. – B. 57.

muammolardan biri bo'lib, uni bartaraf etishda, jarayonning modelini yaratish, ya'ni modellashirish muhim o'rin tutadi. Bizning fikrimizcha, modellashirish avvalombor lingvotexnologiyaning mohiyatini va samaradorlikka erishish yo'llarini o'rganib chiqish talab etiladi. Tavsiya etilayotgan yakuniy model kuzatish jarayonida paydo bo'lgan fikr va mulohazalar bilan boyitiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, modellashirish tanlangan jarayon haqidagi bilimlarni birlashtiruvchi turli bosqichlarida yakuniy tavsiya etiladigan model ko'rinishida tasavvur qilishga imkon beradi. Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modelini yaratishdan avval, modelning maqsadini belgilab olish, uning qo'llanilish sohalarini aniqlash maqsadga muvofiq. Bu jarayon modellashirishning boshlanishi hisoblanadi. Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modelini yaratishdan kutilayotgan natijalar modelning maqsadidan kelib chiqadi. Modellashirishda ta'lim mazmunini ham, o'quv faoliyatini ham modellashirish lozim. Har bir pedagogik tadqiqot ishida modelning amaliy ahamiyati uni shakllantirish bosqichlari, tamoyillari to'g'ri hisobga olinganligi yordamida aniqlanadi. Modelning ko'rgazmalilik, tushunarliklik, yangililik, dolzarblilik hamda obyektivligi uning imkoniyatlari va turlari bilan birga pedagogik tadqiqotning vazifalarini ham aniqlashga xizmat qiladi. Pedagogik modellashirish o'quv jarayoniga olib kirilishi rejalashtirilayotgan modelning shakllantirilishidir. Har qanday pedagogik modellashirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlab, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari tanlanadi, so'ngra modellashirish masalasiga o'tiladi. Modelning parametrlari va tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanadi. Tadqiqotda belgilab olingan vazifalarni yechishda modelning yaroqliligi o'rganiladi. Tavsiya etilayotgan model tajriba-sinovdan o'tkaziladi. Erishilgan natijalar tahlil qilinadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanadi va ularni bartaraf etish shart-sharoitlari aniqlanadi.

Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modeli deganda, ingliz tilini o'rgatish jarayonida samaradorlikka, intensivlikka erishishga xizmat qiluvchi, motivatsion o'quv jarayonini tashkil etish uchun zaruriy bo'lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiluvchi didaktik imkoniyatlarni o'zida aks ettiruvchi modelni tushunamiz. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari asosida, biz pedagogik modellashirishning quyidagi komponentlarini aniqladik: aniq yo'naltirilgan maqsad, o'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan axborot vositalari turlari va yaratilgan metodlar, dars jarayoniga axborot vositalarini joriy

qilish, kutilayotgan natija va talabalarning axborot vositalaridan foydalanish faoliyatini baholashga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish. Biz tomonimizdan taklif etilgan model, oldindan belgilangan maqsad va unga erishish usullari, vositalariga ega. Nutqiy kompetensiyani takomillashtirishda samaradorlikka erishish uchun tavsiya etilgan axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modeli ta'lim maqsadining aniq yo'naltirilganligi, o'quv faoliyati mazmunini tanlash, axborot vositalaridan foydalanish jarayonini tashkil etish va natijalardan iborat bo'lib, o'z ichiga o'zaro bog'liq bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi qismlarni qamrab olgan. Uning tarkibidagi har bir qism o'zining ahamiyatiga ega. Ular bir-biridan ajragan holda belgilangan maqsadga erishish mumkin emas. Har bir tarkibiy qism o'zining tavsifiga ega bo'lib, ular modelning umumiy xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Nutqiy kompetensiyani takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modeli tuzilishli sxemasi asosida nutqiy kompetensiyani takomillashtirish jarayonida axborot vositalaridan foydalanishni o'z ichiga qamrab oladi. Hozirgi vaqtga qadar talabalarning chet til kompetensiyalarini takomillashtirishga mo'ljallangan turli modellar taklif etilgan. Xususan, "Chet tilida og'zaki nutqni o'sishiga ta'sir etuvchi omillar – Robert Gardner modeli", "Chet tilida gapirish ko'nikmasini shakllanish jarayoni – Levelt modeli"⁷⁷ kabi modellar til o'rganish jarayonining o'ziga xos jihatlarini qamrab olishga harakat qilgan. Levelt modelida til xotirasi, grammatik kodlash, fonologik kodlash haqida ma'lumot keltiriladi. O. Xasanovanning "Nemis tilini o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanish texnologiyasi" doktorlik dissertatsiyasida "Nemis tilini o'rgatishda xotira texnikalaridan foydalanish orqali samaradorlikka erishish modeli"⁷⁸ da nemis tilini o'rgatishda xotira texnikalaridan foydalanish modelida xotira texnikalari asosida bilish faoliyatini rivojlantirish (sensorli xotira, qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira haqida tushuncha uyg'otish tushunchalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xotira texnikalaridan foydalanishda ma'lumotlarning uzoq muddatli xotiraga o'tish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Lekin, bu modellarda talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish haqida ma'lumot berilmagan. Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish

⁷⁷ Ruiter J. de. Figure 1. The Sketch Model for gesture and speech production De Ruiter, 2000, – 298 p. Reprinted from "The Production of Gesture and Speech" (p. 298), 2000, in Language and Gesture (pp. 284– 311); McNeill D. (Ed.). – Cambridge, United Kingdom: Cambridge University Press. Copyright © 2000 Cambridge University Press. Reprinted with permission.

⁷⁸ Xasanova O. Nemis tilini o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanish texnologiyasi: Ped. fan. fal. dok. diss. – Farg'ona 2021. – B. 73.

texnologiyasi modeli dunyo va o'zbek tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilmagan. Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish natijasida talabalarning nafaqat nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishga, balki talabalarning mediasavodxonligi oshishiga erishildi, ularning mediasavodxonlik haqidagi bilimlari boyitildi. Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari, mavzuga oid ilmiy manbalarning tahlili, modellash jarayonidagi metodlar hamda axborot vositalaridan foydalanish modelni yaratishga imkon berdi. Taklif etilayotgan model maqsad, o'quv faoliyat jarayoni hamda natija kabi bloklarga bo'lingan.

Modelning maqsadning aniq yo'nalganligi bloki tarkibiga tajriba-sinov ishida belgilab olingan maqsadlar, xususan, talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini axborot vositalari orqali takomillashtirish, samaradorlikka erishish, talabalarda til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otish kabilar kiritildi. O'quv faoliyati mazmunini tanlash, mazmunli-jarayonli blokda dars mashg'ulotida axborot vositalari (elektron gazeta, podkastlar, YouTube videolari) asosida mashg'ulot jarayonini tashkil etish: mavzular bo'yicha mushoxada yuritish, kommunikativ kompetensiya, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish, estetik tarbiya, kognitiv malakani rivojlantirish, dars mashg'ulotlarida topshiriqlarni bajara olish ko'nikmasini shakllantirish tamoyillari, qo'yiladigan metodik talablar, axborot vositalari turlari aks etgan. Natijaviy blok axborot vositalaridan foydalanish orqali talabalarda nutqiy kompetensiyani takomillashtirish, autentik materiallarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirishga erishishni nazarda tutadi. Modelda natijaviy baholash blokida CEFR malaka talablariga ko'ra baholash me'zonlariga asoslangan baholash turlari berilgan.

CEFR baholash mezonlari bo'yicha baholash, test va nazorat:

Fanda talabalar bilim va ko'nikmalarini baholashda asosiy 2 ta tan olingan shakllaridan foydalaniladi: formativ (joriy va oraliq jarayonlarda talaba namoyish etayotgan bilim va ko'nikmalarini baholash) va summativ (talaba fanda erishgan yakuniy natijani baholash). O'quv dasturga alohida xujjat sifatida baholash bo'yicha ko'rsatmalar (ingliz tilida) ishlab chiqilgan. Kafedra a'zolari bilan baholash bo'yicha topshiriqlar rejalashtirish jarayonida keltirilgan ko'rsatmalar, autentik va zamonaviy baholash topshiriqlari namunalari va namunaviy baholash mezonlariga asoslanishlari hamda ushbu namunalardan kelib chiqqan holda o'z talabalarining ehtiyojlari va kasbiy kontekstiga mos keluvchi baholash topshiriqlarini tayyorlashga o'rganishlari ko'zda tutilgan.

Og'zaki nutq	Yozma nutq
Til ko'lam (so'z va gap turlari xilma- xilligi) Aniqlik (xatolardan xoliligi) Ravonlik. Muloqotga kira olishi. Bogliqlik. Muvofiqlik Umumiy ball	Til ko'lam (so'z va gap turlari xilma- xilligi) Aniqlik (xatolardan xoliligi) Bogliqlik. Muvofiqlik. Tasvirlab yoza olish. Dalillar bilan boyitganligi Umumiy ball

Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modeli (2.1-rasmda keltirilgan).

2.3 § Talabalarining chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda elektron gazeta, You Tube video resurslari va podkastlar texnologiyalarini qo'llash

Yuqoridagi olimlarning gazetalar bilan ishlash bo'yicha bergan fikrlari va metodlariga asoslanib, talabalarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda gazetalardan foydalanishning **“4 TO'KT** (to'rt toifadagi o'qish ko'nikmasini takomillashtirish) mashqlari” metodi yaratildi:

1-toifa mashqlari: gazetalarning tarkibini bilish va muayyan janrlardagi matnlar yoki maqolalarning tarkibli-mazmunli tashkillanishini aniqlash uchun mo'ljallangan, shuningdek, maqolani tarkibiy qismlarga ajratish, undagi bosh mavzuni yoki asosiy fikrni topish uchun mashqlar:


1.1- mashq: Sarlavhalar bilan ishlash.

O'qituvchi internetda (British Council) Britaniya Kengashi tomonidan tavsiya etilgan: the Daily Express, The Sun, The Mirror, The Telegraph, The Times/Sunday Times, The Guardian, Daily Mail nomli ingliz tilidagi elektron gazetalarni taqdim etadi. O'qituvchi talabalardan yuqorida berilgan elektron gazetalardan har xil mualliflar tomonidan yaratilgan, lekin bir xil sarlavxaga ega bo'lgan maqolalarni topish va maqolalarni ko'z yugurturub o'qib chiqishlarini so'raydi. O'qituvchi maqolaning muallifi nima uchun bunday sarlavha berganligi va yana qanday sarlavhalarni tavsiya etish mumkinligi haqida muhokama qilishlarini talabalarga topshiriq qilib beradi.

1.2-mashq: Maqolaning kirish, asosiy va xulosa qismlari bilan ishlash.

O'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga ajratadi. O'qituvchi maqolani kirish, asosiy va xulosa qismlarga ajratadi. Ushbu 3 ta qismlarni alohida kartochkalarga joylab ularni aralashtirilgan tartibda har bir guruhga tarqatib beradi. O'qituvchi talabalarga maqolaning kirish, asosiy va xulosa qismlarini topib, to'g'ri tartibda joylashtirishlarini topshiriq qilib beradi.

**TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI**



Talabalarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalaridan foydalanish texnologiyasi modeli

Talabalar kartochkalardagi kirish, asosiy, va xulosa qismlarini o'qib chiqadilar va maqolani qayta tuzadilar.

2-toifa mashqlari: Matn bilan ishlash mashqlari:

2.1-mashq: Matn bilan tanishish uchun o'qish

Talabalar maqolani o'qib chiqadilar va matnning asosiy mazmunini aks ettiruvchi mazkur gaplarning oxirini qo'shib yozadilar. Matnni o'qib chiqib maqola muallifining xulosasiga asos bo'layotgan dalillarni sanaydilar.

2.2-mashq: Sharhlab o'qish (Scanning)

Talabalar maqolani ko'zdan kechirib o'qiydilar va maqolada berilgan maxsus ma'lumotlarni belgilab yozadilar. Ularga maqolaning kirish, asosiy va xulosa qismlarini o'qishlari va sarlavhalarini ko'chirib yozish topshirig'i beriladi.

2.2-mashq: Ko'zdan kechirib o'qish (Skimming)

Talabalar maqolani o'qib chiqadilar. Maqolaning mavzusi va undagi asosiy fikrni aytadilar. Bitta masalaning o'ziga bag'ishlangan bir nechta materiallarning asosiy mazmunini aniqlang, kabi topshiriqlarni bajaradilar.

2.3-mashq: Qidiruvli o'qish (Reading for details)

Talabalar maqolada ma'lum ma'lumotlarni topish uchun qidiruvli o'qish topshirig'ini bajaradilar. Matnda ushbu ma'lumotlarni topish uchun o'sha ma'lumot to'g'risida so'z borayotgan joyni topadilar. Bu o'quvchidan katta e'tibor talab qiladigan mashq bo'lib, bilimlar bilan birga zehnni ham ishga soladi. **3-Toifa mashqlari:** Tushunish darajasini tekshirish bo'yicha mashqlar (reading comprehension exercise):

3.1-mashq: O'qilganlarning talqin qilinishi bilan bog'liq topshiriqlar:

Guruhlarda talabalar maqolani o'qib chiqadilar va muallifning holatga qanday baho berayotganligini aytadilar.

3.2-mashq: Maqolaning asosiy mazmunini tushunish uchun mashq.

O'qituvchi har bir guruhga maqolaning asosiy mazmunini aks ettiruvchi bir juft gapni yozishlarini aytadi. Har bir guruh talabalari maqolaning asosiy mazmuni bo'yicha maqolada keltirilgan ma'lumot va unda muallifning bunga nisbatan munosabatini tahlil qiladilar. Muallifning hodisaga bo'lgan munosabatini aniqlaydilar va maqola muallifining fikr – mulohazasini boshqa maqolalar bilan taqqoslaydilar.

4-toifa mashqlari: Lug'at zaxirasini kengaytirish mashqlari:

4.1-mashq: Lug'at bilan ishlash (Matching activity)

O'qituvchi talabalar maqoladagi barcha lug'atni tushungan yoki tushunmaganligini tekshirish uchun doskaga so'zlar va iboralarni bir ustunga, ushbu so'zlarning izohini esa aralashgan holda boshqa ustunga yozadi. Talabalar so'zlar va iboralarning izohini topadilar. (2. 2-rasmga

qarang):

2.2-rasm “4 TO‘KT (to‘tr toifadagi o‘qish ko‘nikmasini takomillashtirish) mashqlari” metodi dars ishlanmasi

Timing (min)	Stage Name	Procedure		Stage aim	Interaction
5	Lead-in	1.T distributes cards with following names Brilliant, Smarts, Diamonds, The Stars 2. T asks s-s to address to the electronic newspaper.	1.Students will choose cards. 2.Students will address to the electronic newspaper. http://en.wikipedia.org/wiki/Tabloid .	To prepare s-s to get interested in the topic.	T- s
15	Pre-stage	1.T asks s-s to find the same article with different authors for example: “Famous people” in different English newspapers (the Sun, the Daily Mirror, the Daily Telegraph and the Guardian) 2.T cuts up newspaper articles into separate parts and gives out a jumbled text of the article to small groups. Asks students to put the parts of the articles (Introduction, main body, conclusion) back in the right order.	1.S-s will find the same article about “Famous people” in different English newspapers on the given website and write headlines of each article and then analyse and discuss how the authors of different newspapers approach the same headline. 2. S-s in small groups will put the parts of articles in right order. Introduction, main body and conclusion.	Working with electronic newspapers	T-s
40	While-stage	1.T asks s-s to read the article to find and analyse the authors concluding facts and to add their own ideas to conclude the article. 2.Teacher asks s-s to skim the article to find the main idea of the article 3.Teacher asks s-s to scan the article to find the specific information of the article. 4.Teacher asks s-s to read the article again for getting details. 5. T asks s-s to read the article again and write down the sentences which expresses the main idea of the article and discuss the authors attitudes towards the article. T asks to compare the authors’ ideas with other authors.	1.S-s will read the article and find, analyse how many concluding facts gives the author. They will add their own ideas to conclude the article. 2. S-s will skim the article to find the main idea of the article 3. S-s will scan the article to find the specific information of each part of the article. 4. S-s will read the article again for getting details of each paragraph. 5. S-s will read the article again to write the sentences which describes best the article and discuss with their pairs about authors attitudes towards the article. They will compare their authors ideas with other authors.	To practice reading techniques and reading comprehension activities	S-s

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

15	Post-stage	T checks s-s vocabulary comprehension and writes the words in left column and their definitions in right column. T asks them to match the words with definitions. (Matching activity)	S-s will work in pairs, they read the article again to work out which word goes with which definition. They will do matching activity. Appendix	To practice extension activity: vocabulary quiz	S-s
5	Error correction / feedback	T gives feedback on how well s-s were able to complete reading techniques and reading activities (e.g. language they used to persuade each other/make suggestions, if they took turns, any important repeated errors in their language/opportunities for improvement.)	S-s will receive feedback from teacher and try to improve their errors and mistakes.	To provide s-s with feedback and suggestions for improvement.	T-s
	Setting homework	Teacher asks them to record their documentaries as a homework or post them on a class website	S-s will record their documentaries as a homework and post them on a class website		T-s

Mashg'ulotning asosiy YouTube video namoyish bosqichi (While stage)

1-topshiriq. O'qituvchi har bir guruhdan bitta talabani videoni ovozsiz ko'rish uchun taklif etadi. Guruhlardagi qolgan talabalar esa videoga teskari holatda o'tiradilar. O'qituvchi ushbu tanlab olingan talabalarga videoni ovozsiz namoyish etadi, ovozsiz videoni ko'rgan talabalar o'z guruhiga qaytib kelib baland ovoz bilan emas, past ovozda asosiy mazmunni so'zlab beradi, guruhdan bir mas'ul tanlanib, aytilgan gaplarni varaqqa yozib boradi. Shunday tarzda har bir guruhdan navbatma -navbat bittadan guruh a'zolari ovozsiz videoni ko'radi va yugurib borib o'z guruhiga aytib beradi, interfaol topshiriq shu tarzda video namoyish tugamaguncha davom etaveradi. Guruhlar tomonidan yozilgan matnning to'g'ri xuddi video tasvirdagi kabi bo'lishi guruh a'zolariga bog'liq bo'ladi. (Izoh: guruhlarda matnlar 4 xil usulda tuzilishi mumkin va bu har bir guruh a'zosiga bog'liqdir, chunki

Talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda videomateriallarni qo'llash bo'yicha "Smart student" lingvotexnologiyasidan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan. "Smart student" lingvotexnologiyasi metodining qo'llanilish bosqichlari va dars ishlanmasi:

YouTube video namoyishiga tayyorlov bosqichi (Pre stage)

1-topshiriq. O'qituvchi talabalarni 3-4 talabadan iborat kichik guruhlariga ajratish uchun ulardan rangli kartochkalarni tanlashlarini so'raydi. Bu kartochkalarga talabalarni yuqori darajada ruhlantiruvchi nomlar yozilgan bo'ladi. Masalan: "Brilliants", "Smarts", "Diamonds", "The Stars" kabilar. Bu ularda ichki tayyorgarlikni kuchaytirib beradi.

2-topshiriq. Talabalarni video namoyishga tayyorlashga yo'naltirilgan bosqich. Ushbu bosqich talabalarni mavzu bilan tanishtirish, motivatsiya berish, qiziqtirish, mavjud bilimlarni faollashtirish kabi muhim vazifalar va topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Videomaterial mavzusini yoritishda ko'mak beradigan kalit so'zlar yordamida mavzu muhokama qilinadi.

Mashg'ulotning asosiy YouTube video namoyish bosqichi (While stage)

1-topshiriq. O'qituvchi har bir guruhdan bitta talabani videoni ovozsiz ko'rish uchun taklif etadi. Guruhlardagi qolgan talabalar esa videoga testkari holatda o'tiradilar. O'qituvchi ushbu tanlab olingan talabalarga videoni ovozsiz namoyish etadi, ovozsiz videoni ko'rgan talabalar o'z guruhiga qaytib kelib baland ovoz bilan emas, past ovozda asosiy mazmunni so'zlab beradi, guruhdan bir mas'ul tanlanib, aytilgan gaplarni varaqqaga yozib boradi. Shunday tarzda har bir guruhdan navbatma-navbat bittadan guruh a'zolari ovozsiz videoni ko'radi va yugurib borib o'z guruhiga aytib beradi, interfaol topshiriq shu tarzda video namoyish tugamaguncha davom etaveradi. Guruhlar tomonidan yozilgan matnning to'g'ri xuddi video tasvirdagi kabi bo'lishi guruh a'zolariga bog'liq bo'ladi. (Izoh: guruhlarda matnlar 4 xil usulda tuzilishi mumkin va bu har bir guruh a'zosiga bog'liqdir, chunki talabalarining o'rganish uslublari har xil bo'lib, video mazmunini tushunib olish, visual qabil qilish tezligi, eslab qolish qobiliyatlari, so'zlarni qanday talaffuz (aproximatsiyalashgan talaffuz) qilishlariga bog'liq bo'ladi.

2-topshiriq. Ovoqli video namoyish etiladi. O'qituvchi har bir guruhga o'zlari bir biridan eshitib tuzgan matnlarini video tasvir bilan solishtirishlarini aytadi. Talabalar guruhlarda o'zlarining matnlarini video materialning ovozi bilan solishtiradilar va farqlaydilar, o'zlarining yozuvdagi xatolarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Guruhlarda o'zlarining yutuq va kamchiliklarini muhokama qiladilar. Guruhlar yozuv kompetensiyasini baholash mezonlariga asosan bir -birlariga baho beradilar (Collective feedback)

3-topshiriq. "Plants and Gardening" mavzusiga oid (Harry Potter) Professor Sprouts' Greenhouse YouTube videomateriali muayyan qismigacha namoyish etiladi. Talabalar video namoyishi jarayonida yangi so'z va gaplarning real autentik vaziyatda qo'llanilishiga e'tibor qaratadilar.

4-topshiriq. Video namoyish orqali mashqlar beriladi. Ushbu mashqlar yangi so'zlar, leksik birliklarning ishlatilishiga, gaplarning tuzilishi, strukturasi, kontekstda qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi va materiallarni autentik vaziyatda o'rganadilar.

Mashg'ulotning (so'nggi) YouTube video namoyishidan keyingi bosqichi (Post stage)

1-topshiriq. So'nggi bosqichda namoyish etilgan videomaterialni tushunish hamda material asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va topshiriqlar beriladi. Videomaterial subtitrlı namoyish etiladi. Talabalar videoni so'nggi marta tomosha qiladilar va video orqali nutqiy kompetensiyasini takomillashtiradilar.

2-topshiriq. Videomaterialda aytilgan fikrni davom ettirishga yo'naltirilgan topshiriqlar beriladi. Talabalar videomaterial haqida o'z fikrlarini beradilar. (2. 3- rasmga qarang)

Lesson aim: To develop spoken fluency skills Lesson structure: Skills: speaking (pre, while, post) Level: Pre intermediate

Duration: 80 min

Topic: "Greenhouse and gardening" Media: YouTube video

2.3.-rasm "Smart student" metodi qo'llanilgan mashg'ulot dars ishlanmasi

Stage of the lesson	Time	Students activity	Social forms	Learning materials	Media	Teachers activity
Lead-in	5 min	S-s choose cards with group names	Group work	Cards		T distributes cards with following names Brilliant, Smarts, Diamonds, The Stars
Pre- watching	10 min	S-s do brainstorming activity	Group work	whiteboard		T draws the circle on the board and in the middle of the circle writes one word and asks students to brainstorm.
While - watching	40 min	1.S-s will watch the video without sound about "Harry Potter Professors Greenhouse". They come back to their groups to tell what they have seen in the video, others will seat back to video and write what they have heard from their pairs. 2. S-s will watch the video again with sounds , will compare their writing with original video. S-s will analyse their own mistakes and receive collective feedback from each other. 3. S-s will watch the video partially for comprehension. They pay attention to the usage of tenses and words in the real situation.	Group work	Internet	YouTube video	1.T will show the video without sound and instruct them. 2. T will show the video, at this time with sounds and ask s-s to compare their writing with original video. T will ask to analyse s-s mistakes and ask to give feedback to each other. 3.T will show the video partially and concentrate their attention to the usage of tenses and vocabulary in the context, real life situations.

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

Post - watching	20 min	S-s will watch the video last time with subtitles and do some exercises.	pair work	Internet	YouTu be video	T swill show the video with subtitles and asks them to do exercises.
Setting home work	5 min	1.S-s will receive feedback from teacher on how well they were able to complete the writing, reading and listening activities. 2.They will receive their home assignments.				1.T will gives feedback on how well s-s were able to complete the writing, reading and listening activities e.g. language they used to persuade each other/make suggestions, if they took turns, any important repeated errors in their language/opportunities for improvement. 2.T will give s-s home assignment writing essay on topic "Magician"

Talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda axborot vositalari: elektron gazeta, YouTube video resurslari va audio podkastlar bilan ishlash metodikasida P. V. Sisoyev, M. N. Yevstigneyev, A. G. Solomatinalarning podkastlar bilan ishlash metodik tavsiyalariga hamda algoritmgiga tayangan holda talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda podkast texnologiyasi bilan ishlash bo'yicha **“yetti qadam” “7S”** metodi ishlab chiqildi.

1-bosqich. Podkastni eshitish (Listen to Podcast)

Internetda www.podomatic.com podkastlar serverida o'qituvchi tomonidan joylashtirilgan audio podkast talabalarga tinglab tushunish uchun beriladi.

3-bosqich. Podkast (skripti) matnini o'qish va ovoz yozib olish (Read and Record your voice) Talabalar podkast matnini o'qiydilar va o'zlarining podkastlarini yaratishlari uchun o'z ovozlari yozib oladilar.

4-bosqich. Yozib olingan ovozni www.podomatic.com podkastlar serveriga joylashtirish (Upload podcast)

Talabalar o'zlarining ovozlari podkastlar serveriga joylaydilar.

5-bosqich. Podkastlar serveriga joylashtirilgan ovozlarni tinglash va xatolar ustida ishlash (Listen Reflect Review and Self Correction)

Talabalar podkastlar serveriga joylashtirgan ovozlari eshitadilar, xatolar ustida ishlaydilar va o'z xatolarini to'g'rilaydilar.

6-bosqich. Podkast matni bilan ishlash, tinglab tushunishni takomillashtiruvchi mashqlarni bajarish (Practice)

Talabalar podkast matni bilan ishlaydilar va mashqlar bajaradilar.

7-bosqich. Podkast matnini muhokama qilish (Speak and Discussion)
Talabalar guruhlarda podkast bo'yicha og'zaki savol – javob

o‘tkazadilar, guruhlarda muhokama qiladilar va bahs – munozara yuritadilar.

8-bosqich. Baholash (Giving feedback)

Talabalar bir – birlarini baholaydilar. (Collective feedback)

Ko‘rinadiki, podkastlar bilan ishlash har doim bosqichli tarzda kechadi. Shuning uchun ham ular ma’lum darsning o‘quv vositasi sanaladi. Ulardan foydalanish, albatta, oldindan rejalashtirilgan bo‘lishi shart. (2. 4 - rasmga qarang):

Lesson aim: To develop spoken fluency skills by listening audio podcasts
Lesson structure: Skills: speaking, listening (pre, while, post)

Level: Pre intermediate Duration: 80 min

Topic: Listening podcasts Media: Podcasts

2.4-rasm “7 S metodi” qo‘llanilgan mashg‘ulot dars ishlanmasi

Stage of the lesson	Time	Students activity	Social forms	Learning materials	Media	Teachers activity
Pre stage	5min	S-s choose cards with group names	Small group work		cards	T will distribute cards with following names Brilliant, Smarts, Diamonds, The Stars
While stage	15 min	S-s will listen to audio podcast in www. podomatic. com	Small group work	Internet site www. podomatic. com	audio podcasts	Teacher will ask students to listen to audio podcast in www. podomatic. com
While stage	15min	S-s will read the tape script of podcast and record their own voices	Pair work	Internet site www. podomatic. com	audio podcasts	Teacher will ask s-s to read the tape script of podcast and record their voices
While stage	10 min	S-s upload their voices into www. podomatic. com internet site	Individual work	Internet site www. podomatic. com	podcasts	Teacher will ask s-s to upload their voices into www. podomatic. com
While reading	10 min	S-s will reflect and reviewing through listening their uploaded voices and correct their mistakes	Individual work	Internet site www. podomatic. com	podcast	Teacher will ask s-s to reflect and review their voices and work on their mistakes
While stage	10 min	S-s will listen again the podcast and do listening activities of a garden bench	Individual work	Internet site www. podomatic. com	podcast	Teacher will play podcast to listen to and ask them to do exercises according to podcast a garden bench

TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARDAN FOYDALANISH
TEKNOLOGIYASI

While stage	10 min	Classroom is divided into four groups and groups discuss podcast conversation	Small group work	Internet site www.podomatic.com	podcast	Teacher will divide s-s into small groups and gives some minutes to discuss about podcast conversation. Teacher will monitor and answer questions
Setting home work	5 min	S-s will work on www.podomatic.com. podcast platform		Internet site www.podomatic.com		T will give home assignments to listen and analyse their groupmates uploaded podcast and to write their feedback on www.podomatic.com

Xulosa qilib aytganda 1. Talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda gazeta autentik material sifatida birinchi o'rinda turadi. Elektron gazetalar bilan ishlashda shaxs faoliyatiga yonaltirilgan mashqlar metodini ishlab chiqish talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishda va lug'at zaxirasini boyitishda keng imkoniyat yaratadi.

2. Talabalarning og'zaki nutqini takomillashtirishda internet resurslaridan biri bo'lgan YouTube video o'qitish vositasi sifatida darslikka nisbatan yanada samaraliroq vosita bo'lib chet tilni o'qitish va o'rganishni osonlashtiradi.

3. Talabalarning tinglab tushunish kompetensiyasini noan'anaviy usul – audio podkastlar yordamida takomillashtirish ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Podkastlar talabalarning kommunikativ kompetensiyasining shakllanishida katta ahamiyatga ega ekanligi, ularning didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari bir qator olimlar tomonidan aniqlangan va algoritmik tizimda izohlab ko'rsatib berilgan. Chet tilni o'qitishga doir podkastlar tanlovining tamoyillariga tayangan holda podkastlardan foydalanish talabalariga auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtda ta'lim olish va mustaqil ta'lim strategiyalarini yaratishlariga yordam beradi.

5. Podkastlardan darsda foydalanish bo'yicha izlanishlar olib borgan olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda unga milliy- madaniy yondashuvni ham qo'shish mumkin. Globallashtirish sharoitida bu eng muhim shartlardan biriga aylanadi.

III BOB. TALABALARNING CHET TILDA NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA TAJRIBA – SINOV ISHLARI

3.1 § Talabalarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish

Ingliz tilini chet tili sifatida o‘rgatishda talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan autentik material sifatida samarali foydalanish, talabalarning media savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish, unda axborot madaniyatini tarbiyalash, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv-axborot faoliyati bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish – bularning barchasi ta’lim sifatini hamda ingliz tili mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va takomillashtirish izchil va uzviy davomiyligni talab etadi. Shu bois ingliz tilini talabalarga o‘rgatish jarayonida ularning til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini turli usullar yordamida samarali yo‘naltirishimiz talab etiladi. Shuningdek, zamonaviy axborot vositalari yordamida talabalarda o‘rganishning oson usullarini izlab topish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin.

Tadqiqotning tajriba qismi jarayonida mashg‘ulotlarda zamonaviy axborot vositalarini qo‘llash usullari chet tili ta’limining intensivlashishiga, jarayon dinamikasining oshishiga, til o‘rganuvchilarda o‘quv motivatsiyasining rivojlanishiga, talabalarning nutqiy malakalarini takomillashtirishda zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalarining samarali qo‘llanilishi asosida til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid ilmiy manbalar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar o‘rganilib, avval olib borilgan tadqiqotlardagi turli yutuq va kamchiliklar tahlil qilindi. Pedagogik tajriba jarayonida pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma o‘tkazish, pedagogik prognostika va tashxislash, ekspert baholash, tadqiqot natijalarini matematik- statistik qayta ishlash metodlari katta ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotning muhim bosqichi tajriba natijalarini umumlashtirish bo‘ldi. Ingliz tilini o‘rgatishda zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning til o‘rgatish va o‘rganish jarayoni intensivligini oshirishdagi ahamiyati va samaradorligini isbotlash maqsadida tajriba o‘tkazilgan guruhlarda bir necha yil mobaynida kuzatishlar olib borildi.

Dastlab talabalarda o'zlashtirilgan bilimlarni dastur, darsliklardagi hamda o'qituvchi tomonidan berilgan qo'shimcha ma'lumotlarni amaliy qo'llay bilish darajasini belgilab beruvchi mezonlar aniqlab olindi. Til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, mashg'ulotda qaysi axborot vositasi qo'llanilishi, grammatika va so'z boyligini oshirish yo'llari, ularni kommunikativ jarayonga tatbiq etishlari, shuningdek, ma'lumotlarni qabul qilish usullari tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning "Tajriba-sinovni tashkil etish va o'tkazish" deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari bayon etilgan. Pedagogik tajribalarni tahlil qilish va o'tkazish metodikasi bo'yicha quyidagi bosqichlar ajratildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda (2019-2022-yillar) tashkil etildi.

Dastlabki (2019-2020-yillar) tahliliy bosqichda tadqiqot mavzusiga oid yetakchi olimlar, pedagoglarning ilmiy ishlari hamda tadqiqot muammosining nazariy va amaliy holati, o'quv-me'yoriy hujjatlar o'rganildi. Mutaxassislik fanlari dasturida berilgan mavzularni qaysi usullar yordamida o'rganish bo'yicha izlanishlar olib borildi, mutaxassislik yo'nalishlarida tayyorlanayotgan kadrlarning faoliyati yuzasidan kuzatishlar olib borildi, tajribalar, suhbatlar o'tkazildi. Bunda ingliz tilini o'rganish va o'rgatishda, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muammolar mavjudligi aniqlandi hamda tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun kerakli me'yoriy hujjatlar va didaktik materiallar tayyorlandi.

Izlanish bosqichi (2020-2021-yillar). Bu bosqichda mavjud dastur va darsliklar, ilmiy-nazariy, pedagogik, metodik, psixologik adabiyotlar tahlil qilinib, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "Tinglab tushunish, gapirish, yozish, madaniyatlararo muloqot, til ko'nikmalari integratsiyasi" fanlarida talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishga zamonaviy axborot vositalarining ta'siri hamda dars o'tish bo'yicha mavjud ilg'or tajribalar o'rganildi, o'qituvchi va talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi.

Uchinchi bosqich (2021-2022-yillar)

Talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida uchta o'quv muassasi: Andijon davlat chet tillar instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Farg'ona davlat universiteti o'quv jarayoni tanlab olindi. Tajriba guruhida talabalarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish metodikalari ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilgan, zamonaviy axborot vositalariga asoslangan metodik tavsiyalar asosida hamda elektron resurslardan foydalangan holda o'qitish ishlari olib borildi. Nazorat guruhida an'anaviy darslik va qo'llanmalar asosida muassasa o'qituvchilarining

tajribasiga tayangan holda mashg'ulotlar olib borildi.

Tajriba va nazorat guruhlarida ishtirok etgan pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari soni quyidagi jadvalda keltarilgan (3. 1- jadvalga qarang):

3.1-jadval.

Tajribada ishtirok etgan talabalar soni

Pedagogika oliy ta'lim muassasalari nomi	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
	guruh	talaba soni	guruh	talaba soni
ADCHTI 272 ta	21- a, b 22- a, b, 23- a, b	135	21- c, d 22- c, d 23- c, d	137
OZDJTU 210 ta	22 -a, b 23-a, b	105	22 -c, d 23-c, d	105
FARDU 200 ta	22- a, b 23-a, b	100	22-c, f 23-c, f	100
Jami 682		340		342

Ushbu muammoni o'rganish maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 1- va 2-kurs talabalari, Farg'ona davlat universiteti xorijiy til va adabiyoti fakulteti 1- va 2 - kurs talabalari hamda Andijon davlat chet tillar instituti 1-va 2- kurs talabalarining mashg'ulotlari kuzatildi va mashg'ulot oxirida ushbu talabalardan anketa savollari asosida so'rovnomma olindi (1-va 2-ilovalarga qarang).

Mashg'ulotlarda o'qituvchilarning talabalarga til o'rgatish jarayonida eski usullardan foydalanishlari ustunligi kuzatildi, grammatikaning quruq bayoniga va grammatik qoidalariga murojaat qilishlariga to'g'ri keldi, ularning og'zaki nutq malakalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda esa an'anaviy metodlar qo'llanilganligi ham kuzatildi. Ingliz tili o'qituvchilari, asosan, darslikdagi ma'lumotlar asosida an'anaviy tarzda, o'qitishning yangi zamonaviy usullari imkoniyatlaridan, jumladan, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanmagan holda mashg'ulotlarni olib borishga odatlanganliklari umumiy xarakter kasb etganligi ayon bo'ldi. Talabalar ham ingliz tili mashg'ulotlarini grammatik qoidalar asosida o'rganishga odatlanganlar. Masalan, tinglab tushunish va og'zaki nutq mashg'ulotlari kuzatilgan o'qituvchi talabalarining nutq malakalarini rivojlantirish uchun darslikdagi matnlar bilan ishlash va mashqlar bajarish bilan kifoyalanishini aniqladik. Ba'zi mashg'ulotlarda ingliz tili o'qituvchilari taqdimotlardan foydalanganligi, ba'zilar faqatgina darslik bilan cheklanganligi, boshqalari esa (handout) tarqatma materiallar bilan mashg'ulotni o'tkazganligi kuzatildi. Umumiy ma'noda mashg'ulotlarda talabalarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda axborot

vositalaridan samarali foydalanmaganliklari aniqlandi. Shu bilan birga, talabalarda ham media savodxonlik kompetensiyasi borasidagi tushunchalar deyarli shakllanmagan. Masalan, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida faoliyat olib borayotgan ingliz tili fani o'qituvchilari bilan suhbat o'tkazilib, anketa so'rovnomasi to'ldirildi (3, 4 -ilovalarga qarang).

3-Ilova

OTM larda talabalar bilan tajriba oldidan o'tkazilgan so'rovnoma

Oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'rgatish va o'rganish holatini aniqlashga mo'ljallangan so'rovnoma

1. Fakultet_____Ta'lim yo'nalishi_____Kurs

So'rovnoma. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Mashg'ulotlarda axborot vositalaridan o'qituvchilar foydalanadilarmi? a) o'qituvchilarning yarmidan kami b) o'qituvchilarning ko'pchiligi c) deyarli hamma o'qituvchilar d) o'qituvchilar foydalanmaydilar.

2. Axborot vositalarini ta'lim jarayonida qo'llash a) bezovta qiluvchi; b) ulardan foydalanishga odatlanganmiz; c) darsni jonlantiradi, qiziqarli qiladi; d) darsda ularning roli muhim emas

3. O'qituvchilarni axborot vositalardan ko'proq foydalanishini xohlaysizmi (javobingizni qisqacha izoh bilan tushuntiring): a) ha (sababini tushuntiring); b) shundayligicha qolsin (sababini tushuntiring); c) axborot vositalardan foydalanishni kamaytirish kerak (sababini tushuntiring); d) sizning tanlovingiz.

4. Aksariyat o'qituvchilar axborot vositalardan foydalangan holda sizning imkoniyatlaringiz va istaklaringizni hisobga oladilar: a) ha, deyarli har doim; b) ba'zan; c) kamdan-kam hollarda; d) deyarli hech qachon d) sizning tanlovingiz.

5. Ingliz tili mashg'ulotlarida qay darajada axborot vositalaridan foydalaniladi? (tez tez, kamdan kam, xar mashg'ulotda, ba'zan)

6. Sizning fikringizcha, qaysi axborot vositasi (gazeta, jurnal, radio, darslik, elektron darslik, internet, raqamli media, multimedia, mobil ilova) nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi va takomillashtiradi?

7. Ingliz tili darsligi sizni qoniqtiradimi?

4-Ilova

OTM larda o'qituvchilar bilan o'tkazilgan so'rovnoma

Ushbu so'rovnoma bizga axborot vositalaridan foydalanish bo'yicha o'qituvchining (axborot vositalardan foydalanish-kompetentligi) xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchun yordam beradi.

1. O'qituvchilik faoliyatingizda axborot vositalardan foydalanishni yoqtirasizmi?

a) ha b) ba'zan c) yo'q d) sizning tanlovingiz.

2. Siz axborot vositalaridan foydalanish bo'yicha malakangizni oshirasizmi?

a) tizimli, muntazam ravishda, aniq rejaga muvofiq; b) o'z-o'zidan, vaqti-vaqti bilan.

3. Siz axborot vositalardan foydalanish bo'yicha kompetensiyangizni qanday yaxshilaysiz a) asosan o'z xohishingizga ko'ra b) mustaqil ravishda ham, ma'muriyat yo'nalishi bo'yicha ham; v) faqat ma'muriyat yo'nalishi bo'yicha.

4. Ishingizda foydalanadigan axborot vositalari turlarini sanab o'ting:

a) b) c) d) e)

5. Axborot vositalaridan foydalanish bo'yicha malaka darajangizni qanday baholaysiz?

0 – malakaga ega emasman, 1 – past darajada, 2 – o'rta darajada, 3 – sal yuqori; 4 – yuqori darajada, 5 – juda yuqori

6. O'quv jarayonida axborot vositalaridan foydalanish samaradorligini baholang:

a) axborot vositalaridan foydalanish o'quv jarayoni samaradorligini pasaytiradi va qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi b) ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir qilmaydi v) past samaradorlik d) axborot vositalaridan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

7. Axborot vositalardan foydalanishda talabalarning imkoniyatlari va istaklarini inobatga olasizmi?

a) hisobga olishga harakat qilaman b) albatta c) kamdan-kam hollarda d) hisobga olmayman

8. Siz internetdan foydalangan holda ma'lumot topa olasizmi?

a) ha b) ba'zan menga yordam kerak c) yo'q

9. Siz mashg'ulotlaringizda tayyor elektron mahsulotlar, elektron darsliklar, elektron ta'lim resurslaridan foydalana olasizmi?

a) ha b) ba'zan menga yordam kerak c) yo'q d) sizning tanlovingiz

10. Siz veb-saytlar yaratish, internetda ma'lumotlarni joylashtirishni bilasizmi?

a) ha b) ba'zan menga yordam kerak c) yo'q d) sizning tanlovingiz

11. Siz axborot vositalaridan nima maqsadda foydalanasiz?

a) talabalarining yangi bilimlarni egallash qobiliyatini shakllantirish;
b) ularning mushohada qila olishlari va ijodkorligini rivojlantirish uchun foydalanish;

c) talabalarga chet tilni o'rgatish uchun

d) shunchaki prezentatsiya uchun

e) mashq qildirish uchun

12. Ingliz tili mashg'ulotlarida qaysi axborot vositalaridan foydalanasizlar? axborot vositalarining turlarini sanab bering.

13. Siz qo'llayotgan axborot vositalarning ingliz tilini o'qitishdagi ahamiyatini izohlab bera olasizmi

14. Qo'yidagi turlardan qaysi axborot vositasi chet tilni o'qitishda samarali deb o'ylaysiz?

a) bosma axborot vositalari; b) zamonaviy axborot vositalari; c) yangi raqamli media; d) ijtimoiy media

15. Axborot vositalari talabalarining til ko'nikmalaridan ko'proq qaysi birini rivojlantirishga yordam beradi deb o'ylaysiz?

a) tinglab tushunish b) gapirish c) o'qish d) yozish e) leksika f) grammatika j) nutqiy kompetentsiyani

16. Sizning fikringizcha qaysi axborot vositasi talabalarining nutqiy kompetentsiyasini takomillashtirishda samara beradi?

a) internet b) internet ta'lim dasturlari c) Ijtimoiy media d) YouTube e) audio podkastlar f) elektron darslik j) elektron lug'atlar

So'rovnomada qatnashgan 20 nafar o'qituvchidan 10 tasi o'z darsida qanday zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishlarini belgilab bergan. Ulardan 10 nafari esa hech qanday axborot vositalarini qo'llamasliklarini, faqatgina ishchi dasturda tavsiya etilgan asosiy darsliklardan foydalanishlarini aytdilar. Ular o'zlari qo'llayotgan metodlarning ingliz tilini o'qitishdagi ahamiyatini izohlashga urindilar, lekin ularning 5 nafarigina qoniqarli javob berdi. Qolgan javoblarda faqat umumiy fikrlar aytiladi.

So'rovnoma tahlillari davomida esa ingliz tili o'qituvchilari zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalaridan o'z darslarida to'laqonli foydalanib ko'rmaganliklari ma'lum bo'ldi. Axborot vositalarining qo'llanilishi bo'yicha talabalarining fikrlarini o'rganish maqsadida ular bilan ham so'rovnoma o'tkazildi (1-va 2-ilovalarga qarang).

So'rovnomaga ko'ra, talabalarining aksariyat qismi zamonaviy axborot vositalaridan, internet va internet veb saytlari, o'quv dasturlari (TED, Duolingo, Kahoot, British Council) va boshqalardan foydalanishlari, qolganlarining esa bulardan bexabarligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarning ingliz tilini o'qitishda axborot vositalaridan foydalanishlarida ulara mediasavodxonlik yetishmasligi hamda axborot vositalarining qaysi turidan va mashg'ulotning qaysi bosqichida maqsadli va samarali foydalanish haqida yetarli tushunchaga ega emasliklari aniqlandi.

Tadqiqotlarimiz yakunida tajriba-sinov o'tkazilgan OTM o'qituvchilarida bu savol va muammolarni idrok etish, amaliy hal qilish boshlang'ich holatga nisbatan ijobiy tomonga keskin o'zgardi.

Talabalarning bilim, saviya va idrok etishlaridagi o'zgarishlar kuzatildi. Masalan, talabalarning aksari zamonaviy axborot vositalaridan mashg'ulotlardan tashqari kundalik hayotida foydalanishlari, shu bilan bir qatorda zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari til o'rganishlarida samarali ekanligini anglab yetdilar. Axborot kommunikativ vositalari talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi va til o'rganishlarida katta qiyinchilikka duch kelmaganliklari kuzatildi. Masalan, nazorat guruhida ingliz tili grammatikasi mashg'uloti o'tkazilganda ingliz tili grammatikasi darsligidan foydalanilgan. Modal fe'llar bo'yicha grammatik qoidalar tushuntirilgan va ushbu qoidalar asosida mashqlar bajarilgan. Tajriba guruhi talabalariga hech qanday grammatik qoida tushuntirilmagan. Grammatikani o'rgatishda (inductive method) induktiv metodni qo'llash maqsadida talabalarga modal fe'llarga oid videofilm namoyish etildi. Talabalarga ushbu film namoyish etilishidan oldin shaxsga yo'naltirilgan topshiriqlar berildi.

1-bosqich: (pre watching) film oldi mashqlari.

2-bosqich: (while watching) film namoyish jarayonidagi mashqlar.

3-bosqich: (post watching) film namoyishidan so'ng bajaradigan mashqlar.

